1. обязательство-обеспечение, выдаваемое поручителю; 2. шотл. документ, излагающий ограничения условия или оговорки при передаче правового титула.	1. tilxat; 2. huquqiy unvonni topshirishda shart yoki qo'shimcha cheklovlarni hujjat nazarda tutuvchi hujjat.
BACKER	
1. индоссант, тот, кто поддерживает; 2. лицо, передающее свои права по векселю; 3. поручитель.	1. indossant, qo'llab-quvvatlovchi shaxs; 2. veksel bo'yicha o'z huquqlarini topshiruvchi shaxs; 3. kafil.
BACKGROUND	
1. биографические данные; 2. фон; 3. база, основа, ~ check проверка данных; ~ for negotiations основа для ведения переговоров; factual ~ обстоятельства дела. 1. визирование; скрепление подписью; 2. финансовая поддержка, субсидирование; 3. подкрепление доказательствами; gold ~ of currency золотое обеспечение денег; state-financing ~ государственная финансовая поддержка.	1. tarjimai hol; 2. fon, tag, asosiy rang; fon (suratning orqa planida ko'rinib turgan qismi); 3. asos, negiz; poydevor; ~ check ma'lumotlarni tekshirish; ~ for negotiations muzokaralar olib borish uchun asos; factual ~ ishning holati. 1. viza qo'ymoq; imzo bilan tasdiqlamoq; 2. moliyaviy yordam, pul (mablag') bilan ta'minlamoq; 3. dalillar bilan asoslantirmoq; gold ~ of currency pulni oltin bilan ta'minlamoq; state-financing ~ davlatning moliyaviy ko'magi.

BACKLOG	
1. задолженность; 2. невыполненные работы, заказы и т. д. ; 3. запасы, резервы (материальных средств, товаров); ~ of debts накопившаяся задолженность; ~ of demand неудовлетворенный спрос; ~ of outstanding payments просроченные платежи, commercial ~ задолженность по торговым операциям.	1. qarzdorlik; 2. bajarilmay qolgan ishlar, buyurtmalar va b.; 3. zaxiralar, rezervlar (moddiy boyliklar, tovarlar); ~ of debts debet (to'plangan) qarzdorlik; ~ of demand qanoatlanirilmagan talab; ~ of outstanding payments kechiktirilgan pul mablag'lari; commercial ~ savdo operatsiyalari bilan bog'liq qarzdorlik.
BACKWARDER	
представитель мелкого бизнеса, мелкий производитель.	kichik biznes vakili, kichik tadbirkor.
BAD	
1. плохой, дурной, неправильный; 2. ненадлежащий; юридически необоснованный; ~ character дурная репутация; ~ debts безнадёжные долги; ~ environment дурное влияние среды; ~ money фальшивые деньги.	1. yomon, yoqimsiz, noto'g'ri; 2. tegishli bo'lmagan; yuridik asoslantirilmagan; ~ character yomon xulq, hurmati yo'q; ~ debts chorasiz qarzdorlik; ~ environment muhitga yomon ta'sir ko'rsatish; ~ money qalbaki pullar.
BADGE	
1. значок; 2. знак, признак.	1. nishon; 2. belgi, alomat.
BAG	
портфель; diplomatic ~ дипломатическая почта.	portfel; diplomatic ~ diplomatik pochta.
BAIL	
1. поручительство; залог; 2. брать на поруки; 3. передача на поруки; 4. передавать на поруки; 5. поручитель; 6. отдавать вещь в зависимое держание ~ absolute поручительство, ответственность по которому наступает при непредставлении отчетности основным должником; ~ below поручительство за явку другой стороны в суд, предварительное поручительство;	1. kafolat; garov puli; 2. kafillikka olmoq; 3. kafillikka bermoq; 4. kafillikka topshirmoq; 5. kafil bo'lgan kishi; 6. buyumlarni kimnidir qaramog'ida qoldirmoq; ~ absolute asosiy qarzdor tomonidan kafillik xatini topshirmaslik yuzasidan kelib chiqadigan javobgarlik; ~ below sudga boshqa tarafning kafolat xatini ko'rsatishi, dastlabki kafolat xati;

<p>~ in error поручительство в связи с приостановкой исполнения при передаче дела в апелляционную инстанцию; ~ on appeal передать/ взять на поруки по апелляции; ~ on attachment поручительство на случай судебного приказа о приводе в суд; ~ out брать на поруки; out on ~ отпущенный на поруки; ~ piece поручительство (документ); admit to ~ передавать на поруки; allow ~ разрешить взять на поруки; become ~ взять на себя поручительство; civil ~ поручительство в гражданском процессе; deny ~ отказать в поручительстве; give ~ дать поручительство, поручиться; go for ~ поручиться за кого-либо; grant ~ отпускать на поруки; hold to ~ оставлять на свободе под залог; jump ~ скрыться от правосудия, будучи отпущенным под залог на поруки; indemnify ~ возместить сумму поручительства; let to ~ выпускать на поруки; levy ~ определять сумму залога; release on ~ освобождать на поруки; освобождение на поруки; save/surrender ~ являться в суд (о выпущенном на поруки), выполнить условия поручительства; waive ~ отказать от поручительства.</p>	<p>~ in error ishni apellyatsiya instantsiyasiga o'tkazilishi munosabati bilan kafillikni to'xtatib turish; ~ on appeal apellyatsiya bo'yicha kafillikni topshirmoq/olmoq; ~ on attachment sudga chaqirilganda yuzaga keladigan kafillik; ~ out kafillikka olmoq; out on ~ kafillik evaziga qo'yib (chiqarib) yubormoq; ~ piece kafillik xati; admit to ~ kafillikka topshirmoq; allow ~kafillikka olishga ruxsat bermoq; become ~kafillikni o'z bo'yniga olmoq; civil ~fuqarolik protsessida kafillik; deny ~kafillikdan voz kechish; give ~kafil bo'lmoq, kafilligini olmoq; go for ~biror kishiga kafil bo'lmoq; grant ~kafillikka ruxsat bermoq; hold to ~garov evaziga ozodlikka chiqarmoq; jump ~garov evaziga ozodlikka chiqib, odil sudlovdan yashirinmoq; indemnify ~kafillik pulini to'lamoq; let to ~kafillikka ruxsat bermoq; levy ~ garov pulini aniqlamoq; release on ~ kafillik evaziga ozodlikka chiqarmoq; save/surrender ~ kafillik evaziga qo'yib yuborilgan holda sudga kelmoq; waive ~ kafillikdan voz kechmoq.</p>
<p>BAILABLE</p>	
<p>допускающий передачу на поруки, подлежащий передаче на поруки.</p>	<p>kafillikni topshirishga ruxsat bermoq.</p>
<p>BAILED</p>	
<p>1. отданный в зависимое держание, переданный и подлежащий возврату (о вещи); 2. переданный или взятый на поруки;</p>	<p>1. kimnidir qaramog'iga topshirilgan, topshirilgan va qaytarilishi lozim bo'lgan buyumlar; 2. topshirilgan yoki kafillikka olingan;</p>

~ for trial освобожденный под поручительство в ожидании рассмотрения дела в суде.	~ for trial ishni sudda ko'rib chiqish vaqtida kafillik evaziga qo'yib yubormoq.
BAILEE	
зависимый держатель; депозитарий; ссудополучатель; арендатор; залогополучатель; ответственный хранитель; ~ for hire должник по договору имущественного найма.	qimmatli qog'oz egasi; depozitariy; ssuda oluvchi; ijaraga oluvchi; garovga oluvchi; mas'ul saqlovchi; ~ for hire mol-mulk ijarasi shartnomasi bo'yicha qarzdor.
BAILIFF	
1. бейлиф, судебный пристав, заместитель шерифа; 2. управляющий именем; управляющий делами, попечитель; special ~ заместитель шерифа (назначенный по ходатайству стороны для специальной цели); ~ errant заместитель бейлифа.	1. beylif, sud ijrochisi, sherif o'rinbosari; 2. mol-mulk bo'yicha boshqaruvchi; vasiy; special ~ sherif o'rinbosari; ~ errant beylif o'rinbosari.
BAILIWICK	
1. округ бейлифа; 2. юрисдикция бейлифа; должность бейлифа.	1. okrug beylifi; 2. beylif yurisdiktsiyasi; beyliflik lavozimi.
BAILMENT	
1. зависимое держание; передача вещи в зависимое держание; 2. ссуда; аренда; 3. залог; 4. подряд; 5. мандат, поручение; ~ for hire имущественный наем, договор имущественного найма. ~ lease долгосрочная аренда имущества при невозможности купить его;	1. buyumlarni kimnidir qaramog'ida saqlash; 2. ssuda; ijara; 3. garov; 4. pudrat; 5. mandat, topshiriq; ~ for hire mol-mulk ijarasi, mol-mulk ijarasi shartnomasi; ~ lease mol-mulkni sotib olish imkoniyatisiz uzoq muddatga ijaraga berish;
constructive/involuntary ~ зависимое держание, не основанное на договоре; gratuitous ~ безвозмездное зависимое держание; lucrative ~ возмездное зависимое держание.	constructive/ involuntary ~shartnoma asosida buyumlarni kimnidir qaramog'ida saqlash; gratuitous ~tekinga buyumlarni kimnidir qaramog'ida saqlash; lucrative ~ to'lov orqali buyumlarni kimnidir qaramog'ida saqlash.

BAILOR	
лицо, отдающее вещь в зависимое держание; поклажедатель; депонент; ссудодатель; арендодатель; залогодатель; кредитор по договору поручения.	buyumlarni kimnidir qaramog'ida saqlashga topshiruvchi shaxs; yuk, bagaj saqlovchi; puli, ish haqi depozitga o'tkazilgan kishi, qarz (ssuda) beruvchi; ijaraga beruvchi; garovga qo'yuvchi; kafolat shartnomasi bo'yicha kredit beruvchi.
BAIL-PIECE	
поручительство (документ).	kafolat (hujjat).
BAILSMAN	
поручитель (за арестованного).	kafil (hibsga olinganga).
BALANCE	
1. равновесие; баланс; 2. сальдо; остаток (на счете); 3. счет в банке; 4. составлять баланс; балансировать; уравнивать; сводить; ~ of account остаток на счете; остаток при расчете.	1. muvozanat; balans; 2. saldo, qoldiq; hisobdagi qoldiq (buxgalteriyada); 3. bankdagi hisob; balansni tuzmoq; balanslamoq; tenglashtirmoq; bir joyga olib kelmoq (bormoq); ~ of account hisobdagi qoldiq.
BALLOT	
1. баллотировочный шар; избирательный бюллетень; 2. баллотировка; выборы; голосование; жеребьевка; 3. голосовать; тянуть жребий; 4. общее количество поданных голосов; secret ~ тайное голосование; short ~ поражение на выборах; single ~ выборы в один тур; successive ~s выборы в несколько туров.	1. saylov byulleteni; 2. ovoz bermoq; saylov; ovozga qo'yish; qur'a tashlash; 3. ovoz bermoq; qur'a tortmoq; 4. berilgan ovozlarining umumiy soni; secret ~ yashirin ovoz bermoq; short ~saylovda mag'lubiyatga uchramoq; single ~bir davrali saylov; successive ~s bir necha davrali saylovlar.
BAN	
1. запрет; запрещение; 2. запрещать; 3. церковное проклятие, анафема; отлучение; 4. проклинать; отлучать, предавать анафеме; 5. прокламация; публичное извещение; 6. статут, эдикт, приказ;	1. taqiq; taqiq-lamoq; 2. man qilmoq; 3. cherkov la'nati, cherkovdan chetlatish; chetlashtirmoq; 4. lanat o'qimoq, qarg'amoq; 5. proklamatsiya, tantanali ravishda e'lon qilish, hammaga ma'lum qilish; 6. statut, oliy farmon, buyruq;

7. штраф, наказание; 8. территория, пользующаяся привилегией; ~ on import запрещение импорта; driving ~ лишение водительских прав; occupational ~ запрещение определенного рода деятельности, запрещение заниматься определенной профессией; put under a ~ налагать запрет.	7. jarima, jazo; 8. imtiyozli hudud; ~ on import importni taqiqlash; driving ~ haydovchilik guvohnomasidan mahrum qilish; occupational ~ muayyan faoliyat bilan shug'ullanishni taqiqlamoq; put under a ~ cheklov qo'yumoq.
BANE	
1. судейская скамья; 2. полный состав суда; in ~ в полном составе (о суде).	1. qora kursi; 2. sudyalarning to'liq tarkibi; in ~ to'liq tarkibda (sudda).
BAND	
преступная банда, шайка.	jinoiy to'da, guruh.
BANDIT	
бандит; разбойник; motor ~ бандит, использующий автомобиль для совершения преступлений; payroll ~ бандит, грабящий инкассаторов.	bosqinchi, qaroqchi; motor ~ avtomobil bosqinchi; payroll ~ inkassatorlar bosqinchisi.
BANDITRY	
бандитизм; разбой; maritime ~ морской разбой, пиратство.	bosqinchilik, qaroqchilik; maritime ~ dengiz qaroqchiligi.
BANISH	
изгонять, ссылать, высылать (из страны).	haydamoq, surgun (badarg'a) qilmoq; chiqarib yubormoq (mamlakatdan).
BANISHMENT	
изгнание, высылка (из страны); ссылка.	haydab yubormoq, chiqarib yubormoq (mamlakatdan); surgun (badarg'a) qilmoq.
BANK	
1. банк; 2. судейская скамья; 3. суд; полный состав суда; 4. отмель, берег (реки); 5. фонд; резерв; 6. заниматься банковским делом; ~ acceptance вексель, акцептованный банком; ~ account счет в банке; ~ of deposit сберегательный (депозитный) банк	1. bank; 2. qora kursi; 3. sud; sudyalarning to'liq tarkibi; 4. sayozlik, qirg'oq (daryoda); 5. fond; xazira; 6. bank faoliyati bilan shug'ullanmoq; ~ acceptance bank tomonidan aktseptlangan veksel; ~ account bankdagi hisob

<p>~ of International Settlements Банк международных расчетов; ~ of issue эмиссионный банк; ~ paper банкноты, векселя, принимаемые банком к учету; ~ rate ставка банковского учета; branch ~ отделение банка; commercial ~ коммерческий банк; credit ~ банк взаимного кредита; in ~ в полном составе; International ~ for Economic Cooperation Международный банк экономического сотрудничества; International ~ for Reconstruction and Development Международный банк реконструкции и развития; investment ~ инвестиционный банк; joint-stock ~ акционерный банк; land ~ земельный банк; mortgage ~ ипотечный банк; mutual savings ~ взаимно-сберегательный банк; parent ~ контролирующий банк (банк, владеющий контрольным пакетом акций другого банка); real estate ~ земельный ипотечный банк; savings ~ сберегательный банк, сберегательная касса; trading ~ коммерческий банк.</p>	<p>; ~ of deposit bank omonati; ~ of International Settlements Xalqaro hisob-kitob banki; ~ of issue emissiyaviy bank; ~ paper bank tomonidan hisobga qabul qilinadigan banknotlar, veksellar; ~ rate bank hisobidagi maosh; branch ~ bank bo'limi; commercial ~ tijorat banki; credit ~ kredit beruvchi bank; in ~ to'liq tarkibda; International ~ for Economic Cooperation Xalqaro iqtisodiy hamkorlik banki; International ~ for Reconstruction and Development Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki; investment ~ investitsion bank (investitsiya operatsiyalari bilan shug'ullanadigan bank); joint-stock ~ aksiyadorlik bank; land ~ yerdan foydalanish bilan bog'liq operatsiyalar bilan shug'ullanadigan bank; mortgage ~ ipoteka bank; mutual savings ~ omonat saqlovchi bank; parent ~ nazorat qiluvchi bank (boshqa bankning aksiya nazorat paketlariga ega bo'lgan bank); real estate ~ ipoteka bank; savings ~ omonat saqlovchi bank, omonat kassasi; trading ~ tijorat banki.</p>
<p>BANKER</p>	
<p>1. банкир; 2. банк; 3. крупье; ~'s lien право банкира на удержание денег/ имущества должника.</p>	<p>1. bankir; 2. bank; 3. krupte; ~'s lien bankirning qarzdorning puli/mol-mulkini ushlab turishga bo'lgan huquqi.</p>
<p>BANKING</p>	
<p>1. банковское дело; 2. банковские услуги; банковские операции; 3. банковская ссуда, банковский кредит; ~-house банкирский дом, контора.</p>	<p>1. bank ishi; 2. bank xizmatlari; bank operatsiyalari; 3. bank ssudasi, bank krediti; ~-house bankirlar uyi, mahkamasi.</p>

BANKNOTE	
кредитный билет; банковский билет; банкнота.	kredit bileti; bank ishi bileti; banknota.
BANKRUPT	
1. банкрот, несостоятельный должник; 2. сделать банкротом; разорить; 3. неплатежеспособный, обанкротившийся, несостоятельный; adjudged/certificated ~ лицо, объявленное банкротом по суду; cessionary ~ банкрот, передавший имущество для раздела между кредиторами; discharged ~ восстановленный в правах банкрот, освобожденный от долгов; fraudulent ~ злостный должник; go ~ обанкротиться; involuntary ~ должник, объявленный несостоятельным по требованию кредиторов; uncertificated/ undischarged ~ не восстановленный в правах банкрот; voluntary ~ должник, объявленный несостоятельным по собственному заявлению.	1. bankort, to'lashga qurbi yetmaydigan qarzdor; 2. bankrotlikka duchor bo'Imoq; barbod qilmoq, xarob qilmoq; 3. to'lashga qodir emas, bankrotlikka uchragan, nochor; adjudged/certificated ~ sud tomonidan bankrot deb topilgan shaxs; cessionary ~ kreditorlar o'rtasida mol-mulkni taqsimlash bo'yicha bankrotlik; discharged ~ bankrotlik bo'yicha huquqlari tiklangan, to'lashga qurbi yetmaydigan qarzdorning o'z qarzaridan ozod qilinishi; fraudulent ~ soxta bankrotlik; go ~ bankrotlikka uchramoq; involuntary ~ kreditorlar talablarini bajara olmaydi deb topilgan qarzdor; uncertificated/ undischarged ~ bankrotlik bo'yicha qayta tiklanmaganlik; voluntary ~ o'z arizasiga ko'ra to'lashga qurbi etmaydigan deb topilgan qarzdor.
BANKRUPTCY	
банкротство, несостоятельность; неплатежеспособность; adjudication in ~ объявление банкротом по суду; administration/commission/ committee in ~ конкурсное управление имуществом; petition in ~ возбуждение дела о банкротстве; procedure in ~ конкурсное производство; warrant in ~ приказ об открытии конкурсного производства.	bankrotlik, to'lashga qurbi yetmaslik; to'lay olmaslik; adjudication in ~ sud tomonidan bankrot deb topish; administration/ commission/ committee in ~tanlov bo'yicha mol-mulkni boshqarish; petition in ~bankrotlik bo'yicha ish qo'zg'atish; procedure in ~ tanlov bo'yicha ishlab chiqarish; warrant in ~ tanlov bo'yicha ishlab chiqarish ochiqligi e'lon qilinishi bo'yicha buyruq.

BAR	
<p>1. барьер (в зале заседаний суда, законодательного органа);</p> <p>2. суд в полном составе; судебное присутствие; 3. коллегия адвокатов; адвокатура; 4. прекращающий или аннулирующий фактор; 5. правовое препятствие; правовой запрет;</p> <p>6. возражение ответчика, являющееся достаточной защитой против иска;</p> <p>7. пресекать, прекращать; исключать, аннулировать; запрещать; отменять; покрывать давностью, погашать;</p> <p>8. pl тюремная решетка; ~ admission разрешение практиковать в суде, данное адвокату; ~ and bench адвокаты и судьи; ~ an entail снимать с недвижимости ограничение круга наследников и права отчуждения; ~ civil proceedings препятствовать возбуждению/ведению гражданского судопроизводства; ~ of the court адвокаты, допущенные к выступлениям в суде;</p> <p>at ~ находящийся в суде, на рассмотрении суда;</p>	<p>1. to'siq (sud kengashi zalida, qonun chiqaruvchi organda); 2. sudning to'liq tarkibi; sudda qatnashish;</p> <p>3. advokatlar kollegiyasi; advokatura; 4. tugatilgan yoki bekor qilingan omil; 5. taqiqlamoq; man qilmoq; 6. arizaga qarshi yetarli himoyaga ega bo'lgan javobgarning e'tirozi; 7. to'xtatmoq, barham bermoq; inkor etmoq, bekor qilmoq; taqiqlamoq; bekor qilmoq; qoplamoq, to'lamoq;</p> <p>8. qamoqxona panjarasi; ~ admission advokatning sudda amaliyot o'tashiga berilgan ruxsat; ~ and bench advokatlar va sudyalari; ~ an entail ko'chmas mulkdan vorislar doirasi va begonalashtirish huquqiga cheklovni olib tashlash; ~ civil proceedings fuqarolik protsessining qo'zg'atilishiga to'sqinlik qilmoq; ~ of the court advokatning muayyan sudda ishtirok etishiga ruxsat etmoq;</p> <p>at ~ sud muhokamasiga qo'yilishi;</p>
<p>blank ~ возражение ответчика, в котором истцу предлагается точно указать место происшествия и т. п. ;</p> <p>calling to the ~ 1. прием в адвокатуру;</p> <p>2. предоставление права адвокатской практики; go to the ~ получать право адвокатской практики; plea in ~ возражение по существу иска;</p> <p>statutory ~ законное препятствие, законодательный запрет.</p>	<p>blank ~ javobgarning da'vogardan hodisa joyini va b. aniq ko'rsatib berishini taklif qilmoq; calling to the ~ 1. advokatura qabuli;</p> <p>2. advokatlik ishini taqdim qilish huquqi; go to the ~ advokatlik ishini o'z zimmasiga olish huquqi; plea in ~ da'vo asosida e'tiroz bildirmoq;</p> <p>statutory ~ qonuniy cheklov.</p>
BARGAIN	
<p>1. сделка, соглашение, договор;</p> <p>2. заключать сделку, договариваться; вести переговоры;</p>	<p>1. bitim, kelishuv, shartnoma;</p> <p>2. bitim tuzmoq, kelishmoq; muzokaralar olib bormoq</p>

3. выгодная сделка/покупка; ~ and sale договор купли-продажи; bad/losing ~ невыгодная сделка; be off one's ~ аннулировать сделку; close/conclude a ~ заключать сделку; corrupt ~ бесчестная сделка; criminal ~ преступная сделка; Dutch ~ сделка, выгодная только одной стороне; time ~ сделка на срок; срочная сделка.	3. foydali kelishuv/xarid; ~ and sale oldi-sotdi shartnomasi ; bad/losing ~manfaatsiz kelishuv; be off one's ~bitimni bekor qilmoq; close/conclude a ~bitim tuzmoq; corrupt ~insofsiz kelishuv; criminal ~jinoiy bitim; Dutch ~bir tomonga foyda keltiruvchi bitim; time ~ belgilangan muddatda tuzilgan bitim; shoshilinch bitim.
BARGAINEE	
покупатель.	xaridor, sotib oluvchi.
BARGAINER	
продавец.	sotuvchi.
BARGAINING	
переговоры; collective ~ переговоры о заключении коллективного договора; sole ~ переговоры о заключении индивидуального трудового соглашения.	muzokara ; collective ~ umumiy kelishuvga erishishi haqida muzokara qilish; sole ~yakka tartibda mehnatga oid kelishuv bo'yicha muzokaralar.
BARON	
1. барон; 2. судья суда казначейства; ~ et feme муж и жена; ~ of the exchequer судья суда казначейства;	1. baron; 2. g'aznachilik sudining sudyasi; ~ et feme er-xotin; ~ of the exchequer - g'aznachilik sudining sudyasi;
chief ~ главный судья суда казначейства.	chief ~ g'aznachilik sudining bosh sudyasi;
BARRATOR	
1. лицо, совершающее баратрию; субъект баратрии; 2. клязник, сутяга; common ~ сутяга (субъект сутяжничества по общему праву).	1. baratriya sodir qilgan shaxs dengiz kemasiga qasddan zarar yetkazuvchi kema kapitani); baratriya subyekti; 2. ig'vogar, tuhmatchi, sudlashishni (dovlashishni) yaxshi ko'radigan odam, sudboz; common ~ umumiy huquq bo'yicha sudlashuvchi sub'yekt.
BARRATRY	
1. баратрия (умышленное причинение ущерба грузу или судну из-за действий капитана или судовой команды);	1. baratriya (kapitan yoki kema ekipaji harakati tufayli kemaga yoki yukka qasddan zarar yetkazish);

2. злонамеренное бесосновательное возбуждение споров и судебных дел; сутяжничество; common ~ сутяжничество по общему праву.	2. yomon niyatda asossiz tortishuvlarni va sud ishini qo'zg'atish; sudlashish; common ~ umumiy huquq bo'yicha sudlashish.
BARRED	
погашенный (исковой давностью).	to'langanlik (da'vo bo'yicha bo'lib o'tgan).
BARRIER	
барьер, преграда; препятствие, помеха; tariff ~ to trade тарифный барьер для ограничения торговли; trade~s торговые ограничения.	to'siq, g'ov; to'sqinlik, xalal, xalaqit; tariff ~ to trade savdo faoliyatini cheklovchi tarifli to'siq; trade~s savdo faoliyatiga qo'yilgan cheklov.
BARRISTER	
барристер; briefless ~ адвокат без практики; chamber ~ барристер, не выступающий в суде; consulting ~ адвокат-консультант; inner ~ старший барристер; junior ~ 1. барристер ниже ранга королевского адвоката; 2. младший из двух адвокатов одной стороны; outer/utter ~ младший барристер (ниже ранга королевского адвоката).	advokat; briefless ~ amaliyotga ega bo'lmagan advokat; chamber ~ sudda chiqib qatnashmaydigan advokat; consulting ~advokat-maslahatchi; inner ~katta advokat; junior ~ 1. qirollik advokatidan pastki rangdagi advokat; 2. bir tomonning ikki advokatidan yoshi kichigi; outer/utter ~ kichik advokat (qirollik advokatidan pastki rang).
BARTER	
1. договор мены, товарообменная сделка; 2. заключать договор мены.	1. ayirboshlash shartnomasi, tovar ayirboshlash shartnomasi; 2. ayirboshlash shartnomasini tuzmoq.
BASE	
1. база, основа; 2. основывать; 3. принудительный, рабский, крепостной; 4. низкий, неблагородный (металл), низменный (интерес, мотив); ~ estate 1. низшее сословие; 2. незаконнорожденный.	1. asos, poydevor; 2. asos solmoq; 3. majburiy, qulga oid, krepostnoy, dehqon; 4. past, aslmas (metal), past, qabih (qiziqish, motiv); ~ estate 1. eng past tabaqa; 2. nikohsiz tug'ilgan.
BASELESS	
необоснованный.	asossiz, asoslanmagan.

BASIS	
основа; основание, фундаментальный принцип; базис; on an on-going ~ постоянно; on a «pay me when you can» ~ на условиях оплаты при наличии возможности; on parity ~ на паритетной основе; self-supporting ~ хозрасчет.	asos; asos solmoq, asosiy prinsip; negiz; on an on-going ~ doimo, hamisha; on a «pay me when you can» ~ imkoniyati mavjud bo'lishi sharti bilan to'lash; on parity ~ tenglik asosida; self-supporting ~ xo'jalik hisobi.
BASTARD	
внебрачный ребенок; незаконнорожденный; adulterine/adulterous ~ внебрачный ребенок замужней женщины; special ~ ребенок, родившийся до заключения брака между родителями.	nikohsiz tug'ilgan bola; nikohsiz tug'ilgan; adulterine/adulterous ~ turmushga chiqqan ayolning nikohsiz tug'ilgan bolasi; special ~ ota-ona o'rtasida nikoh tuzilishidan oldin tug'ilgan bola.
BASTARDIZE	
1. объявлять незаконнорожденным в судебном порядке; 2. представлять доказательства незаконнорожденности; 3. произвести на свет незаконнорожденного ребенка; родить ребенка вне брака.	1. sud orqali nikohsiz tug'ilgan deb e'lon qilish; 2. nikohsiz tug'ilganligini belgilovchi dalillarni taqdim qilish; 3. nikohsiz tug'ilgan bolani dunyoga keltirmoq; nikohsiz farzand ko'rish.
BATE	
уменьшать, смягчать; уступать (в цене); ~ expenses сокращать расходы.	kamaytirmoq, yumshatmoq; arzonroq qilmoq (narxda); ~ expenses xarajatlarni qisqartirmoq.
BATTERY	
нанесение побоев, избиение; action for ~ иск за оскорбление действием; simple ~ оскорбление действием.	jarohat yetkazmoq, urmoq, do'pposlamoq; action for ~ haqorat qilganlik to'g'risidagi ariza; simple ~ harakat orqali haqorat qilmoq.
BEADLE	
1. курьер при суде, судебный посыльный; 2. церковный староста.	1. sudda xat tashuvchi; 2. cherkov oqsoqoli, boshlig'i.
BEAR	
1. перевозить; нести; 2. терпеть; допускать; разрешать; 3. рождать; приносить плоды;	1. olib o'tmoq; olib bormoq; 2. toqat qilmoq; ruxsat etmoq; ijizat bermoq; 3. dunyoga keltirmoq; hosil bermoq;

<p>4. «медведь», спекулянт на бирже, играющий на понижение курсов валюты, ценных бумаг, цен товаров; 5. давать (показания); ~ evidence свидетельствовать, давать свидетельские показания; not to ~ examination быть совершенно необоснованным; ~ expenses нести расходы; ~ false witness лжесвидетельствовать, давать ложные свидетельские показания; ~ market «рынок медведей», рынок, цены на котором падают; ~ interest приносить проценты; ~ losses нести убытки; ~ out a statement поддержать заявление; ~ testimony witness свидетельствовать.</p>	<p>4. valyutalar, qimmatbaho qog'ozlar kursi, tovar narxlari tushganda olib sotuvchi birja spekulyanti, "ayiq"; 5. bermoq (guvohlik); ~ evidence guvohlik bermoq, guvohlik ko'rsatmalarini bermoq; not to ~ examination mutlaqo asoslantirilmaganlilik; ~ expenses xarajatlarga olib kelmoq; ~ false witness yolg'on guvohlik bermoq; ~ market narxlar tushuvchi bozor; ~ interest foyda olib kelmoq; ~ losses zarar keltirmoq; ~ out a statement arizani qo'llab-quvvatlamoq; ~ testimony witness guvohlik bermoq.</p>
<p>BEARER</p>	
<p>податель, предъявитель, владелец документа; ~ of dispatches посылный; ~ security ценная бумага на предъявителя; tax ~ налогоплательщик.</p>	<p>topshiruvchi shaxs, ko'rsatuvchi, beruvchi, hujjat egasi; ~ of dispatches xat tashuvchi; ~ security qimmatbaho qog'ozda ko'rsatiluvchi shaxs; tax ~ soliq to'lovchi.</p>
<p>BEAT</p>	
<p>1. район (основное подразделение округа в некоторых южных штатах США); 2. избирательный участок; 3. район полицейского патрулирования; 4. устраивать облаву; 5. избивать, наносить побои.</p>	<p>1. tuman (AQShning ayrim janubiy shtatlaridagi okrugining asosiy bo'linmasi); 2. saylov uchastkasi; 3. tuman politsiya patruli; 4. qurshov tashkil qilmoq; 5. urmoq, kaltaklamoq.</p>
<p>BEATING</p>	
<p>битье, побои; severe ~ жестокое избивание.</p>	<p>urmoq, kaltaklamoq; severe ~ qattiq urmoq.</p>
<p>BED</p>	
<p>брачные права и обязанности.</p>	<p>er-xotin huquq va majburiyatlari.</p>
<p>BEGGAR</p>	
<p>нищий; человек, живущий милостыней.</p>	<p>tilanchi, gadoy, qashshoq; xayr-sadaqa evaziga yashovchi.</p>

BEGGING	
попрошайничество.	tilanchilik.
BEFORE-MENTIONED	
вышеупомянутый.	yuqorida eslatib o'tilgan.
BEHALF	
1. помощь; поддержка, защита; 2. интерес, выгода, польза; for and on ~ of за и от имени кого-либо; in ~ of ради, в пользу, в интересах кого-либо; in this ~ 1. в этом отношении; 2. по этому вопросу; on ~ of за кого-либо; от имени кого-либо.	1.yordam; qo'llab-quvvatlamoc, suyanchiq; 2. manfaat, naf, foyda; for and on ~ of kimdir uchun va kinningdir nomidan; in ~ of kinningdir foydasi, manfaatlari uchun; in this ~ 1. ushbu munosabatda bo'lish; 2. ushbu masalada; on ~ of kimdir uchun; kinningdir nomidan.
BEHAVIOUR	
1. поведение, поступки; манеры; 2. отношение, обращение; ~ in office совершение действий по должности. официальное поведение; arbitrary ~ произвол; bad ~ неправомерное поведение, наказуемое поведение; disruptive ~ поведение, нарушающее порядок судебного заседания; evil ~ злостное поведение.	1. axloq, xulq, qiliq; odat; 2. munosabat. muomala; ~ in office mansabdand foydalanib harakat sodir qilish, rasmiy muomala; arbitrary ~ o'z boshimchalik; bad ~ g'ayriqonuniy xulq-atvor, jazoga loyiq xulq-atvor; disruptive ~ sud majlisi intizomini buzuvchi xulq-atvor; evil ~ yomon xulq-atvor.
BENEST	
at ~ по распоряжению.	buyrug'iga ko'ra, farmoyishiga binoan.
BEHOOF	
польза, выгода, интерес.	foyda, naf, manfaat.
BELIEF	
мнение, убеждение; ~ in good faith and on reasonable grounds добросовестное, обоснованное предположение; fixed ~ предубежденное мнение; good faith ~ добросовестное предположение; honest and reasonable ~ добросовестное и обоснованное предположение; mistaken ~ ошибочное предположение; wrong ~ заблуждение.	fikr, ishonch; ~ in good faith and on reasonable grounds vijdonan aytilgan taxmin, asoslantirilgan taxmin; fixed ~ yanglish fikr; good faith ~ vijdonan aytilgan taxmin; honest and reasonable ~ vijdonan aytilgan va asoslantirilgan taxmin; mistaken ~ xato fikr; wrong ~ yanglishmoq, xato o'yilamoq.

BELIEVE	
предполагать; ~ properly предполагать, основываясь на адекватной оценке; ~ reasonably обоснованно предполагать; ~ wrongly ошибочно предполагать.	taxmin qilmoq; ~ properly asoslanib taxmin qilmoq; ~ reasonably asoslanib taxmin qilmoq; ~ wrongly xato o'ylamoq.
BELLIGERENCY	
1. статус воюющей стороны; 2. состояние войны.	1. urushayotgan tomonning statusi; 2. urush holati.
BELLIGERENT	
воюющий, воюющая сторона; accessory ~ второстепенная воюющая сторона; the ~s участники вооруженного конфликта; государства, находящиеся в состоянии войны.	urushayotgan tomon; accessory ~ ikkinchi darjali urushayotgan tomon; the ~s qurolli mojaro ishtirokchilari; urush holatida turgan davlatlar.
BENCH	
1. скамья; место (в парламенте, в суде); 2. суд, судьи, судейское сословие; судебное присутствие, состав суда/арбитража; 3. назначать на должность судьи; 4. занимать должность судьи; 5. заседать в качестве судьи, быть членом суда; ~ and the bar судьи и адвокаты;	1. kursi; joy (parlamentda, sudda); 2. sud, sudyalar; sudda hozir bo'lish, sud/arbitraj tarkibi; 3. sudyalikka tayinlamoq; 4. sudyalik mansabini egallamoq; 5. sudya sifatida sud majlisida qatnashmoq, sud a'zosi bo'lmoq; ~ and the bar sudyalar va advokatlar
~ trial судебный процесс без присяжных; ~ warrant распоряжение суда; on the ~ председательствующий в суде, входящий в состав суда; sit on the ~ судить кого-либо, принимать участие в рассмотрении дела в суде.	~ trial xalq maslahatchilarisiz sud jarayonining o'tishi; ~ warrant sud buyrug'i; on the ~ sud vakili, sud tarkibiga kiruvchi vakil; sit on the ~ kimnidir ishini sudda ko'rmoq.
BENCHER	
старейшина школы подготовки барристеров.	Barristerlarni (advokatlarni) tayyorlovchi maktab boshlig'i.
BENEFICIAL	
выгодный, полезный; mutually ~ взаимовыгодный.	manfaatli, foydali; mutually ~ ikki tomonlama foydali.

<p>BENEFICIARY</p> <p>1. бенефициар(ий), лицо, в интересах которого осуществляется доверительная собственность; выгодоприобретатель; лицо, получающее выгоду, прибыль, доходы; привилегии/льготы;</p> <p>2. священник, стоящий во главе прихода; ~ under the will бенефициарий по завещанию; designated ~ указанный (в завещании) бенефициарий; heir ~ лицо, принявшее наследство с условием ответственности по наследственным долгам в пределах его стоимости.</p>	<p>1. benefitsiar(iy), mulkka egalik qilishni ishonib topshirilgan shaxs; foydani ko'zlovchi; foyda, daromad oluvchi shaxs; imtiyoz/yyengillik;</p> <p>2. ruhoni; ~ under the will vasiyatnoma bo'yicha benefitsiariy; designated ~ vasiyatnomada ko'rsatilgan benefitsiariy; heir ~ meros qarzlarini o'z tan narxi miqyosida mas'uliyat sharti bilan qabul qiluvchi shaxs</p>
<p>BENEFIT</p> <p>1. выгода; польза; 2. приносить пользу; извлекать пользу; 3. преимущество; привилегия; 4. прибыль; плоды; 5. материальное пособие; ~ conferred предоставленная привилегия; ~ of clergy привилегия духовного звания: неподсудность духовенства светскому суду; ~ of council право обвиняемого на защиту; ~ of discussion право поручителя на погашение долга в первую очередь из имущества основного должника; ~ of doubt сомнение в пользу ответной стороны; ~ of inventory право наследника на ограничение его ответственности по наследственным долгам стоимостью наследства; ~ of session освобождение должника от будущего заключения за счет отчуждения его имущества за долги; ~ of trial право на рассмотрение дела в суде;</p>	<p>1. foyda, naf; 2. foyda keltirmoq; foyda olmoq; 3. ustunlik; imtiyoz; 4. daromad; natija; 5. moddiy yordam; ~ conferred imtiyoz bermoq; ~ of clergy diniy martabadagi imtiyoz: ruhoniyning dunyoviy sudda sud qilinmasligi; ~ of council ayblanuvchining himoya huquqi; ~ of discussion asosiy qarzdorning birinchi navbatda mol-mulkidan qarzini to'lash bo'yicha kafilning huquqi; ~ of doubt shubhalikning qarshi tomon foydasiga hal qilinishi; ~ of inventory meros bo'yicha qarzlarni to'lash majburiyatining cheklanishi bo'yicha vorisning huquqi; ~ of session mol-mulkini begonalashtirish hisobiga qarzdorning qarzlaridan ozod qilish; ~ of trial ishlarni sudda ko'rish bilan bog'liq huquq;</p>

<p>accident ~ пособие по несчастному случаю; derive/get ~ извлекать; disablement ~ пособие по потере трудоспособности; fringe ~s дополнительные льготы (оплачиваемый отпуск и т. д.); health/medical/sick(ness) пособие по болезни; invalidity ~ пособие по инвалидности; insurance ~s вознаграждение по страхованию; maternity ~ пособие по беременности и родам; relief ~ право на пособие; retirement/service ~ выходное пособие; social ~ пособие по социальному страхованию; take the ~ of the bankrupt объявлять себя банкротом; tax ~ налоговая льгота; unemployment ~ пособие по безработице.</p>	<p>accident ~ baxtsiz hodisa bo'yicha yordam puli olmoq; derive/get ~ chiqarmoq, olmoq; disablement ~ ishsizlik bo'yicha nafaqa; fringe ~s qo'shimcha imtiyozlar (mehnat ta'tili puli va b.); health/ medical/ sick(ness) kasallik bo'yicha nafaqa; invalidity ~ nogironlik nafaqasi; insurance ~s sug'urta puli; maternity ~onalik puli; relief ~ nafaqa olishga bo'lgan huquq; retirement/service ~dam olish bo'yicha ajratiladigan pul; social ~ ijtimoiy himoya puli; take the ~ of the bankrupt o'zini bankrot deb topish; tax ~soliqdagi imtiyoz; unemployment ~ ishsizlik bo'yicha nafaqa.</p>
<p>BEQUEATH завещать (движимое имущество).</p>	<p>1. vasiyat qilib qoldirmoq (ko'char mulkni).</p>
<p>BEQUEST завещательный отказ движимого имущества; ~ in trust доверительный отказ движимости; executory ~ завещание будущих прав на движимость;</p>	<p>vasiyat bo'yicha ko'char mulklarni rad etish; ~ in trust ko'char mulkdan ishonchli rad etish; executory ~ ko'char mulk bo'yicha huquqlarni vasiyat qilmoq;</p>
<p>general ~ завещание движимости без указания завещаемых предметов; residuary ~ завещание движимости, оставшейся после выплаты долгов и завещательных отказов; specific ~ завещание всей движимости определенной категории; substitutional/substitutionary ~ подназначение наследника.</p>	<p>general ~ ko'char mulklarni nomini ko'rsatib o'tinadan vasiyat qilib qoldirmoq; residuary ~ qarzlarni to'langandan hamda vasiyatni rad etilgandan so'ng qolgan ko'char mulk bo'yicha vasiyat; specific ~ aniq belgilangan ko'char mulk bo'yicha vasiyat; substitutional/ substitutionary ~vorislarni belgilab bermoq.</p>
<p>BEREAVE ограбить.</p>	<p>o'g'irlamoq.</p>

BESTOW	
дарить; жаловать; присваивать; присуждать; ~ an office предоставлять должность; ~ a title жаловать титул; присваивать звание.	tortiq qilmoq; in'om (tortiq, hadya) qilmoq; o'zlashtirmoq; hukm chiqarmoq; ~ an office lavozim bermoq; ~ a title unvon bermoq.
BET	
1. договор пари; сделка, заключенная на пари; 2. заключать пари.	1. garov bog'lash; 2. garov o'ynamoq.
BETRAY	
предавать, изменять; ~ trust обмануть доверие.	xoinlik qilmoq, xiyonat qilmoq, sotqinlik ; ~ trust ishonchni suiiste'mol qilmoq.
BETRAYAL	
предательство, измена.	xoinlik, sotqinlik, xiyonat.
BETRAYER	
предатель, изменник.	xoin, sotqin.
BETTER	
державший пари.	garov o'ynovchi.
BETROTH	
1. обручить, помолвить; 2. подписывать брачный контракт.	1. nikohlamoq, unashtirmoq; 2. nikoh shartnomasini imzolamoq.
BETTING	
пари; заключение пари: pool ~ заключение пари по совокупности ставок; street ~ заключение пари на улицах (состав преступления).	garov, bas; garov bog'lamoq; pool ~ jami tikilgan pul bo'yicha garov o'ynamoq; street ~ ko'chalarda garov o'ynamoq (jinoyat tarkibi).
BIAS	
1. пристрастность; предубежденность; заинтересованность в исходе дела; 2. тенденция; 3. дискриминация; 4. отклонять; 5. оказывать давление, шикать; job ~ дискриминация в области труда; political ~ политическая дискриминация; with considerable ~ с явным пристрастием.	1. g'arazgo'ylik. nohaqlik; noto'g'ri tushunchaga ega bo'lish; ishning ketishidan manfaatdor bo'lmoq; 2. g'araz, bir yoqlama fikr; 3. kamsitish; 4. rad qilmoq, qaytarmoq; 5. bosim ko'rsatmoq, ta'sir etmoq; job ~ mehnat sohasidagi kamsitishlar; with considerable ~ ishkora g'arazgo'ylik bilan.

BIASED	
пристрастный, предубежденный, заинтересованный в исходе дела.	g'arazli, nohaq, noto'g'ri tushunchaga ega bo'lmoq, ishning ketishidan manfaatdor bo'lmoq.
BID	
1. предлагать цену (на аукционе); 2. предложенная цена, ставка (в пари); 3. предложение выполнения подряда или поставки по определенной цене (на торгах); 4. торги; 5. принимать участие в торгах; ~ against/up набавлять цену; ~ and asked цена покупателя и цена продавца; ~ price цена, предложенная покупателем; ~ quote цена, предлагаемая брокером при покупке ценной бумаги или товара; competitive ~ конкурентноспособное предложение; higher ~ более выгодное предложение; highest ~ наилучшее предложение; last ~ окончательная цена.	1. narxlarni taklif etmoq (auksionda); 2. tikilgan pulni taklif etmoq (garovda); 3. pudrat ishini yoki muayyan narxda yetkazib berishni taklif etmoq (kim oshdi savdosida); 4. kim oshdi savdosi; 5. kim oshdi savdosida ishtirok etmoq; ~ against/up bahoni oshirmoq; ~ and asked xaridorning bahosi va sotuvchi bahosi; ~ price xaridor tomonidan taklif qilingan narx; ~ quote qimmatbaho qog'ozlarni va tovarlarni sotishda broker tomonidan taklif qilingan narx; competitive ~ raqobatbardosh taklif; higher ~ yanada yaxshi taklif; highest ~ eng yaxshi taklif; last ~ qat'iy narx.
BIDDER	
покупщик; лицо, предлагающее цену (на аукционе); участник торгов.	xaridor; narxni taklif qiluvchi shaxs (auksionda); kim oshdi savdoda qatnashuvchi shaxs.
BIDDING	
1. предложение цены (на аукционе); 2. торги; 3. надбавка в цене; brisk ~ бойкие торги; collusive ~ предложение цен на аукционе по предварительному сговору.	1. narxni taklif qilmoq (auksionda); 2. kim oshdi savdosi; 3. bahoni oshishi; brisk ~ tez o'tadigan kim oshdi savdolar; collusive ~ auksionda narxlarni oldindan kelishgan holda taklif qilmoq.
BIGAMIST	
имеющий двух жен или имеющая двух мужей.	ikki xotinli erkak yoki ikki erli ayol.
BIGAMY	
бигамия, двоебрачие, двоеженство.	ikki xotinlilik.

BILATERAL	
двусторонний (договор, сделка).	ikki tomonlama (shartnoma, bitim).
BILK	
1. жулик, мошенник; 2. жульничество, обман; 3. обманывать, уклоняться от уплаты; ~ed потерпевший от обмана, мошенничества; ~er мошенник, жулик.	1. firibgarlik, qalloblik; 2. firibgarlik, aldov; 3. aldamoq, to'lovdan qochmoq; ~ed aldangan; ~er firibgar, qallob.
BILL	
1. исковое заявление, иск; 2. судебный приказ; 3. петиция, просьба, заявление; 4. билль, законодательный акт, законопроект; закон; 5. обязательство, вексель; 6. список, изложение пунктов; 7. статья взаимных расчетов; 8. счет-фактура, инвойс; 9. выставлять счет; инвойсировать, фактурировать, выписывать накладную; 10. амер. банкнота, казначейский билет; 11. декларация (таможенная); 12. обвинительный акт; 13. свидетельство; ~ at sight переводной вексель/трата, срочная немедленно по предъявлению; ~ at usance вексель на срок, установленный торговым обычаем; ~ broker вексельный брокер, посредник при купле-продаже ценных бумаг; ~ for foreclosure иск об обращении взыскания на заложенную недвижимость; ~ for legal defence 1. иск; 2. заявление о предоставлении правовой защиты; ~ for new trial иск о новом рассмотрении дела; ~ in equity иск, основанный на праве справедливости;	1. da'vo arizasi, ariza; 2. sud buyrug'i; 3. ariza, iltimosnoma; 4. qonun loyihasi, qonun chiqarish akti; qonun; 5. veksel; 6. bandlarni ifoda etmoq; 7. ikki tomonlama hisob-kitoblar qismi; 8. hisob-faktura, invoys; 9. hisobni chiqarib bermoq; 10. amer. banknot, g'aznachilik bileti; 11. deklaratsiya (bojxona); 12. ayblov hujjati; 13. guvohlik; ~ at sight o'tkaziladigan veksel/sarf-xarajat, taqdim etilishi bilanoq zudlik bilan amalga oshiriladigan veksel; ~ at usance savdo qoidalariga ko'ra belgilanadigan muddatli veksel; ~ broker veksel bo'yicha broker, qimmatli qog'ozlarni oldi-sottisi bo'yicha vositachi; ~ for foreclosure garovga qo'yilgan ko'chmas mulkni undirib olish haqida da'vo bilan murojaat qilish; ~ for legal defence 1. da'vo; 2. huquqiy himoya talab etib ariza berish; ~ for new trial ishni yangidan ko'rish haqida da'vo; ~ in equity adolat huquqiga asoslangan da'vo

~ **in the nature of a bill of review** иск третьего лица о пересмотре дела; ~ **in the nature of a bill of revivor** иск о рассмотрении правоотношений, связанных с прекращением дела производства; ~ **in the nature of a supplemental bill** иск о вступлении в дело нового лица в связи с обстоятельствами, возникшими после возбуждения дела; ~ **obligatory** документ за печатью с безусловным обязательством уплаты денежной суммы; ~ **on demand** вексель срочный по предъявлению; ~ **of acceptance** акцепт, акцептованный переводной вексель/тратта; ~ **of bankruptcy** об'явление о своей несостоятельности; ~ **of certiorari** заявление с просьбой о передаче рассматриваемого дела в суд высшей инстанции; ~ **of conformity** иск душеприказчика/ администратора наследства об определении порядка расчетов с кредиторами; ~ **of costs** ведомость издержек по делу; счет адвокатских расходов; ~ **of debt** денежное обязательство; ~ **of discovery** ходатайство истца о представлении ответчиком относящихся к делу документов и фактов; ~ **of entry** ввозная таможенная декларация; ~ **of exeptions** заверенные судьей письменные возражения стороны против действий суда по рассматриваемому делу; ~ **of indictment** обвинительный акт;

~ **in the nature of a bill of review** ishni qayta ko'rish haqida uchinchi shaxsning da'vosi; ~ **in the nature of a bill of revivor** ish ko'rishni to'xtatish masalalari bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni ko'rish haqida da'vo; ~ **in the nature of a supplemental bill** - ish qo'zg'atilgandan keyin sodir bo'lgan holatlar tufayli ishni boshqa shaxsga o'tkazish haqida da'vo; ~ **obligatory** ko'rsatilgan pul miqdorini albatta to'lash sharti bilan muhrlangan hujjat; ~ **on demand**- zudlik bilan taqdim etiladigan veksel; ~ **of acceptance** aktsept, aktsept qilingan, o'tkazilgan veksel/tratta; ~ **of bankruptcy** qurbi etmasligi haqida bayonot berish; ~ **of certiorari** -ko'rilayotgan ishni yuqori sud instantsiyasiga o'tkazish haqida ariza; ~ **of conformity**-vasiyatni ijro etuvchi kishining kredit beruvchilar bilan hisob-kitob ishlarini tartibga solish haqidagi arizasi; ~ **of costs** ish yuzasidan xarajatlar vedomosti; advokatlarga to'lanadigan xarajatlar hisob-kitobi ~ **of debt** qarzdorlik majburiyati; ~ **of discovery** da'vogarning javobgar tomonidan ishga taalluqli fakt va hujjatlarni taqdim etilishini talab qilish; ~ **of entry** olib kiriladigan yukka bojxona deklaratsiyasi; ~ **of exeptions** ko'rilayotgan ish bo'yicha sud xatti-harakatiga nisbatan sudya tomonidan tasdiqlangan yozma e'tiroz; ~ **of indictment** ayblov xulosa, ayblov akti;

~ of **interpleader** возбуждение лицом судебного процесса в целях определения прав третьих лиц на спорный предмет; ~ of **parcels** счет-фактура: накладная; ~ of **particulars** подробности по рассматриваемому делу; ~ of **peace** иск о признании права; ~ **rendered** расчет, представленный кредитором по контокорренту; ~ of **review** иск о пересмотре решения суда; ~ of **revivor** иск о возобновлении дела производством; ~ of **revivor and supplement** иск о возобновлении дела производством с приведением вновь возникших обстоятельств; ~ of **sale** 1. закладная; 2. купчая; ~ **single** документ за печатью с безусловным денежным обязательством; **ancillary** ~ аксессуарное требование, вытекающее из основного иска; **bank** ~ переводной вексель/тратта, выставленная на банк/банком; **be true** ~ обвинительный акт, подлежащий утверждению (большим жури); **call up a** ~ потребовать предъявления декларации (таможенной); **clear a** ~ уплатить пошлины в соответствии с (таможенной) декларацией; **commercial** ~ торговая тратта, коммерческий вексель; **discount a** ~ учесть вексель, тратту; **find true** ~ передавать дело в суд; **ignore the** ~ прекращать дело; отказать в передаче дела в суд (о большом жури); **long dated** ~ долгосрочный переводной вексель/тратта; **make** ~ выставлять вексели; **meet** ~ оплачивать вексели; **note a** ~ сделать на векселе погирпальную отметку об отказе трассата от акцепта или от уплаты;

~ of **interpleader** bahsli masala bo'yicha uchinchi tomonning huquqini aniqlash maqsadida sud jarayonini qo'zg'atish; ~ of **parcels** schet-faktura; nakladnoy (yukka, molga qo'ishib yuboriladigan hujjat); ~ of **particulars** - ko'rilayotgan ish bo'yicha batafsil ma'lumot ~ of **peace** huquqni e'tirof etish bo'yicha da'vo; ~ **rendered** - kontokorrent bo'yicha kredit beruvchi tomonidan taqdim etilgan hisob; ~ of **review** sud qarorini qaytadan ko'rish haqida da'vo; ~ of **revivor** ish yuritishni qayta tiklash haqida da'vo; ~ of **revivor and supplement** ish yuritishni yangi paydo bo'lgan holatlarni hisobga olib qayta tiklash haqida da'vo; ~ of **sale** 1. garov xat (mol-mulkni garovga qo'yganda yoziladigan hujjat); 2. vasiqa, ko'pchik (mol-mulk sotib olganlik haqida hujjat); ~ **single** pul hisobida majburiyatni tasdiqlovchi muhrlagan hujjat; **ancillary** ~ asosiy da'vodan kelib chiqadigan qo'shimcha talabnoma; **bank** ~ bankka yoki bank tomonidan qo'yilagan o'timli (o'tkaziladigan veksel/tratta); **be true** ~ hakamlar tomonidan tasdiqlanadigan ayblov akti; **call up a** ~ bojxona deklaratsiyasini taqdim etishni talab qilish; **clear a** ~ bojxona to'lovini deklaratsiyada belgilangandek to'lamoq; **commercial** ~ tijorat (savdo) vekseli; **discount a** ~ vekselni, trattani hisobga olmoq; **find true** ~ ishni sudga oshirmoq; **ignore the** ~ ishni to'xtatish, ishni sudga oshirishni to'xtatmoq;

<p>original ~ исковое заявление (основанное на обстоятельствах, еще не известных суду); overdue ~ просроченный вексель; protest a ~ опротестовать вексель; settle ~ оплачивать счет; уплачивать по векселю; supplemental ~ заявление истца об обстоятельствах, ставших ему известными после подачи иска; take up a ~ 1. оплачивать переводный вексель; 2. акцептовать переводный вексель; term/tenor of ~ срок векселя.</p>	<p>(hakamlar ishtirokida sud tartibida); long dated ~ uzoq muddatli o'tkazma veksel/tratta; make ~vekselni ko'rsatib qo'yamoq; meet ~vekselni to'lamoq; note a ~ vekselda qabul qilish yoki to'lovdan voz kechish haqida notarial izoh berish; original ~ da'vo arizasi (iskovoe zayavlenie (sudga ma'lum bo'lmagan holatlarga asoslangan); overdue ~muddati o'tib qolgan veksel; protest a ~vekselga qarshi norozilik bildirmoq; settle ~hisobni to'lamoq, hisobni veksel orqali to'lamoq; supplemental ~da'vo arizasi berilgandan so'ng da'vogarga ma'lum bo'lib qolgan holatlar bo'yicha da'vogaming arizasi; take up a ~ 1. o'tkazma vekselni to'lamoq; 2. o'tkazma vekselni qabul qilmoq; term/tenor of ~veksel muddati.</p>
<p>BIND</p> <p>1. обязывать, связывать обязательством, создавать обязательство; 2. задерживать; ограничивать; ~ a bargain скрепить сделку (подписью); ~ duties обязываться не повышать пошлины; ~ over предписывать (действие, поведение); ~ over to appear обязать явиться в суд.</p>	<p>1.majburiyat yuklamoq, zimmasiga yuklamoq; 2. to'xtatib turmoq, ushlab turmoq; cheklamoq, chegaralamoq; ~ a bargain shartnomani mustahkamlamoq (imzo bilan); ~ duties bojni oshirmaslik bo'yicha majburiyat; ~ over yo'l-yo'riq, maslahat bermoq (harakat, xulq-atvor); ~ over to appear sudga kelishlik majburiyati.</p>
<p>BINDER</p> <p>временный страховой документ (до оформления полиса).</p>	<p>vaqtinchalik sug'urta hujjati (polisni rasmiylashtirishdan oldin).</p>
<p>BINDING</p> <p>1. обязательство; 2. обязывающий, имеющий обязательную силу;</p>	<p>1. majburiyat; 2. majburiyat yuklovchi,</p>

обязательный, связующий; ~ authority обязательный авторитет (источники закона, которые должны приниматься во внимание при вынесении решения по делу); ~ by oath приведение к присяге; ~ force обязательная сила; legally ~ юридически обязательный.	majburiy kuchga ega bo'lgan; majburiy; ~ authority majburiy e'tibor (ish yuzasidan qaror qabul qilishda e'tiborga olinishi zarur bo'lgan qonun manbalari); ~ by oath qasamyod ichishga olib kelish; ~ force majburiy kuch; legally ~ huquqiy jihatdan majburiy.
BIPARTITE	
1. двусторонний; 2. состоящий из двух частей.	1. ikki tomonlama; 2. ikki qismdan iborat bo'lgan.
BIRTH	
рождение; ~ certificate свидетельство о рождении; ~ of issue рождение потомства; ~right 1. право первородства; 2. право по рождению; out-of-wedlock ~ рождение ребенка вне брака.	tug'ilish; ~ certificate tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma; ~ of issue avlodning davom etishi; ~right 1. to'ng'ich farzandning huquqi; 2. tug'ilgandan kelib chiqadigan huquq; out-of-wedlock ~ nikohsiz bolaning tug'ilishi.
BLACKLEG	
штрейкбрехер; быть штрейкбрехером.	shtreykbrexer (ish tashlash vaqtida ish tashlamagan shaxs).
BLACKLIST	
черный список, список несостоятельных должников; ~ing занесение в черный список, составление черных списков.	qora ro'yxat, to'lay olmaydigan qarzdorlar ro'yxati; ~ing qora ro'yxatga kirgizmoq, qora ro'yxat tuzmoq.
BLACKMAIL	
1. шантаж, вымогательство; 2. шантажировать; ~er шантажист.	1. tovlamachilik. 2. tovlamachilik qilmoq, shantaj qilmoq; ~er tovlamachi.
BLACK-MARKET	
черный рынок; ~eer торговец, спекулянт на черном рынке.	qora bozor; ~eer- qora bozorda sotuvchilik (chayqovchilik) qilmoq
BLADING	
цискалвия.	yuk hujjati.
BLAME	

1. ответственность, вина; 2. считать виновным; ~ thieves симулировать кражу (при фальшивом банкротстве); shift the ~ перекладывать ответственность; shoulder the ~ принимать вину на себя.	1. javobgarlik, ayb; 2. aybdor hisoblamoq; ~ thieves o'g'irlikni sodir etishga sharoit yaratish (soxta bankrotlik paytida); shift the ~ majburiyatni boshqa shaxsga ag'darish; shoulder the ~ aybni o'z bo'yniga olmoq.
BLANK	
1. рискованный; 2. служащий источником опасности; ~ employment вредное производство; ~ substance вредные (токсичные) вещества.	1. xavf-xatarli; 2. xavf manbai xizmatchisi; ~ employment zararli ishlab chiqarish; ~ substance zararli (toksi) modda.

HEAD	
1. голова; 2. рубрика; параграф; 3. начальник, руководитель, глава; ~ of government глава правительства; ~ of household глава семьи; лицо, содержащее на иждивении членов семьи; ~ of pleading адвокат, руководящий ведением дела со стороны защиты; ~ tax подушный налог; ~ of department министр; ~ officer главный чиновник; ~ of state глава государства.	1. bosh; 2. rubrika (gazeta, jurnal va sh. k. dagi bo'limning sarlavhasi); paragraf; boshliq, rahbar boshchi; ~ of government huqumat boshlig'i; ~ of household oila boshlig'i; oila azolarini boquvchi shaxs; ~ of pleading himoya tomonidan ish yuritishni boshqaruvchi advokat; ~ tax jon boshiga solinadigan soliq; ~ of department bo'lim boshlig'i, vazir; ~ officer bosh mansabdor, idora boshlig'i; ~ of state davlat boshlig'i.
HEAD-NOTE	
тезис, краткое изложение основных вопросов по решенному делу перед полным изложением последнего в сборнике судебных решений.	tezis, ishda ko'rilgan sud qarorlarini to'planmasidagi asosiy ko'rilgan masalalarning qisqa ko'rinishdagi bayoni.
HEADLIGHT	
фара	transport vositalarining oldingi yoritgich chiroqlari.
HEALTH	
здоровье; environmental ~ здравоохранение в аспекте окружающей среды; mental ~ 1. психическое здоровье; 2. охрана психического здоровья; occupational ~ гигиена труда, производственная гигиена; public ~ общественное здравоохранение.	sog'liq; environmental ~ atrof-muhit aspektida sog'loqni saqlash; mental ~ 1. ruhiy sog'liq; 2. ruhiy sog'liqni saqlash; occupational ~ mehnat gigienasi, ishlab chiqarish gigienasi; mehnatni; public ~ jamoat sog'lig'ini saqlash.
HEAR	
разбирать, заслушивать, слушать (дело в суде); ~ ex parte слушать дело при наличии одной стороны; ~ in banc слушать дело в полном составе; ~ testimony слушать, заслушивать свидетельские показания; ~ a case слушать дело.	(sudda ishni) hal qilmoq, ko'rmoq; ~ ex parte bir tomon ishtirokida ishni ko'rmoq; ~ in bans to'liq tarkibda ishni ko'rmoq; ~ testimony guvoh ko'rsatmasini ko'rmoq, ~ a case (sudda) ish ko'rmoq.

<p>HEARING</p> <p>слушание (дела в суде); ~ in private закрытое судебное слушание; ~ on a motion рассмотрение ходатайства; слушание (дела) по ходатайству; ~ of arguments прения сторон; adjudicatory ~ слушание на предмет вынесения судебного/ арбитражного решения; appeal ~ рассмотрение апелляции; слушание дела по апелляции; conduct the ~ слушать дело; final ~ слушание дела, заканчивающееся вынесением решения; omnibus ~ комплексное слушание (всех заявленных ходатайств в едином заседании); oral ~ прения сторон; removal ~ слушание по вопросу о передаче дела в другую юрисдикцию; waiver ~ слушание по вопросу об отказе от права; ~ initial (preliminary) предварительное слушание.</p>	<p>(sudda ishni) ko'rmoq; ~ in private yopiq sud majlisi; ~ on a motion rasmiy iltimosni ko'rib chiqish; (ishni) rasmiy iltimos bo'yicha ko'rish; ~ of arguments tomonlarning muzokarasi; adjudicatory ~ sud/hakamlik qarorini chiqarish predmetini ko'rish; appeal ~ appelyatsiyani ko'rib chiqish; appelyatsiya bo'yicha ishni ko'rish; conduct the ~ qaror chiqarilishi bilan tugallanadigan ishni ko'rish; omnibus ~ (barcha taqdim etilgan talablarni bir majlisda) kompleks tarzda ko'rish; oral ~ tomonlarning sudda so'zga chiqishi; removal ~ ishni boshqa yurisdiksiyaga o'tkazish haqida masala bo'yicha ko'rish; waiver ~ huquqdan voz kechish haqidagi masala bo'yicha ko'rish; ~ initial (preliminary) (suda ko'riladigan ishning) dastlabki muhokamasi.</p>
<p>HEARSAY</p> <p>1. слух, молва; 2. показания с чужих слов, свидетельство, основанное на слухах; ~ evidence/ testimony свидетельские показания с чужих слов; ~ within hearsay свидетельство по слуху, отсылающему к другому свидетельству по слуху.</p>	<p>1. mish-mish; 2. begonalar so'zidan ko'rsatma, mish-mishga asoslangan guvohlik; ~ evidence/testimony begonalar so'zidan guvohlik ko'rsatmasi; ~ within hearsay mish-mish bo'yicha boshqa guvohlikka murojaat qiluvchi mish-mish bo'yicha guvohlik.</p>
<p>HEAVY</p> <p>тяжелый, тяжкий, ~ punishment тяжкое наказание; ~ term of imprisonment длительный срок тюремного заключения.</p>	<p>og'ir, ~ punishment og'ir jazo, ~ term of imprisonment mahbuslikning uzoq muddati, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum qilinish.</p>

HEDGE	
1. преграда; 2. хедж (срочная сделка, заключенная для страхования от возможного падения цены); 3. хеджировать, страховать от потерь.	1. to'siq; 2. xeydj (narxlarning tushib ketishi mumkinligidan sug'urta uchun tuzilgan shoshilinch bitim).
HEDGING	
хеджирование, страхование от риска, потерь.	xavf-xatar, yo'qotishdan sug'urtalash, xeydj qilish.
HEIR	
наследник; ~ apparent первый наследник, непосредственный прямой наследник; ~ at law наследник по закону; by adoption наследник в силу усыновления; ~ by custom наследник в силу обычая; ~ by devise наследник по завещанию; ~ collateral наследник по боковой линии; ~ conventional наследник по договору; ~ general наследник по закону; ~ of the blood кровный наследник; ~ of the body наследник по нисходящей линии; ~ presumptive предполагаемый наследник; ~ testamentary наследник по завещанию; bodily ~ наследник по прямой нисходящей линии; expectant ~ лицо, ожидающее получения наследства; female ~ наследник по женской линии; forced ~ наследник, имеющий по закону гарантированную долю в наследстве, обязательный наследник; joint ~s сонаследники; last ~ последний наследник (государство, наследующее выморочное имущество);	merosxo'r; ~ apparent bevosita to'g'ri birinchi merosxo'r; ~ at law qonun bo'yicha merosxo'r; ~ by adoption farzandlikka olish kuchilagi merosxo'r; ~ by custom urf-odat bo'yicha merosxo'r; ~ by devise vasiyatnoma bo'yicha merosxo'r; ~ collateral yon shajara bo'yicha merosxo'r; ~ conventional shartnoma bo'yicha merosxo'r; ~ general qonun bo'yicha merosxo'r; ~ of the blood qon-qarindosh merosxo'r; ~ of the body pasayib boruvchi shajara-bola, nevara, chevara, evara-bo'yicha merosxo'r; ~ presumptive taxminiy merosxo'r; ~ testamentary vasiyatnoma bo'yicha merosxo'r; bodily ~to'g'ri pasayib boruvchi shajara-bola, nevara, chevara, evara-bo'yicha merosxo'r; expectant ~meros olishni kutuvchi shaxs; ~ female ~ayol tomonidan merosxo'r; forced ~merosda qonun bo'yicha kafolatlangan ulushga ega merosxo'r; majburiy merosxo'r; joint ~s ham merosxo'r; last ~oxirgi merosxo'r-davlat (keyinchalik egasiz qoladigan mulk);

last-resort ~ наследник последней очереди; lawful ~ 1. наследник; 2. наследник по нисходящей линии; legal ~ наследник по закону; legitimate ~ 1. наследник по прямой нисходящей линии; 2. наследник по закону; presumptive ~ предполагаемый наследник; pretermitted ~ наследник, не включенный в завещание.	last-resort ~ oxirgi navbatdagi merosxo'r; lawful ~ 1. merosxo'r; 2. pasayib boruvchi shajara-bola, nevara, chevara, evara-bo'yicha merosxo'r; legal ~ qonun bo'yicha merosxo'r; legitimate ~ 1. to'g'ri pasayib boruvchi shajara-bola, nevara, chevara, evara-bo'yicha merosxo'r; 2. qonun bo'yicha merosxo'r; presumptive ~ taxminiy merosxo'r; pretermitted ~ vasiyatnomaga kiritilmagan merosxo'r.
HEIRDOM	
наследование; наследство.	meros qilish: meros.
HEIRESS	
наследница.	merosxo'r ayol.
HEIRLESS	
не имеющий наследников; ~ estate выморочное имущество.	merosxo'rlari bo'lmagan; ~ estate egasiz mulk.
HEIRLOOMS	
фамильные вещи, следуемые за наследуемой недвижимостью; движимость, являющаяся принадлежностью недвижимости.	ko'chmas mulk
HEIRSHIP	
статус наследника, права наследника.	merosxo'r maqomi, merosxo'r huquqi.
HELD	
«решено», «суд решил».	“xal qilingan”, “sud xal qildi”.
HENCEFORTH	
с этого времени, впредь.	shu vaqtdan, oldindan.
HEREAFTER	
впредь, в дальнейшем.	oldindan, keyinchalik.
HEREBY	
настоящим, сим.	hozirdagi, shu vaqtdagi.
HEREDITABLE	
по наследству.	meros bo'yicha.

HEREDITAMENTS	
имущество (недвижимое), могущее быть предметом наследования; corporeal ~ наследуемое вещное право на владение недвижимостью; incorporeal ~ наследуемое вещное право на нематериальный объект, относящийся к недвижимости (сервитут и т. п.).	meros predmeti bo'lishi mumkin bo'lgan (ko'chmas) mulk; corporeal ~ ko'chmas mulk egaligiga moddiy meros huquqi; incorporeal ~ ko'chmas mulkka taalluqli bo'lgan (servitut va sh. k.) nomoddiy obektga moddiy meros huquqi.
HEREDITARY	
наследственный; ~ portion обязательная доля (в наследстве).	meros qilingan; ~ portion (merosdagi) majburiy ulush.
HEREDITY	
унаследованные черты; наследственность.	meros qilib olingan xususiyatlar; nasldan naslga o'tish.
HEREIN	
здесь, в этом (документе).	shu erda, bunda (hujjatda).
HEREINABOVE	
выше (в документах).	yuqorida (hujjatlarda).
HEREINAFTER	
ниже, в дальнейшем (в документах).	quyida, keyinchalik (hujjatlarda).
HEREINBEFORE	
выше (в документах).	yuqorida (hujjatlarda).
HERETO	
к этому (документу).	bunga (hujjatga).
HERETOFORE	
ранее, до сего времени.	oldin, hozirgi vaqtgacha.
HEREUNDER	
в силу настоящего закона/договора; в соответствии с настоящим законом/договором.	hozirgi kundagi qonun/shartnoma kuchida; hozirgi kundagi qonun/shartnomaga muvofiq.
HEREWITH	
при сем.	pri sem.
HERITABILITY	
право наследования.	meros olish huquqi.

HERITABLE	
наследственный, наследуемый, могущий передаваться по наследству, переходящий по наследству.	meros qilingan, meros qilinadigan, meros bo'yicha o'tkazilishi mumkin, meros bo'yicha o'tkaziladigan.
HERITAGE	
1. наследуемое недвижимое имущество; наследство; 2. доля наследства.	1. meros qilingan ko'chmas mulk; meros; 2. meros ulushi.
HEROIN	
героин (наркотик)	geroin, bangilik giyohidan olingan modda, nasha, ko'knori.
HIDE	
прятать, скрывать.	yashirmoq, ko'zdan olib qochmoq.
HIDDEN	
спрятанный, скрытый; ~ asset скрытые средства; ~ defect скрытый дефект; ~ tax налог, включенный в продажную цену.	berkitilgan, yashirilgan; ~ asset berkitilgan vosita; ~ defect berkitilgan nuqson; ~ tax sotuv narxiga kiritilgan soliq.
HIGH	
1. высокий, высший; 2. высшая точка; ~ contracting parties высокие договаривающиеся стороны; ~ level conference конференция на высшем уровне; ~ misdemeanour государственный мисдиминор; lifetime ~ максимальная цена заключения сделки за время существования контракта; ~ Commissioner Верховный комиссар; ~ Court of justice Высокий суд правосудия; ~ seas открытое море; ~ treason государственная измена;	1. yuqori, oliy; 2. yuqori nuqta; ~ contracting parties shartnoma qiladigan yuqori tomonlar; ~ level conference oliy darajadagi konferensiya; ~ misdemeanour davlat misdiminori; ~ Commissioner Oliy komissar, rahbar; ~ Court of justice Oliy Adliya sudi; ~ seas ochiq dengiz; ~ treason davlatga nisbatan qilingan xoinlik.
HIGHER CHAMBER	
верхняя палата	yuqori hukumat palatasi

HIGHLIGHT	
освещать. ~ of the case наиболее существенные обстоятельства и факты дела.	yoritmoq, bosh maqola; ~ of the case (sudda ko'riladigan) ishning ahamiyatga molik (tarozi bosadigan) holatlar va voqealıkları.
HIGHWAY	
1. дорога общественного пользования; ~ tax налог на строительство и поддержание общественных дорог; ~ laws ; ~ robber разбойник с большой дороги.	1. umum foydalanish yo'li; ~ tax qurilish va jamiyat yo'llarini ta'mirlashga soliq; ~ robber qaroqchi, yo'l tusar.
HIJACK	
заниматься воздушным пиратством.	xavo transportlaridagi qaroqchilik, yo'l tusarlik.
HIRE	
1. наем (личный/движимости); прокат; 2. наемная плата; оплата услуг по найму; 3. нанимать; ~ out сдавать в наем; давать напрокат; let on ~ сдать в наем; take on ~ нанять.	1. yollash, yollamoq, ijaraga olmoq, yollanma (shaxsiy/ko'chmas mulk); kira; 2. yollanma to'lovi; yollanma bo'yicha xizmat to'lovi; 3. yollamoq; ~ out yollanmaga bermoq; kiraga bermoq; let on ~ yollanmaga bermoq; take on ~ yollamoq.
HIRE-PURCHASE	
1. купля-продажа в рассрочку; 2. переход в собственность вещи, взятой напрокат после ряда платежей.	1. bo'lib to'lashga oldi-sotti; 2. qator to'lovlardan keyin kiraga olingan buyumni egalikka o'tishi.
HIRER	
1. наниматель; 2. лицо, берушее вещь напрокат.	1. yollovchi; 2. buyumni kiraga oluvchi shaxs.
HIRING	
1. договор личного найма; 2. договор имущественного найма движимости; прокат; ~ at will бессрочный наем.	1. shaxsiy yollanma shartnomasi; 2. ko'chmas mulkni kira shartnomasi; kira; ~ at will muddatsiz yollanma.

HISTORY	
история; совокупность имеющихся фактов; досье; employment ~ трудовая книжка, трудовой стаж; life ~ биография.	tarix; mavjud dalillarning barchasi; biron ish, masala yoki shaxsga doir hujjatlar to'plami; employment ~ mehnat daftarchasi, mehnat staji; life ~ biografiya.
HIT	
1. ударять, наносить удар; 2. ликвидировать; убивать; ~- and-run accident дорожно-транспортное происшествие, участники которого покидают место происшествия неопознанными; ~- and-run driver водитель, который, сбив пешехода, скрылся с места происшествия.	1. urilmoq, zarb bermoq; 2. yo'q qilmoq; o'ldirmoq; ~- and-run accident voqea joyini tanimay tashlab ketgan ishtirokchilar, yo'l-transport hodisasi; ~- and-run driver voqea joyi qochib ketgan, piyodani urib yuborgan haydovchi.
HITHERTO	
ранее, до сего времени.	oldin, hozirgi vaqtgacha.
HOARDING	
1. накопление; 2. тайный запас, накопление, клад.	1. yig'ish. 2. yashirin zahira, yig'im, xazina.
HOLD	
1. держать, владеть; 2. признавать, решать; выносить решение (в суде); 3. обязывать; 4. проводить (собрание и т. п.); 5. занимать (должность); 6. иметь силу, оставаться в силе; ~ a brief for someone выступать в суде со стороны кого-либо, вести чье-либо дело в суде; ~ absolutely владеть абсолютно, безусловно; a judgement/a judicial decision вынести судебное решение; ~ a judicial sale производить продажу по решению суда; ~ an action поддерживать судебный иск; ~ back уклоняться; тянуть (дело); утаивать; ~ good иметь силу, оставаться в силе, действовать;	1. ushlab turmoq, egalik qilmoq; 2. tan olmoq, hal qilmoq; (sudda) qaror qilmoq; 3. majbur qilmoq; 4. o'tkazmoq (yig'ilish va sh. k.); 5. (mansab) egallamoq; 6. kuchga ega bo'lmoq, kuchida qolmoq; ~ a brief for someone sudda kimningdir tomonidan chiqmoq, sudda kimningdir ishini yuritmoq; ~ absolutely mutlaq egalik qilmoq, shak-shubhasiz a judgement/a judicial decision sud qarorini chiqarmoq; ~ a judicial sale sud qarori bo'yicha sotuvni amalga oshirmoq; ~ an action sud da'vosini qo'llab-quvvatlamoq; ~ back bo'yin tovlamoq (ish); yashirmoq;

<p>~ hearing проводить слушание; ~ in abeyance не заявлять (о притязании, праве); ~ in trust владеть на началах доверительной собственности; ~ foreign exchange иметь счета в иностранных валютах; ~ over 1. оставаться во владении по истечении срока аренды; 2. продолжать осуществлять должностные функции по истечении срока пребывания в должности; ~ pleas рассматривать дела, заслушивать дела, разбирать дела; ~ responsible in damages считать ответственным за убытки; ~ the affirmative нести бремя доказывания; ~ to security обеспечивать, гарантировать.</p>	<p>~ good kuchga ega bo'lmoq, kuchida qolmoq, amal qilmoq; ~ hearing sudda ish ko'rislmi amalga oshirmoq; ~ in abeyance arz qilmaslik (shikoyat, huquq haqida); ~ in trust boshida ishonib topshirilgan mulkka egalik qilmoq; ~ foreign exchange xorijiy valyutadi hisobga ega bo'lmoq; ~ over 1. ijara muddati tugashi bo'yicha egalikda qolmoq; ~ pleas ishni ko'rmoq, ishni inuhokama qilmoq, ishni hal qilmoq; ~ responsible in damages zarar uchun javobgar hisoblamoq; ~ the affirmative isbotlash vazifasini bajarimoq; ~ to security ta'minlamoq, kafolatlamoq.</p>
<p>HOLDER</p>	
<p>держатель, владелец; ~ for value правомерный держатель, держатель на возмездных началах; ~ in due course правомерный держатель, держатель в порядке законного правопреемства; ~ of account владелец счета; ~ of estate владелец недвижимости; ~ of letter of credit владелец аккредитива; ~ of pledge залогодержатель; ~ of right 1. субъект права; 2. уполномоченное лицо; advance ~ авансодержатель; allotment ~ арендатор, субарендатор; bona fide for value ~ добросовестный держатель документа, предоставивший надлежащее встречное удовлетворение; bona fide without notice ~ добросовестный держатель документа, предоставивший</p>	<p>ega; ~ for value haqiqiy ega, ~ in due course haqiqiy ega, qonuniy haqiqat tartibidagi ega; ~ of account hisob egasi; ~ of estate ko'chmas mulk egasi; ~ of letter of credit akkredit egasi; ~ of pledge garov egasi; ~ of right 1. subekt huquqi; advance ~ avans egasi; allotment ~ ijarachi, subijarachi; copyright ~ mualliflik, nashr huquq egasi; legal ~ qonuniy ega; office ~ lavozimli shaxs; ship ~ kema egasi; title ~ huquqiy maqomga egalik qiluvchi.</p>

надлежащее встречное удовлетворение и не знающий о дефектах правового титула индоссанта; copyright ~ владелец авторского, издательского права; legal ~ законный владелец; office ~ должностное лицо; onerous ~ держатель на возмездных началах; ship ~ судовладелец; title ~ обладатель правового титула.	
HOLDING	
1. владение; держание; 2. арендованная недвижимость; 3. судебное решение; ~ company холдинг-компания; держатель акций других компаний; adverse ~ владение, основанное на утверждении правового титула вопреки притязаниям другого лица; agricultural ~ земельный участок, обрабатываемый с целью извлечения прибыли; court ~ судебное решение; pastoral ~ пастбищный земельный участок; property ~s предметы собственности, находящееся в собственности имущество.	1. egalik; ushlab turish; 2. ijaraga berilgan ko'chmas mulk; 3. sud qarori; ~ company xolding-kompaniya; boshqa kompaniyalar aksiyalari egasi; agricultural ~ foyda chiqarish maqsadi bilan ishlov beriladigan er uchastkasi; court ~ sud qarori; pastoral ~ yaylov yer uchastkasi; property ~s mulk egaligiga tegishli egalik predmetlari.
HOLEPROOF	
не оставляющий лазеек, не оставляющий возможности разного толкования (о законе, договоре).	turli talqinga imkoniyat qoldirmaydigan (qonun, shartnoma haqida).
HOLIDAY	
праздник, нерабочий день; ~s with pay оплачиваемый отпуск; legal ~ официальный нерабочий, неприсутственный день.	bayram, dam olish kuni; ~s with pay haq to'lanadigan ta'til; legal ~ rasmiy dam olish, ishlanmaydigan kun.
HOLOGRAF	
голограф, собственноручно написанный документ.	golograf, o'z qo'li bilan yozilgan hujjat.

HOME	
1. дом; 2. домашний; внутренний; 3. постоянное местожительство; 4. семья; ~ trade внутренняя торговля; broken ~ распавшаяся семья; foster ~ приемная семья; legal ~ юридическое местожительство; ~ leave privilege «отпуск домой» для заключенных (англ.); ~ Office Министерство внутренних дел; ~ rule самоуправление (англ.); ~ Secretary Министр внутренних дел; remand ~ исправительный дом.	1. uy; 2. xonaki; ichki; 3. doimiy yashash joyi; 4. oila; ~ trade ichki savdo-sotiq; legal ~yuridik yashash joyi; ~ leave privilege mahbuslar uchun uyiga borib kelish uchun beriladigan ta'til, imtiyoz, ruxsat; ~ Office Ichki ishlar vazirligi; ~ rule o'z-o'zini boshqarish; ~ Secretary Ichki ishlar vaziri ; remand ~ahloq tuzatish joyi.
HOMESTEAD	
1. жилище с прилегающим участком; домашнее имущество; 2. имущество, по закону освобожденное от взыскания по долгам.	1. yer maydoni bilan uy-joy; uy mulki. 2. qarzlarni undirishdan qonun bo'yicha ozod qilingan mol-mulk.
HOMICIDE	
1. лишение человека жизни; убийство; 2. убийца; vehicular ~ гибель в результате дорожно-транспортного происшествия, justifiable ~ убийство при оправдывающих обстоятельствах.	1. insonni hayotidan mahrum qilish; qotillik; 2. qotil; vehicular ~ yo'l-transport hodisasida halok bo'lish, justifiable ~ yengillashtiruvchi holatda sodir etilgan qotillik.
HOMO LEGALIS	
юридическое лицо.	yuridik shaxs.
HOMOLOGATE	
одобрять, подтверждать, санкционировать.	ma'qullamoq, tasdiqlamoq, sanksiya bermoq.
HOMOLOGATION	
1. одобрение, подтверждение, санкционирование; 2. лишение стороны права возражения по причине ее предшествующего поведения.	1. ma'qullash, tasdiqlash, sanksiya berish; 2. ilgari qilingan xatti harakati uchun shikoyat berish huquqidan mahrum qilish.

HONORARIUM	
гонорар.	gonorar.
HONORARY	
1. вознаграждение, плата, гонорар; 2. почетный; безвозмездный, неоплачиваемый, ~ office почетная должность, неоплачиваемая должность.	1. taqdirlash, to'lov, gonorar; 2. maqtov; bepul, tekin, ~ office faxriy (maosh to'lanmaydigan) lavozimi.
HONOUR	
1. честь; 2. почитать; 3. акцептовать/оплачивать (тратту), оплачивать (вексель, чек); 4. уважать, соблюдать (права, обязанности и т. д.); Your Honour Ваша честь (обращение к судье).	1. shon, sharaf, or-nomus, iftixor, izzat, obro', izzat-nafs; 2. . . . deb bilmoq; 3. rozilik bermoq/to'lamoq (tratta), (veksel, chek) to'lamoq; 4. (huquq, majburiyat va sh. k.) hurmat qilmoq, rioya qilmoq; Your Honour hurmatli sud'ya manosida.
HORIZONTAL	
горизонтальный; ~ agreement горизонтальное соглашение (между конкурирующими фирмами одного уровня); ~ merger горизонтальное слияние (компаний-конкурентов); ~ restraints of trade торговые ограничения, распространяющиеся на компании одного уровня.	gorizontal, yon tomonlama; ~ agreement gorizontal kelishuv (bir xil darajada raqobat qiladigan firmalar orasida); ~ merger gorizontal qo'shilish (kompaniyalar-raqiblar); ~ restraints of trade xil darajadagi kompaniyaga joriy qilingan savdo-sotiq cheklovi.
HORSEWAY	
1. проезжая дорога (для проезда верхом); 2. право проезда (верхом).	1. o'tuvchi yo'l (otda o'tuvchilar uchun); 2. (otda) o'tish huquqi.
HOSTAGE	
заложник	garovga olingan shaxs
HOSTILE	
враждебный, неприятельский, ~ witness свидетель, предубежденный против выставившей его стороны.	g'arazli, raqibona, dushmanona, qora niyatli; ~ witness guvoh qilib ko'rsatgan tomonga nisbatan g'arazli niyatdagi guvoh.
HOSTILITY	
состояние войны, враждебность	raqiblik, g'arazgo'ylik, dushmanlik; urush holati.

HOT	
горячий, ~ blood аффект; ~ pursuit преследование по горячим следам.	issiq; ~ blood qiziqqon; ~ pursuit jinoyatning izi sovimasdan (bosilmasdan) ta'qib qilish.
HOTSPOT	
1. имущественная масса, предназначенная к разделу; 2. возврат наследником ранее полученного имущества для включения его в общую наследственную массу.	1. bo'lishga belgilangan mulk miqdori; 2. ilgari olgan mulkni umumiy meros miqdoriga kiritish uchun merosxo'rga qaytarish.
HOUR	
час; ~s of attendance присутственные часы; ~ of labor часы работы; maximum ~s максимально допустимая продолжительность рабочего времени; minimum ~s минимально допустимая продолжительность рабочего времени; office ~s часы служебных занятий; присутственные часы, приемные часы; working ~s рабочее время; ~ly часовой, ежечасно; ~ pay почасовая оплата;	soat; ~s of attendance ish soatlari; ~ of labor mehnat soatlari; maximum ~s ish vaqtining maksimal ruxsat etilgan muddati; minimum ~s ish vaqtining maksimal ruxsat etilgan muddati; office ~s ish mashg'ulotlarining soati; ish soatlari, qabul soatlari; working ~s ish vaqti, ~ly har soatda, soatma-soat, ~ pay soatbay xizmat haqi to'lash.
HOUSE	
1. жилой дом; 2. законодательное собрание; 3. палата законодательного органа; 4. торговый дом; 5. биржа; acceptance ~ акцептный банк; акцептный дом; ~ breaker взломщик; ~ of Commons палата общин парламента Великобритании; ~ of correction исправительный дом; clearing ~ клиринговая/расчетная палата; commission ~ комисионная фирма; маклерская/брокерская фирма;	1. yashash uyi; 2. qonunchilik yig'ilishi; 3. qonunchilik organi palatasi; 4. savdo uyi; 5. birja; acceptance ~ aktsept banki; aktsept uyi; ~ breaker o'g'ri, talonchi, eshikbuzar; ~ of Commons Britaniya parlamentidagi umumiy palata ~ of correction ahloq tuzatish joyi; clearing ~ kliring/hisob raqami; ~ of detention hibisxona, qamoq, surgun qilingan joy; commission ~ komissiyaviy firma; maklerlik/dallollik firmasi;

<p>~ of detention место заключения; financial ~ финансовая компания; ~ ill-fame притон; keep ~ прекращать платежи по долгам; lower ~ нижняя палата; ~ of Lords Палата лордов; make ~ составлять кворум; ~ of paupers дом призрения; ~ penal detention дом предварительного заключения; ~ of Representatives палата представителей конгресса США; upper ~ верхняя палата; securities ~ фирма по торговле ценными бумагами; wholesale ~ оптовая фирма.</p>	<p>financial ~ moliyaviy kompaniya; ~ ill-fame islovatxona; lower ~ quyi palata; keep ~ qarzlar bo'yicha to'lovlarni to'xtatish; make ~ kvorum tuzmoq; ~ of paupers g'aribxona; ~ penal detention jinoyat haqidagi dastlabki xulosalar asosida hibsga olinganlar uchun joy; ~ of Representatives AKSh kongressidagi vakillar palatasi; upper ~ yuqori palata; securities ~ qimmatli qog'ozlar savdosi bo'yicha firma; wholesale ~ ulgurji savdo bilan shug'illanuvchi firma.</p>
HOUSE-AGENT	
комиссионер по продаже и сдаче внаем домов.	uy'larni yollanmaga berish va sotish bo'yicha nozir.
HOUSEBOTE	
лесной сервитут, право на заготовку лесоматериалов для ремонта жилища.	o'rmon servituti, uy-joylarni ta'mirlash uchun yog'och materiallarni tayyorlash huquqi.
HOUSEHOLD	
семья, домашнее хозяйство.	oila, uy xo'jaligi.
HOUSEHOLDER	
1. домовладелец, квартирочемщик; 2. глава семьи.	1. uy egasi; kvartirani ijaraga oluvchi; 2. oila boshlig'i.
HOUSELESS	
бездомный.	uysiz, boshpanasiz.
HOUSING	
1. жилье; 2. жилищные условия; 3. жилищный фонд; жилищное строительство; inadequate ~ неудовлетворительные жилищные условия; municipal ~ муниципальное жилье; муниципальное жилищное строительство; public ~ государственное/общественное жилищное строительство;	1. uy-joy; 2. yashash sharoiti; 3. uy-joy fondi; uy-joy qurilishi; inadequate ~ qoniqarsiz yashash sharoiti; municipal ~ mahalliy uy-joy; mahalliy uy-joy qurilishi; public ~ davlat/jamiyat uy-joy qurilishi; davlat/jamiyat uy-joyi; subsidized ~ subsidiya ajratmalari bilan uy-joy qurilishi;

государственное/общественное жилье; subsidized ~ жилищное строительство с привлечением субсидий; substandard ~ жилье ниже требований стандарта.	substandard ~ standart talabiga javob bermaydigan, standart talabidan pastdagi uy-joy.
HUMAN	
человеческий, свойственный человеку; ~ agency действия присущие человеку; ~ rights права человека; ~ ty человеческая природа, человечество, гуманность.	inson, insoniy, odamga xos; ~ agency insonga xos xatti- harakat; ~ rights inson huquqlari; ~ ty insoniyat, inson tabiati.
HUMANE	
гуманный, человеческий	insoniy, odamiy
HUNG JURY	
состав присяжных не пришедший к единому мнению	bir qarorga kelisha olmagan sud haya'ti a'zolari.
HURT	
1. наносить вред, причинять ущерб; 2. вред; ущерб.	1. ziyon keltirmoq, zarar yetkazmoq; 2 ziyon; zarar.
HUSBAND	
муж, супруг; ship's ~ генеральный агент судовладельца по ведению дел, связанных с судном.	er, er-xotin; ship's ~ kema bilan bog'liq ishlarni yuritish bo'yicha kema egasining bosh noziri.
HUSBANDLY	
супружеский; ~ rights супружеские права.	er-xotinlikka oid; ~ rights er-xotin huquqi.
HUSTINGS	
1. местный суд; 2. трибуна предвыборного собрания.	1. mahalliy sud; 2. saylov oldi yig'ilishi minbari.
HYPERINFLATION	
гиперинфляция.	geperinflyatsiya.
HYPOTHEC	
ипотека.	ipoteka.
HYPOTHECATE	
обременять ипотечным залогом; закладывать (недвижимость).	ipoteka garoviga yuklamoq; (ko'chmas mulkni) garovga qo'yimoq.

HYPOTHECATION	
1. ипотечный залог, ипотека; морской залог, бодмерея.	1. ipoteka garovi, ipoteka; dengizchilik garovi, bodmeriya.
HUSTEROPOTMOI	
лица, возвращающиеся домой после длительного отсутствия, из- за которого их считали погибшими.	uzoq muddat uyga kelmasligi natijasida o'lgan deb hisoblangandan keyin kelib uyni qaytarib oluvchi shaxslar.

Ii

IDENTICAL	
идентичный, тождественный.	aynan o'xshash, bir-biriga aynan o'xshash.
IDENTIFIABLE	
могуший быть идентифицированным, опознанным; ~ additional expenses дополнительные расходы, которые могут быть определены.	aynan o'xshash bo'lish; tanib olinadigan ~ additional expenses aniqlanishi mumkin bo'lgan qo'shimcha xarajatlar.
IDENTIFICATION	
отождествление; опознание; ~ at the trial опознание в судебном процессе; ~ card удостоверение личности; ~ of capacities 1. установление право- и/или дееспособности; 2. установление полномочий; установление компетенции; civil ~ гражданская идентификация, идентификация, опознание по гражданскому делу; ~ parada очная ставка; ~ photograph фотография, предъявленная для опознания; ~ tag опознавательный ярлык; bureau of ~ бюро опознание(в полицейском участке) ; voice ~ опознания по голосу.	bir-biriga aynan o'xshagan; aniqlanadigan: ~ at the trial sud protsessida aniqlash; ~ card shaxsni tasdiqlovchi; ~ of capacities 1. huquq va/yoki muomala layoqatini belgilash; 2. vakolatni belgilash; layoqatni belgilash; civil ~ fuqaroligi bo'yicha aniqlash, fuqarolik ishi bo'yicha aniqlash; ~ parada yuzlashtirish; ~ photograph tanib olish uchun ko'rsatiladigan surat; ~ tag tanib olish belgisi, tamga. bureau of ~ politiya idorasidagi shaxslarni tanib olish bo'limi; voice ~ ovozdin tanib olish.
IDENTIFY	
1. отождествлять, устанавливать тождество, опознавать; 2. устанавливать личность; 3. устанавливать подлинность.	1. tanimoq, tanib olmoq; 2. shaxsni aniqlash; 3. haqiqiylikni aniqlash.
IDENTITY	
1. идентичность; подлинность; 2. личность; ~ of parties личность сторон; ~ of the defendant личность ответчика.	1. aynanlik; haqiqiylik; 2. shaxs, shaxsiyat; ~ of parties shaxsiy tomon; ~ of the defendant javobgarning shaxsi.

IDLE	
праздный; незанятый, неработающий; to be ~ быть безработным. ~ and disorderly person праздношатающееся лицо.	ishsiz, band bo'lmagan, ishlaymaydigan; to be ~ ishsiz bo'lmoq; ~ and disorderly person bekorchi, daydi, ishsiz shaxs.
IDLENESS	
праздношатание.	bekorchilik.
IDLER	
тунеядец.	tekinxo'rlik, tekin tomoq, bekorchi.
IGNORANCE	
незнание, неосведомленность; ~ of law незнание права; юридическая ошибка; culpable ~ виновное незнание; essential ~ незнание существенных обстоятельств; innocent/involuntary ~ невиновное незнание; plead ~ ссылаться на незнание закона/какого-либо факта; voluntary ~ виновное незнание; ~ of fact фактическая ошибка.	bilmaslik, bexabarlik; ~ of law huquqni bilmaslik; yuridik xato; culpable ~ aybliligini bilmaslik; essential ~ mavjud holatni bilmaslik; innocent/involuntary ~ aybsizligini bilmaslik; plead ~ qonunni yoki biror faktni bilmaslikni vaj qilib keltirmoq; voluntary ~ aybni bilmaslik; ~ of fact faktik xato.
IGNORANT	
не знающий, не осведомленный.	bilmaydigan, bexabarlik.
IGNORE	
1. не знать; быть неосведомленным; 2. игнорировать; 3. отклонять (ходатайство); не принимать во внимание; ~ the bill прекращать дело.	1. xabarsiz bo'lmoq, bexabar bo'lmoq; 2. bepisand bo'lmoq; 3. (rasmiy iltimosni) rad qilmoq; e'tiborga olmaslik; ~ the bill ishni tugatmoq.
ILL	
вредный; дурной; больной; to be ~ provided with smth. быть плохо обеспеченным чем-либо; treat smb ~ обижать кого-либо; плохо с кем-либо обходиться; ~ -gotten нажитый / приобретенный нечестным путем; ~ treatment/~usage плохое, дурное обращение; ~ practice нечестный прием; ~ will злой умысел; a house of ~ fame публичный дом.	zararli; ahmoq; kasal; to be ~ provided with smth nima bilandir yomon ta'minlangan bo'lmok; treat smb ~ kimnidir xafa qilmoq; kim bilandir yomon munosabatda bo'lmok; ~ gotten nohaq yo'l bilan topilgan/erishilgan; ~ treatment/~usage yomon, qo'pol munosabat; ~ practice nohaq usul, nomardlik; ~ will yomon niyat, buzuq niyati; a house of ~ fame islovatxona.

ILLEGAL	
незаконный, противозаконный, противоправный; ~ entry незаконный въезд (в страну); ~ in itself незаконный по своей природе; ~ per se незаконный по сути; ~ contract противоправный договор; ~ dispensing (of drugs) незаконное распространение (наркотиков); ~ lock- out противозаконный локаут; ~ market черный рынок; ~ strike забастовка, не одобренная профсоюзом; ~ trade контрабандная торговля.	noqonuniy, qonunga hilof, huquqqa zid; ~ entry (davlatdan) noqonuniy chiqib ketmoq; ~ in itself o'z tabiatiga ko'ra noqonuniy; ~ per se mohiyatiga ko'ra noqonuniy; ~ contract noqonuniy, huquqqa zid shartnoma; ~ dispensing (of drugs) noqonuniy yo'l bilan tarqatish, o'tkazish (giyoxvand moddalarni); ~ lock- out ishchilarni noqonuniy tarzda ishga qo'ymaslik; ~ market chayqov bozori, qora bozor ~ strike kasaba uyushmasi tomonidan ma'qullanmagan ish tashlash; ~ trade yashirincha savdo qilish
ILLEGALITY	
незаконность, противозаконность; противоправность.	noqonuniylik, g'ayriqonuniylik, qonunga hilof, qonunga zid
ILLEGITIMACY	
1. незаконнорожденность; внебрачность; 2. незаконность; неузаконенность.	1. noqonuniy tug'ilganlik; 2. nikohsiz; noqonuniylik, qonunda ko'rsatilmaganlik.
ILLEGITIMATE	
1. незаконный; неузаконенный; 2. незаконнорожденный, внебрачный; 3. признать (ребенка) родившимся вне брака; ~ traffic незаконный ввоз.	1. noqonuniy, g'ayriqonuniy, qonunda ko'rsatilmagan; 2. noqonuniy tug'ilgan, g'ayriqonuniy nikohdan tug'ilgan; 3. (bolani) nikohdan tug'ilgan deb tan olish ~ traffic moddalarni noqonuniy tarzda olib kirish.
ILLICIT	
незаконный; запрещенный; противоправный; ~ cohabitation незаконное сожительство.	noqonuniy; taqiqlangan; huquqqa zid ~ cohabitation noqonuniy nikoh bo'lish.
ILLNESS	
заболевание, болезнь.	kasallik.
IMBECILE	
Слабоумный	aqlan zaif

IMBECILITY	
Слабоумие, тупоумие.	aqli zaiflik, tentaklik.
IMITATION	
имитация, копирование; colourable ~ имитация/контрафакция, вводящая в заблуждение.	yasama, nusxa; colourable ~ chalg'itadigan imitatsiya / kontrafaksiya.
IMMATERIAL	
1. нематериальный, невещественный; 2. интеллектуальный; 3. несущественный.	1. nomoddiy, noashyoviy; 2. intellektual; 3. mavhum, mavjud bo'lmagan.
IMMATURE	
Незрелый; ~ mind незрелый ум.	yetilmagan, balog'at/voyaga yetmagan, ~ mind zaif aql.
IMMEDIACY	
незамедлительность, срочность.	darhol, shoshilinch.
IMMEDIATE	
1. непосредственный; ближайший; прямой; 2. немедленный; безотлагательный; без отсрочки; ~ family ближайшие родственники, ~ cause непосредственная причина.	1. bevosita; yaqin; to'g'ridan- to'g'ri; 2. tezda, orqaga surib bo'lmaydi; kechiktirmasdan; ~ family yaqin qarindoshlar; ~ cause aniq sabab, to'g'ridan to'g'ri sabab, bevosita sabab.
IMMIGRANT	
иммигрант.	immigrant (boshqa mamlakatdan ko'chib kelgan).
IMMIGRATE	
иммигрировать.	immigratsiya (boshqa mamlakatdan ko'chib kelmoq).
IMMIGRATION	
иммиграция; documented ~ легальная иммиграция; undocumented ~ нелегальная иммиграция.	immigratsiya (boshqa mamlakatdan ko'chib kelish); documented ~ qonuniy immigratsiya; undocumented ~ noqonuniy immigratsiya.
IMMOBILITY	
недвижимость, недвижимое имущество.	ko'chmas mulk, ko'chmaydigan mulk.

IMMORAL	
безнравственный, аморальный; ~ practice/conduct аморальное поведение.	ahloq qoidalariga zid, ahloqsiz; ~ practice/conduct ahloqsiz hulq-atvor.
IMMORALITY	
аморальное поведение, безнравственный.	axloqsizlik, badxulqlik.
IMMOVABLES	
недвижимое имущество, недвижимость.	ko'chmas mulk, ko'chmaydigan mulk.
IMMUNE	
1. пользующийся иммунитетом; 2. свободный.	1. daxlsizlikdan foydalanuvchi; 2. erkin.
IMMUNITY	
1. неприкосновенность; иммунитет; 2. льгота; привилегия; 3. изъятие, освобождение (от налога, платежа и т. п.); ~ from suit ; ~ of witness свидетельский иммунитет (право свидетеля не давать уличающих его показаний/информацию, представлять которую он не обязан); absolute ~ полный иммунитет; accord ~ предоставлять пособие; diplomatic ~ дипломатический иммунитет, дипломатическая неприкосновенность; jurisdictional/legal ~ судебный иммунитет; limited ~ ограниченный иммунитет; parliamentary ~ парламентская неприкосновенность; personal ~ право личной неприкосновенности, неприкосновенность личности; presidential ~ президентский иммунитет (от привлечения к суду); private ~ неприкосновенность частных интересов.	1. daxlsizlik, immunitet; 2. imtiyoz; 3. (soliqdan, to'lovdan va h. k.) ozod qilingan; ~ from suit ; ~ of witness guvoh daxlsizligi (fosh qilinadigan ko'rsatmalar bermaslik/ko'rsatishga majbur bo'lmagan ma'lumot bo'yicha guvohlik bermaslik, ko'rsatuv bermaslik huquqi); absolute ~ to'liq immunitet; accord ~ pulli yordam ko'satmoq; diplomatic ~ diplomatik daxlsizlik; jurisdictional/legal ~ sud daxlsizligi; limited ~ cheklangan daxlsizlik; parliamentary ~ parlament daxlsizligi; personal ~ shaxsiy daxlsizlik huquqi; shaxsiy daxlsizlik; presidential ~ prezident daxlsizligi (sudga tortilmaslikdan); private ~ shaxsiy manfaatlar daxlsizligi.

IMPACT (of cars)	
столкновение (автомобилей).	(avtomobillar) to'qnashuv (i).
IMPANEL	
включать в список присяжных.	sud hay'ati azolari ro'yxatiga kiritish.
IMPAIR	
1. ослаблять, уменьшать, ухудшать; 2. повредить; нанести ущерб	1. kuchsizlantirmoq; kamaytirmoq; yomonlashtirmoq; 2. zarar keltirmoq; zarar etkazmoq.
IMPAIRMENT	
1. повреждение; нанесение ущерба; 2. ослабление; уменьшение; нарушение; ~ of obligation невыполнение обязательства.	1.zarar ko'rsatish; zarar yetkazish; 2. kuchsizlantiish; kamaytirish; buzish; ~ of obligation bajarilmagan majburiyat.
IMPARL	
откладывать слушание дела с целью его мирного урегулирования.	ishni tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida uni ko'rishni keyinga qoldirmoq.
IMPARLANCE	
1. отсрочка слушания дела с целью его мирного урегулирования; 2. срок для представления возражений по иску; general ~ срок для представления объяснений по существу иска	1. ishni tinch yo'l bilan tartibga solish maqsadida uni keyinga qoldirish; 2. da'vo bo'yicha e'tiroz berish uchun muddat; general ~ da'vo mavjudligi bo'yicha tushuntirish berish uchun muddat.
IMPARTIAL	
беспристрастный, непредвзятый; справедливый; ~ evidence объективные показания; ~ judgement беспристрастное мнение.	xolis, tasodifiy; adolatli. ~ evidence xolis ko'rsatmalar; ~ judgement xolis xulosa.
IMPARTIALITY	
Беспристрастность.	Beg'arazlik, xolislik.
IMPAWN	
закладывать, отдавать в залог	garov bermoq, garovga bermoq.
IMPEACH	
1. подвергать сомнению; оспаривать; 2. обвинять, возлагать ответственность; ~ credibility выражать недоверие;	1.shubha uyg'otmoq; norozilik bildirmoq; 2. ayblamoq, javobgarlik yuklamoq; ~ credibility ishonchsizlik bildirmoq;

<p>~ credibility of witness выражать недоверие к свидетелю/к его показаниям; ~ credit выражать недоверие; ~ testimony выражать недоверие к свидетельским показаниям; ~ transaction оспаривать сделку; ~ smb of(with) a crime обвинять кого-либо в тяжком преступлении.</p>	<p>~ credibility of witness guvohga/uning ko'rsatmasiga ishonchsizlik bildirmoq; ~ credit ishonchsizlik bildirmoq; ~ testimony guvoh ko'rsatuviga ishonchsizlik bildirmoq; ~ transaction bitinga norozilik bildirmoq; ~ smb of(with) a crime birovni og'ir jinoyat sodir etganlikda ayblamoq.</p>
<p>IMPEACHMENT</p>	
<p>1. импичмент; 2. порицание; дискредитация; 3. обвинение; ~ of testimony дискредитация свидетельских показаний; ~ of waste ответственность за порчу имущества; ~ of witness оспаривание показаний свидетеля; collateral ~ оспаривание судебного решения путем подачи дополнительного иска; ~ for treason обвинение в государственной измене.</p>	<p>1. impichment, ishonchsizlik; 2. jamoatchilik tanbehi; badnom qilish; 3. ayblov; ~ of testimony guvoh ko'rsatmalarini badnom qilish; ~ of waste mulkni nobud qilganlik uchun javobgarlik; ~ of witness guvoh ko'rsatuviga norozilik bildirish; collateral ~ qo'shimcha da'vo kiritish yo'li bilan sud qaroriga norozilik bildirish; ~ for treason davlatga xoinlik qilishda ayblash.</p>
<p>IMPEDE</p>	
<p>препятствовать, мешать; служить препятствием к браку; сдерживать.</p>	<p>qarshilik ko'rsatmoq, xalaqit qilmoq; nikoh tuzishga qarshilik ko'rsatmoq; to'xtatib (ushlab) turmoq.</p>
<p>IMPEDIMENT</p>	
<p>препятствие к браку, помеха; absolute ~ абсолютное препятствие к браку; diriment ~ аннулирующее препятствие к браку (нерасторгнутый предыдущий брак); prohibitive ~s запретительные препятствия к браку; relative ~s относительные препятствия.</p>	<p>nikohga to'sqinlik qilish, xalaqit qilish; absolute ~ nikohga mutloq qarshilik qilish; diriment ~ nikohga qarshilikni yo'q qilish (avvalgi nikohni buzmaydigan); prohibitive ~s nikohga to'sqinlik qilishni taqiqlash; relative ~s nisbiy to'sqinlik.</p>
<p>IMPERFECT</p>	
<p>1. несовершенный, дефектный; 2. неполный, недостаточный.</p>	<p>1. nomukammal yetkazilmagan, chala; 2. to'liq bo'lmagan, kamchilikli.</p>

IMPERFECTION	
1. несовершенство, дефектность; 2. неполнота, недостаточность.	1. nihoyasiga etkazilmaganlik, nuqsonlilik; 2. to'liq bo'lmagan, kamchilikli.
IMPERMISSIBILITY	
недопустимость.	yo'l qo'yib bo'lmaydigan holat.
IMPERMISSIBLE	
Недопустимый, nepозволигельный	yul qo'yib bo'lmaydigan, ruxsat etilmaydigan.
IMPERSONATE	
выдавать себя за другое лицо.	o'zini boshqa shaxs qilib qo'rsatmoq.
IMPERSONATION	
1. выдача себя за другое лицо; 2. попытка выдать себя за должностное лицо/представителя какой-либо профессии.	1. o'zini boshqa shaxs qilib qo'rsatish; 2. o'zini mansabdor shaxs/qaysidir kasb egasi qilib qo'rsatish urinish.
IMPERSONATOR	
персонагор (лицо, выдающее себя за другое лицо).	personator (o'zini boshqa shaxs qilib qo'rsatuvchi shaxs).
IMPERTINENCE	
1. отсутствие отношения к делу; 2. дерзость.	1. ishga befarq qarash; 2. qo'pollik.
IMPERTINENT	
1. не относящийся к делу; 2. Дерзкий.	1. ishga taalluqli bo'lmagan; 2. qo'pol.
IMPINGE	
(on, upon, against) 1. посягать; 2. нарушать; вторгаться.	(on, upon, against) 1. qasd qilmoq; 2. buzmoq; bostirib kirmoq.
IMPLEAD	
искать (с кого-либо), преследовать по суду.	(kinnidir) qidirmoq, sud tomonidan taqib qilmoq.
IMPLEADER	
обвинение, преследование по суду.	ayblov, sud tomonidan taqib qilish.
IMPLEADING	
обращение в суд на кого-либо, привлечение к суду; direct ~ прямое привлечение к суду; indirect ~ косвенное привлечение к суду.	sudga murojaat qilmoq, sudga tormoq; direct ~to'g'ridan-to'g'ri sudga jalb qilish; indirect ~ bilvosita sudga jalb qilish.

IMPLEMENT	
выполнять, осуществлять.	bajarmoq, amalga oshirmoq.
IMPLEMENTATION	
выполнение, осуществление, введение в действие; ~ by Parliament проведение через парламент; ~ of agreement выполнение соглашения; administrative ~ исполнение (закона) административным органом; legal ~ юридическое оформление; procedural ~ процессуальное оформление.	bajarmoq, amalga oshirmoq, harakatga keltirmoq; ~ by Parliament parlamentdan o'tkazmoq; ~ of agreement bitimni bajarish; administrative ~ ma'muriy organ tomonidan (qonun) ijrosini amalga oshirish; legal ~ yuridik rasmiylashtirish; procedural ~ protsessual rasmiylashtirish.
IMPLICATE	
1. заключать в себе; подразумевать; 2. вовлекать.	1. o'z ichiga olmoq; ko'zda tutmoq; 2. jalb qilmoq.
IMPLICATION	
1. то, что подразумевается; подразумеваемое положение, скрытый смысл; 2. вывод; положение, выведенное в порядке логического рассуждения; 3. Соучастие; by ~ косвенно.	1. nimadir ko'zda tutilmoqda; ko'zda tutilgan vaziyat, yashirin ma'no; 2. xulosa; mantiqiy mulohaza tartibidagi nizom 3. birgalikda qatnashish; by ~ bilvosita.
IMPLICIT	
подразумеваемый; не выраженный прямо; скрытый.	ko'zda tutilgan; to'g'ri dan to'g'ri ifodalangan; yashirin.
IMPLICITLY	
подразумеваемым образом; в порядке презумпции.	ko'zda tutilgan yo'sinda; dalilni yuridik to'g'ri deb topish/ prezumptsiya tartibida.
IMPLIED	
подразумеваемый, косвенный; вытекающий из обстоятельств; основанный на правовой презумпции; ~ answer двусмысленный ответ; ~ authority подразумеваемые представительские полномочия;	ko'zda tutiladigan, bilvosita; vaziyatdan kelib chiqadigan; dalilni yuridik huquqiy deb topish/ prezumptsiya asosida; ~ answer ikki ma'noli javob; ~ authority ko'zda tutilgan vakillik vakolati; ~ condition ko'zda tutilgan shartlar

~ condition подразумеваемое условие; ~ by fact вытекающий из фактических обстоятельств, из конклюдентных действий сторон; ~ intent предполагаемое намерение; ~ malice предполагаемый злой умысел.	; ~ by fact faktik vaziyatdan, tomonlarning konklyudent harakatidan kelib chiqadigan; ~ intent taxmin qilingan maqsad; ~ malice ko'zda tutilgan qora niyat, g'araz nazarda tutmoq; ko'ngilga tugib olmoq.
IMPLY	
1. подразумевать; 2. заключать в себе.	1. nazarda tutmoq; 2. o'z ichiga olmoq.
IMPONENT	
облеченный властью.	xokimiyatga ega.
IMPORTATION	
импорт, ввоз товаров в страну.	import, mamlakatgaga tovar/mol olib kirish.
IMPORTUNITY	
надоедливость, докучливость; настойчивое домогательство, приставание.	joniga tekkan, zeriktirgan; qat'iy qo'yarda-qo'yma, jon-holiga qo'ymay.
IMPOSE	
1. налагать; 2. облагать; 3. обманывать; ~ a judgment вынести судебное решение; to ~ an order издать приказ; ~ punishment налагать взыскание, назначать наказание.	1. qoplamoq; 2. qo'yumoq; 3. aldamoq; ~ a judgment sud qarori chiqarmoq; to ~ an order byruq chiqarmoq; ~ punishment jazoga tayinlamoq.
IMPOSITION	
1. наложение; 2. обложение; налог; пошлина; 3. обман.	1. qoplsh; 2. solish; soliq; boj; 3. aldov.
IMPOSSIBILITY	
невозможность; ~ in fact фактическая невозможность исполнения; ~ in law невозможность исполнения по закону, юридическая невозможность исполнения; absolute ~ абсолютная невозможность (исполнения);	imkonsizlik; ~ in fact bajarishga aniq imkonsizlik; imkon bo'lmaydigan ~ in law qonun bo'yicha ijro etish imkonsizligi, yuridik ijro imkonsizligi; absolute ~ mutlaq (ijro) imkonsizligi;

legal ~ невозможность исполнения по закону, юридическая невозможность исполнения; objective ~ of performance об'ективная невозможность исполнения; physical ~ физическая невозможность (исполнения); practical ~ экономическая невозможность (исполнения).	legal ~ qonun bo'yicha ijro etish imkonsizligi, yuridik ijro imkonsizligi; objective ~ of performance pok obyektivlik, ijro imkonsizligi; physical ~ jismonan (ijro) imkonsizligi; practical ~ iqtisodiy (ijro) imkonsizligi.
IMPOSTS	
налоги, сборы, таможенные пошлины.	solliqlar, yig'imglar, bojxona bojlari.
IMPOUND	
1. задерживать; 2. изымать; 3. принимать/сдавать на хранение (в суд).	1. ushlab qolmoq; 2. olib qo'yamoq; 3. (sudda) saqlashga olmoq/bermoq.
IMPOUNDMENT	
1. задержание; изъятие (имущества); 2. принятие/сдача на хранение(в суд)	1. ushlab qolish; olib qo'yilgan mulk; 2. (sudda) saqlashga olingan/berilgan.
IMPRESCRIPTIBILITY	
непогашаемость давностью.	cheklanmagan muddat.
IMPRESCRIPTIBLE	
не погашаемый давностью.	belgilanmaydigan muddat.
IMPRESS	
1. делать оттиск; 2. реквизировать (имущество, деньги).	1. bosib tushirmoq; 2. davlat hisobiga o'tkazmoq (mulk. pul).
IMPRESSION	
1. оттиск; след; 2. впечатление; восприятие; представление; мнение; first ~ рассмотрение дела при отсутствии прецедентов; foot ~ об'емный след ноги; shoe ~ след-оттиск ноги; tire ~ след-оттиск протектора; tool ~ след от инструмента.	1. iz; 2. taassurot; mulohaza; idrok; tasavvur; fikr; first ~ pretsedentlarsiz ish ko'rish; foot ~ oyoq izi; shoe ~ poyafzal izi; tire ~ mashina g'ildiragi izi; tool ~ asbob-uskuna izi.

IMPREST	
аванс; подотчетная сумма; ~ account авансовые счета; подотчетные суммы; ~ system система денежного аванса.	avans; oldindan beriladigan summa; ~ account avans hisobi; hisob summalari; ~ system pul avansi tizimi.
IMPRIMATUR	
разрешение на печатание	bosishga ruxsat; nashr qilishga ruxsat.
IMPRINT	
отпечаток, след.	iz.
IMPRISON	
заключать в тюрьму; брать под стражу.	hibsga olmoq; qamoqqa olmoq.
IMPRISONMENT	
1. тюремное заключение; 2. лишение свободы; ~ without the option of a fine тюремное заключение без права замены штрафом; ~ at(without) forced labour заключение с принудительным трудом; ~ Before trial предварительное заключение; ~ for the term of one's natural life пожизненное заключение; ~ without the option of a fine тюремное заключение без права замены штрафом; false ~ незаконное лишение свободы.	1. qamoq/ozodlikdan mahrum qilish jazosi; 2. ozodlikdan mahrum qilish; ~ without the option of a fine jarima bilan almashtirish huquqisiz qamoq jazosi; ~ at(without) forced labour majburiy mehnatga asoslangan qamoq jazosi; ~ Before trial suddan oldin hibs; ~ for the term of one's natural life umrbod ozodlikdan mahkum qilish jazosi ; ~ without the option of a fine jarima bilan almashtirilmaydigan qamoq jazosi; false ~ noqonuniy hibsga olish, qonunga xilof tarzda ozodlikdan mahrum etish.
IMPROPER	
неправомерный; ненадлежащий; ~ influence злоупотребление влиянием; legally ~ ненадлежащий с юридической точки зрения; ~ purpose дурная цель; ~ motive дурной мотив (действия).	qonunga hilof; zid bo'lgan; ~ influence suista'mol qilish; legally ~ yuridik nuqtai nazarga to'g'ri kelmaydigan; ~ purpose buzuq niyat, g'arazli niyat; ~ motive yomon niyat ostida qilingan harakat.

IMPROPRIETY	
1. непригодность; 2. ошибочность; 3. непристойное поведение; professional ~ 1. профессиональная непригодность; 2. поведение, нарушающее профессиональную этику.	1. yaroqsizlik; 2. xatolik; 3. munosib bo'lmagan xulq-atvor; professional ~ 1. kasbiy yaroqsizlik; 2. kasb etikani buzadigan xulq-atvor.
IMPROVED	
усовершенствованный, улучшенный; ~ land благоустроенный земельный участок; ~ value стоимость земли, увеличенная за счет благоустройства.	takomillashtirilgan, yaxshilangan; ~ land hosildor er maydoni; ~ value hosildorlik hisobiga yaxshilangan er narxi.
IMPROVEMENT	
1. улучшение; усовершенствование; 2. ремонт, расширение сооружения, благоустройство (повышающие стоимость земельного участка).	1. yaxshilash, takomillashtirish; 2. (er maydoni narxini ko'taradigan) hosil, imoratni kengaytirish, ta'mirlash.
IMPROVIDENCE	
непредусмотрительность, недальновидность (в распоряжении имуществом).	ko'rib chiqilmaganlik, uzoqni ko'zlamaganlik (mulkni joylashishida).
IMPUGN	
оспаривать; опровергать.	norozilik bildirmoq, rad etmoq.
IMPUGNABLE	
оспоримый; опровержимый.	shubhali, rad etiladigan.
IMPUGNMENT	
оспаривание; опровержение.	norozilik; raddiya.
IMPUNITY	
1. безнаказанность; освобождение от наказания; 2. освобождение от обязанности возместить убытки; with ~ безнаказанно.	1. jazosizlik; jazodan ozod qilish; 2. zararni qoplab berish majburiyatidan ozod qilish; with ~ jazosiz tarzda.
IMPUTATION	
вменение в вину; приписывание кому-либо чего-либо; ~ of dishonesty обвинение в нечестности; refute an ~ опровергнуть обвинение.	1. ayb deb topmoq; kimnidir nimanidir deb topish; ~ of dishonesty nohaqlikda ayblash; refute an ~ aybni rad etmoq.

IMPUTATIVE	
вменяемый в вину.	aybga sanaladigan.
IMPUTE	
1. вменять (в вину); 2. приписывать кому-либо что-либо; ~ to pay неплатежеспособность; ~ the fault upon a person ложно вменять в вину; ~ a person with an action возбуждать судебное преследование лица.	1. ayb qo'ymoq; 2. kimnidir nimanidir deb topmoq; ~ to pay to'lovga imkoniyatsizlik; ~ the fault upon a person bo'lmagan narsa uchun birovni ayblamoq; ~ a person with an action birovni sudga tortish uchun ish qo'zg'amoq.
INACTION	
1. ограниченный; 2. имеющий ограниченную ответственность, с ограниченной ответственностью; ~ and reduced с ограниченной ответственностью и уменьшенным капиталом; ~ interpretation ограничительное толкование; ~ liability ограниченная ответственность; ~ monarchy конституционная монархия.	1. cheklangan; 2. cheklangan javobgarlik bilan cheklangan ma'suliyatga egalik; ~ and reduced kichik kapital va cheklangan ma'suliyatga ega; ~ interpretation cheklangan izox; ~ liability cheklangan ma'suliyat; ~ monarchy konstitutsiyaga asoslangan (cheklangan) monarxiya; cheklangan yakka hokimlik asosida davlat boshqaruvi.
LINE	
линия; ~ of ancestor потомство по прямой линии ascending ~ восходящая линия родства;	chiziq; ~ of ancestor vositasiz avlod ascending ~ otadan o'g'il, ajdodlar shajarasi;

collateral ~ боковая линия родства; descending ~ нисходящая линия родства; female ~ женская линия (родства, наследования); ~ up опознание преступника из группы лиц.	collateral ~ yon shajara (bir tug'ishmagan qarindosh-urug'lar); descending ~ pasayib boradigan ajdod; female ~ ayol tomondan qarindoshlik; ~ up odamlar guruxi orasidan jinoyatchini tanib olish.
LINEALS.	
кровные родственники наследника.	qon-qarindoshli merosxo'rlar
LIQUIDATE	
1. ликвидировать; 2. определять сумму; 3. оплачивать.	1. yo'q qilmoq; 2. summani aniqlamoq; 3. to'lamoq.
LIQUIDATION	
1. ликвидация; 2. реализация, продажа за наличные деньги; ~ price ликвидационная цена имущества.	1. yo'q qilish; 2. amalga oshirish, naqd pulga sotish; ~ price mol-mulkni likvidatsiya qilish narxi.
LIS PENDENS	
лат. иск, находящийся на рассмотрении.	muhoamadagi da'vo arizasi.
LIST	
список; assessment ~ список имущества, подлежащих налогообложению; customs examination ~ досмотровая роспись; free ~ список товаров, не облагаемых пошлиной.	po'yxat; assessment ~ soliq solinadigan mol-mulk ro'yxati; customs examination ~ tekshiruvdan o'tkaziladigan imzo; free ~ boj solinmaydigan mahsulotlar ro'yxati.
LISTING	
соглашение владельца недвижимого имущества и агента по продаже/недвижимости.	sotuv agenti va ko'chmas mulk egasi o'rtasidagi bitim.
LITERACY QUALIFICATION	
образовательный ценз	ma'lumot bo'yicha cheklash; ixtisoslikka qo'yiladigan talab
LITIGANT	
тяжущаяся сторона; сторона в гражданском процессе.	da'volashuvchi tomon; fuqarolik protsessidagi tomonlar.

LITIGATE	
быть тяжущейся стороной, выступать в качестве стороны в гражданском процессе; оспаривать в суде.	sudlashuvchi bo'limoq, fuqarolik protsessida taraf sifatida ishtirok etmoq.
LITIGATION	
тяжба, судебный спор, гражданский процесс; appellate ~ судебный процесс в апелляционной инстанции; civil ~ судебный процесс по гражданскому делу.	da'volashuv, sud tortishuvi, fuqarolik protsess; appeilate ~ appelyatsiya instantsiyasidagi sud protsessi; civil ~ fuqaroilk ishi bo'yicha sud protsessi.
LITIGATOR	
тяжущийся, сторона в судебном деле.	da'volashuvchi, sud ishidagi tomonlar.
LITIGIOUS	
судящийся; спорный; подлежащий судебному разбирательству.	mojaro, bahs, munozara; sudda ko'riladigan; bahsli masalalarni sudda ko'rishga oshiqadigan.
LITIS AESTIROATIO	
лат. мера ущерба.	lot. zarar o'Ichovi.
LITISCONTESTATION	
оспаривание иска; формальное вступление в судебный процесс.	sud protsessidagi rasmiy muqaddima.
LIVERY	
1. передача владения. ввод во владение; 2. освобождение от опеки; ~ of seisin ввод во владение, передача владения; lie in ~ подлежать переходу при передаче владения.	1. egalik qilishni birovga o'tkazish; 2. vasiylikdan ozod qilish; ~ of seisin egalik qilishni topshirish; lie in ~ egalik qilishni topshirish bo'yicha o'tadigan.
LIVING	
проживание, средства к существованию; ~ apart раздельное проживание ~ together совместное проживание.	yashash, tirikchilik vositalari, tirikchilik uchun zarur narsalar, mablag'ar; ~ apart alohida yashash ~ together birgalikda yashash.
LOAN	
1. заем; 2. давать займы; 3. ссуда; 4. ссужать; предоставлять ссуду	1. qarz (olish, berish); olingan (yoki berilgan) qarz pul; 2. qarz berish;

<p>~ at interest процентный заем; ~ at notice/on call заем до востребования; ~ commitment обязательство кредитора; ~ on collateral заем под двойное обеспечение; ~ of money денежный заем; ~ value размер кредита; bad ~ не погашенная в срок ссуда; bank ~ банковский заем. банковская ссуда; consolidation ~ консолидированная задолженность.</p>	<p>3. ssuda; 4. qarz(ga) bermoq (berib turmoq) ~ at interest protsentli qarz; ~ at notice/on call yo'qlab olinadigan (xat) qarz; ~ commitment kreditorning majburiyatlari; ~ on collateral ikki hissali garov bo'yicha qarz bermoq; ~ of money pulli qarz; ~ value kredit razmeri, o'lchovi, ssuda muddatigacha to'lanmagan; bank ~ bank zayomi, bank ssudasi; consolidation ~ konsolidatsiya qilingan qarz.</p>
<p>LOBBY</p>	
<p>кулуары парламента: ~ day день встречи с избирателями; ~ ing закулисная обработка членов конгресса: ~ ist лоббист.</p>	<p>parlament sahnasi orqasi; ~ day saylovchilar bilan uchrashuv kuni; ~ ing hukumat (parlament kongress) a'zolarini masalani hal qilishga sahna ortida kundirish; ~ ist lobbist, masalani sahna ortida hal qiluvchi.</p>
<p>LONG SIGHTED/LONG TERM ~</p>	
<p>долгосрочный заем; mortgage/real estate ~ ссуда под недвижимость, ипотечная ссуда; secured ~ обеспеченный кредит; short ~ краткосрочный заем; straight ~ необеспеченный заем.</p>	<p>uzoq muddatli zayom; mortgage/real estate ~ ipoteka ssudasi; secured ~ ta'minlangan kredit; short ~ qisqa muddatli zayom; straight ~ ta'minlanmagan zayom.</p>
<p>LOCAL</p>	
<p>местный. локальный: ~ assessment местный налог; ~ law местный закон; ~ authority орган местного самоуправления, муниципалитет; ~ elections выборы в органы местного самоуправления; ~ government местная власть; locality местность, участок, населенный пункт.</p>	<p>mahalliy. lokal; ~ assessment mahalliy soliq; ~ law ta'luqli bo'lgan qonun; ~ authority mahalliy hokimiyat rahbariyati; ~ elections mahalliy hokimiyat idoralariga saylovlar; ~ government mahalliy hokimiyat; locality mahalliy hudud. mahalla, mahalliy axoli yashaydigan joy.</p>
<p>LOCATE</p>	
<p>1. определять местонахождение; 2. сдавать внаем; заключать договор личного/имущественного найма.</p>	<p>1. turar-joyini aniqlamoq; 2. ijara bermoq; shaxsiy ijara shartnomasini tuzmoq.</p>

LOCATION	
1. сдача внаем; 2. определение границ участка земли; землемерная с'емка, локация.	1. ijaraga bermoq; 2. er uchastkasi chegarasini belgilamoq.
LOCK UP	
сажать в тюрьму, арестантская камера, тюрьма.	turmaga tiqmoq, hibisxona
LOCKOUT	
локаут; отказ нанимателя обеспечить работой своих сотрудников.	lokaut; ijarachini o'z xizmatdoshlarini ish bilan ta'minlashi.
LOCUS REGIT ACTUM	
лат. Форма сделки определяется законом места ее заключения.	lot. bitim shakli tuzilgan joy qonuni bilan belgilanadi.
LODGE	
1. отдавать на хранение; депонировать; 2. подавать, заявлять (прошение, жалобу и т. п.); 3. жить на правах нанимателя; 4. облекать, наделять (правом, полномочиями); ~ a lawsuit подать иск ~ an appeal подать апелляцию; ~ an objection подать протест; ~ a protest заявлять протест.	1. saqlashga bermoq, saqlash uchun topshirmoq; 2. bermoq, olib bermoq, uzatmoq, uzatib yubormoq; 3. yollovchi huquqi bilan yashamoq 4. baxsh etmoq, bermoq, topshirmoq, ega qilmoq; bermoq, in'om qilmoq, ato qilmoq, bag'ishlamoq; ~ a lawsuit da'vo bermoq ~ an appeal appelyatsiya, shikoyat bermoq; ~ an objection protest bermoq; ~ a protest norozilik bildirmoq.
LODGEMENT	
1. жилище; пребывание; 2. облечение, наделение (властью, полномочиями); 3. сдача в депозит; 4. подача (жалобы и т. п.).	1. turar-joy, turish; 2. baxsh etish, berish (vakolat); 3. depozitga topshirish; 4. berish (shikoyat).
LODGER	
наниматель, квартирос'емщик.	ijarachi, kvartirani ijaraga olgan (ijara o'tiruvchi) shaxs.
LODGINGS	
квартиры, сдаваемые в наем.	ijaraga beriladigan kvartiralar.

LOOPHOLE	
способ уклонения от налога/ снижения налога без нарушения закона.	soliq to'lashdash bosh tortish usuli/ qonunni buzmaganda holda soliqni pasaytirish
LORD	
Лорд, член палаты лордов; ~ the (Lords) Lords of Appeal in Ordinary палата лордов, назначаемые члены палаты лордов по рассмотрению апелляций; ~ Lord Chancellor Лорд-канцлер Великобритании(член кабинета министров спикер палаты лордов, председатель Верховного суда); ~ Lord Chief Justice of England судья-председатель отделения королевской скамьи.	~lord; the (Lords) Lords of Appeal in Ordinary lordlar palatasi shikoyatlarini kurib chikish bo'yicha lordlar palatasidan tayinlangan xukumat a'zolari; ~ Lord Chancellor Lord-kantsler (Britaniya vazirlar maxkamasi) Oliy sud raisi; ~ Lord Chief Justice of England qirol xuzuridagi Oliy sud raisi; lord-bosh hakam.
LOSE	
1. терять; утратить; 2. нести убытки, терпеть ущерб; 3. проигрывать (дело в суде); ~ an action проиграть дело в суде.	1.yo'qotmoq, (o'z) kuchini yo'qotmoq; 2. zarar ko'rmq, ziyon qilmoq (tortmoq); 3. (suddagi ish) yutqazmoq; ~ an action sudda ishni yutqazmoq.
LOSS	
потери, убытки; ~ of consortium утрата супружеской общности жизни; ~ of earning capacity потеря трудоспособности; ~ of effect прекращение действия, утрата юридической силы; ~ of profit упущенная выгода; ~ of wages утрата заработка (в результате незаконного увольнения): absolute total ~ полная гибель имущества; ; apprehended ~ предполагаемый убыток; casually ~ ущерб от несчастного случая; claimed ~ заявленные убытки;	yo'qotish, zarar, ziyon; ~ of consortium er-xotinlik hayoti umumiyligi yo'qotish; ~ of earning capacity mehnatga layoqatlilikni yo'qotish; ~ of effect amal qilishi tuxtashi, yuridik kuchini yo'qotmoq; ~ of profit qo'ldan chiqarilgan foyda; ~ of wages maosh olishni yo'qotish (noqonuniy ishdan bo'shatilish natijasida); absolute total ~mol-mulkni to'liq yo'q bo'lishi; apprehended ~tahmin qilinadigan zarar; casually ~baxtsiz hodisa oqibatidagi zarar;

<p>counter the ~ возмещать убытки, восполнять потери; general average ~ убыток по общей аварии; inflict a ~ причинять убыток; partial ~ частичная гибель (предмета страхования); pecuniary ~ денежный, имущественный, материальный ущерб; suffer/sustain a ~ потерпеть убыток, понести ущерб; total ~ полная гибель (предмета страхования).</p>	<p>counter the~arz qilingan zararlilar; zararni qoplamoq; general average ~ umumiy avariya oqibatidagi zarar; inflict a ~zarar etkazmoq; partial ~qisman yo'qotish; pecuniary ~ pulli, mulkiy, moddiy zarar; suffer/sustain a ~zarar ko'rmoq, to'liq yo'qotish.</p>
LOST	
<p>утраченный, потерянный; ~ or not lost независимо от того, погиб предмет страхования или нет.</p>	<p>Yo'qotilgan; ~ or not lost sug'urta predmeti o'lgan yoki o'lmaganligidan qat'iy nazar.</p>
LOT	
<p>1. лат; жребий; 2. серия; партия товаров; 3. земельный участок; by ~ по жребию.</p>	<p>1. lot; qur'a, chek; 2. seriya; mol partiyasi; 3. er maydoni; by ~ qur'a bo'yicha.</p>
LOOT	
<p>добыча, ограбление, награбленное</p>	<p>O'lja, o'g'irlangan mol</p>
LOYALTY	
<p>1. лояльность, верность; законность; 2. соблюдение законов.</p>	<p>1. to'g'rilik, sodiq (yoki xolis) turish, qonun-qoida chegarasidan chiqmaslik; odob saqlash; sodiqlik, vafodorlik; sidqidillik; sadoqat, vafo; qonuniylik; 2. qonunlarga amal qilmoq.</p>
LUCRATIVE	
<p>1. выгодный, прибыльный, приносящий доход; 2. корыстный.</p>	<p>1. foydali; daromad keltiradigan; 2. g'arazli.</p>
LUCRE	
<p>1. выгода; 2. корысть; нажива.</p>	<p>1. foyda; 2. manfaat, naf, foyda, hirs, g'araz; tekin daromad.</p>
LUCRUM CESSANS	
<p>лат. упущенная выгода.</p>	<p>lot. yo'qotilgan foyda.</p>
LUMPSUM	
<p>твердая, паушальная, аккордная, общая сумма.</p>	<p>o'zgarmas, barqaror, birgaliada bajariladigan; umumiy summa.</p>

LUMP-SUM ALIMONY	
единовременные алименты.	bir yo'la (bir marta) beriladigan alimentlar.
LUMP-SUM PAYMENT	
единовременная выплата.	bir yo'la (bir marta) beriladigan to'lov.
LUNACY	
1. психическое заболевание; сумасшествие; 2. невменяемость.	1. ruhiy kasallik; aqldan ozish; 2. shuursizlik.
LUNATIC	
1. душевнобольной; сумасшедший; 2. невменяемый.	1. ruhiy kasallikka uchragan, ruhiy kasal; 2. shuursiz, o'zini bilmay qolgan.
LUXARY	
роскошь, предметы роскоши; ~ tax налог на предметы роскоши.	dabdaba, hashamat, hasham, zeb-ziynat; dabdabalik, dang'illamalik; zeb-ziynat buyumlari; ~ tax zeb-ziynat buyumlari solig'i.
LYNCH	
расправляться самосудом; ~ing линчевание; ~ Law суд Линча, самосуд	(qonunsiz) o'zboshimchalik bilan jazolamoq ~ing o'zboshimchalik bilan jazolash; ~ Law o'zboshimchalik bilan jazolash qoidasi.

MAGISTRACY	
1. государственные чиновники; магистратура; 2. судебные должностные лица; 3. мировые судьи.	1. davlat amaldori; magistratura; 2. sud mansabdor shaxslari; 3. xalqaro sudyalar.
MAGISTRATE	
1. государственный чиновник; 2. магистрат (должностное лицо, осуществляющее правосудие); судья; мировой судья; судья полицейского суда; ~ examininginig следователь; ~ 's court мировой суд.	1. davlat amaldori; 2. magistrat (odil sudlovni amalga oshiruvchi mansabdor shaxs), sudya, xalqaro sudya; politsiya idorasi hakami; ~ examininginig tergovchi hakam; ~ 's court maxalliy sud; tinchlik sudi.
MAIN	
главный, основной.	asosiy, muhim.
MAINMORT	
право «мертвой руки» (владение недвижимостью со стороны юридического лица без права отчуждения).	“o'lik qo'l” huquqi (mulkni begonalashtirish huquqisiz yuridik shaxs tomonidan ko'chmas mulkka egalik qilish).
MAINTAIN	
1. предъявлять (иск), возбуждать (дело в суде); 2. утверждать, заявлять; 3. поддерживать; содержать.	1. (da'vo) e'lon qilmoq, (sudda ish) qo'zg'atmoq; 2. tasdiqlamoq, arz qilmoq; 3. qo'llab-quvvatlamog; yordam bermog.
MAINTAINOR	
лицо, оказывающее (неправомерную) поддержку одной из тяжущихся сторон.	sudlashuvchi tomonlardan biriga (g'ayriqonuniy) yordam ko'rsatuvchi shaxs.
MAINTENANCE	
1. поддержание; сохранение в силе; 2. неправомерная поддержка одной из тяжущихся сторон; 3. содержание, средства к существованию, алименты; 4. утверждение, заявление	1 qo'llab-quvvatlash, kuchida qoldirish; 2. sudlashuvchi tomonlardan biriga g'ayriqonuniy yordam; 3. taminot, kun kechirish uchun pul mablag', aliment; 4. tasdiqlash, arz qilish.

SEPARATE	
содержание, выплачиваемое мужем жене в случае соглашения о раздельном жительств	alohida yashash to'g'risidagi bitim holatida erni xotinga to'laydigan ta'minoti.
MAJOR	
1. совершеннолетний; 2. капитальный (о ремонте); 3. Майор; ~ war criminals главные военные преступники.	1.voyaga etgan; 2. kapital (ta'mir haqida); 3. Mayor; ~ war criminals bosh xarbiy jinoyatchilar.
MAJORITY	
1. большинство; 2. совершеннолетие; absolute ~ абсолютное большинство; ~ overwhelming подавляющее большинство. ~ vote большинство голосов; command a ~ иметь большинство.	1.ko'pchilik; 2. balog'at; absolute ~ mutlaq ko'pchilik. ~ overwhelming Asosiy kupchilik. ~ vote ovozlarning kupchiligi; command a ~ kupchilik ovozga ega bo'lmok.
MAJORIZE	
достичь совершеннолетия.	balog'at yoshiga etmoq.
MAKE	
1. делать, совершать; 2. заключать (договор, сделку); ~ a bill выставлять вексель; ~ a complaint подавать жалобу; ~ a contract заключать договор; ~ a deal заключить сделку; ~ a loan взять заем; ~ amends возмещать убытки; ~ an agreement заключать соглашение; ~ an appeal подавать апелляцию; ~ an award вынести решение; ~ an order издавать приказ (судебный); ~ a payment производить платеж; ~ one's will составить завешание.	1.qilmoq, sodir etmoq; 2. (shartnoma, bitim) tuzmoq; ~ a bill veksel bermog; ~ a complaint shikoyat bermog; ~ a contract shartnoma tuzmoq; ~ a deal bitim tuzmoq; ~ a loan zayom olmoq; ~ amends zararni qoplamoq; ~ an agreement bitim tuzish; ~ an appeal appelyatsiya bermog; ~ an award qaror chiqarish; ~ an order (sud) buyrug'i chiqarmoq; ~ a payment to'lovni amalga oshirmog; ~ one's will vasiyatnoma tuzmoq.
MAKER	
1. исполнитель; 2. изготовитель; 3. векселедатель, трассант.	1.ijrochi; 2. tayyorlovchi; 3 veksel beruvchi. tarssant.
MALEFACTION	
Преступление; правонарушение.	Jinoyat; qonunbuzarlik; bezorilik.

MALEFICENCE	
Вредность, преступность.	Zararkunandalik, jinoyatchilik; bezorilik.
MALEFICENT	
Вредный; преступный.	Zararkunanda; bezori; jinoyatchi.
MALFEASANCE	
Совершение неправомерного действия; должностное преступление.	Noqonuniy harakat sodir etmok.
MALFEASANT	
лицо, злоупотребляющее служебным положением; преступный; незаконный.	Mansabini suiiste'mol kilgan shaxs; jinoyatkorona; noqonuniy
MALICE	
Злой умысел. ~aforethought заранее обдуманый злой умысел; stand mute of ~ отказываться отвечать на вопросы суда	Qora niyat; avvaldan kungilga tugib kuyilgan kora niyat; sud savollariga javob berishdan bosh tortmok; sud savollari oldida sokov bulib turib olmok.
Malicious	
Злонамеренный; умышленный; ~ damage, ~ злоумышленное причинение вреда	Qora niyatli; kasddan; tuban; Kasddan zarar yetkazish.
Mischief	
Причинение вреда.	Zarar yetkazish.
Maliciously	
Злонамеренно; с преступным намерением.	Qasddan; kora niyat bilan; tubanlik bilan.
Maling	
Вредный; желающий зла другим; клеветать; ~ an innocent man оклеветать невинного человека.	Qora niyatli; xasadguy; biroyga yomonlik tilovchi; tuxmat qilmoq; begunox odamga tuxmat qilmoq.
Malignant	
Вредный.	Qora niyatli;
Malignity	
Глубоко укоренившаяся испорченность; злостность; злоба.	Chuqur urnashib qolgan tubanlik.

MALINGERING	
Симуляция.	Yasama kilik.
MALADMINISTRATION	
недобросовестное ведение дел; недобросовестное управление наследством.	sovuqqonlik bilan ish yuritish; sovuqqonlik bilan merosni boshqarish.
MALADMINISTRATOR	
лицо, недобросовестно ведущее дело; недобросовестный администратор (наследства).	sovuqqonlik bilan ish yurituvchi shaxs; ma'suliyatsiz (meros) boshqaruvchi.
MALIGNER	
клеветник.	tuhmatchi.
MALINGER	
симулировать (болезнь).	(kasallikka) o'zini solmoq.
MALINGERING	
симуляция.	mug'ombirlik.
MALPRACTICE	
преступная небрежность, профессиональная некомпетентность; нарушение профессиональной этики (врачом, юристом).	jinoiy e'tiborsizlik, kasbiy loqaydlik; kasbiy etikani buzish (shifokor, huquqshunos tomonidan).
MALTREATMENT	
1. плохое обращение; 2. несоответствующее, неквалифицированное лечение больного.	1. yomon/qo'po' muomala; 2. bemorni nomuvofiq, malakasiz davolash.
MAN	
1. мужчина; человек; 2. служащий; рабочий; ~in-possession хранитель описанного имущества; ~ of law адвокат, юрист; ~ of straw лжесвидетель; подставное лицо; single ~ холостяк; вдовец; staff~ штатный сотрудник.	1. erkak; odam; 2. xizmatchi; ishchi; ~in-possession xatlangan mulkni saqlovchi; ~ of law advokat/ himoyachi, yurist; ~ of straw soxta guvohlik beruvchi; asli boshqa kishi bo'lgan (o'zini boshqa kishi qilib ko'rsatgan) shaxs; single ~bo'ydoq, tul; staff~ shtatdagi ishchi.
MANAGE	
управлять, руководить, администрировать.	boshqarmoq, rahbarlik qilmoq, boshqaruvchilik qilmoq.

MANAGEMENT	
1. менеджмент, управление; 2. дирекция, администрация. ~ expenses расходы по управлению.	1. menedjment, boshqaruv; 2. direktsiya, rahbariyat; ~ expenses boshkaruv xarajatlari.
MANAGER	
менеджер; заведующий, управляющий.	menedjer; mudir, boshqaruvchi.
MANDAMUS	
лат. судебный приказ должностному лицу о выполнении решения, выдаваемый судом высшей инстанции.	lot. mansabdor shaxsning yuqori instantsiya sudi qarorini bajarishi to'g'risida sud buyrug'i.
MANDATARY	
мандатарий; должник по договору поручения; поверенный.	mandatariy; shartnoma bo'yicha zimmmasiga vazifa yuklatiladigan qarzdor; ishonchli vakil.
MANDATE	
1. мандат; 2. судебный приказ; 3. поручение.	1. mandat; 2. sud buyrug'i; 3. topshiriq.
MANDATOR	
кредитор по договору поручения, доверитель.	zimmmasiga yuklatiladigan shartnoma bo'yicha kreditor, ishonch qog'ozi (vakolat yoki vakolatnoma) beruvchi (bergan) shaxs.
MANDATORY	
1. императивный; обязательный; принудительный; приказной; 2. мандатарий; должник по договору поручения; поверенный.	1. qat'iy; majburiy; buyruqqa oid; 2. mandatariy; zimmmasiga yuklatiladigan shartnoma bo'yicha qarzdor; ishonchli vakil.
MANHOOD	
зрелость.	balog'at/voyaga etganlik.
MANIFEST	
1. судовой манифест, декларация судового груза; 2. правительственное заявление; 3. проявлять; обнаруживать; ~ of the cargo декларация о грузе; inward ~ декларация по приходу (судна);	1. kema manifesti, kema yuki deklaratsiyasi; 2. hukumat bayonoti; 3. ko'rsatmoq, namoyon qilmoq; ~ of the cargo yuk to'g'risida deklaratsiya; inward ~ (kema) kelishi bo'yicha deklaratsiya;

outward ~ декларация по отходу (судна); ship's ~ судовой манифест, декларация судового груза.	outward ~ (kema) ketishi bo'yicha deklaratsiya; ship's ~ kema manifesti, kema yuki deklaratsiyasi.
MANNER	
способ, метод, образ действия; ~ of payment способ платежа.	yo'l, usul, ish usuli; ~ of payment to'lov usuli.
MANUFACTURE	
1. производить; вырабатывать; 2. производство, изготовление.	1. ishlab chiqmoq; yasamoq; 2. ishlab chiqish, tayyorlash.
MANUFACTURER	
производитель, изготовитель; ~ false evidence фабриковать ложное доказательство; ~ an excuse придумать предлог	ishlab chiqaruvchi, tayyorlovchi; ~ false evidence yolg'on dalil tukib chikarmok; ~ an excuse baxona tukimok
MARAUD	
Мородерствовать.	Ofat'yoki falokatdan foydalanib talonchilik qilmoq.
MARAUDER	
Мародер.	Ofat yoki falokat paytida talonchilik kiluvchi
MARIHUANA	
Марихуана.	marixuana.
MANUSCRIPT	
рукопись; final ~ издательский оригинал; original ~ авторская рукопись.	qo'l yozma; final ~ nashr qilinadigan asl nusxa; original ~ muallif qo'l yozmasi.
MARGIN	
1. поля (документа), незаполненные графы бланка документа; 2. допустимое отклонение; остаток; 3. гарантийный взнос; ~ of profit чистая прибыль; clearing ~ клиринговая маржа, гарантийный взнос; gross ~ over direct costs валовая прибыль.	1.(hujjat) hoshiyasi, hujjat blankining to'ldirilmagan grafasi; 2. yo'l qo'yiladigan rad etish; qoldiq; 3. kafolatlangan to'lov; ~ of profit sof foyda; clearing ~kliring marja, kafolatlangan to'lov; gross ~ over direct costs yalpi foyda.
MARGINAL	
предельный, маржинальный; ~ tax rates маржинальная (предельная ставка налога).	oxirgi; ~ tax rates marjinal (so'nggi soliq stavkasi).

MARITAL	
супружеский, брачный; ~ agreement брачный контракт; ~ status семейное положение; ~ consent согласие вступить в брак.	er-xotinga oid, nikohga oid; ~ agreement nikoh shartnomasi; ~ status oilaviy ahvol; ~ consent nikohga kirishga rozilik
MARK	
1. отметка, метка, знак; 2. торговая марка; товарный знак; 3. штамп, штемпель; 4. штамповать, штемпелевать; ~s and names subject (to товарные знаки и торговые наименования, могущие быть предметом собственности; convention registration ~ товарный знак, регистрируемый с конвенционным приоритетом; defensive ~ защитный товарный знак; manufacture ~ заводская, фабричная марка, товарный знак; merchandise ~ торговая марка; товарный знак; logan ~ товарный знак в виде рекламного девиза; strade~ товарный знак, фабричная марка.	1. belgi; 2. savdo belgisi, tovar/mol belgisi; 3. shtamp, muhr; 4. muhriamoq; ~s and names subject to mulk predmeti bo'ladigan tovar/mol belgisi va savdo nomlanishi; convention registration ~ konventsiya birinchiligi bilan qayd etiladigan tovar/mol belgisi; defensive ~himoyalangan tovar/mol belgisi; manufacture ~zavod, fabrika belgisi, tovar/mol belgisi; logan ~savdo belgisi, tovar/mol belgisi; reklama devizi sifatidagi tovar/mol belgisi; strade ~ tovar/mol belgisi, fabrika belgisi.
MARKDOWN	
сниженные цены; продажа по сниженным ценам.	chegirilgan narxlar; chegirilgan narxlar bo'yicha sotuv.
MARKET	
1. рынок; торги; торговля; 2. спрос, сбыт; 3. рыночный; 4. продавать, сбывать; ~ conditions кон'юнктура рынка; ~ quotation биржевая котировка, рыночная цена; ~ value рыночная стоимость; auction ~ открытая продажа; commodity ~ товарная биржа; рынок товаров; domestic ~ внутренний рынок; equity ~ рынок акций; exchange ~ валютный рынок;	1. bozor; savdo; savdo-sotiq; 2. talab; sotilish; 3. sotmoq, sotib yubormoq; ~ conditions bozor sharoiti; ~ quotation birjada yurish (aylanish, muomalada bo'lish), bozor bahosii; ~ value bozor narxi; auction ~ochiq savdo; commodity ~ tovar/mol birjasi; xom-ashyo bozori; domestic ~ichki bozor; equity ~aksiyalar bozori; exchange ~valyuta bozori;

labour ~ рынок труда, рынок рабочей силы; money ~ кредитный рынок; real estate ~ рынок недвижимости; securities ~ фондовая биржа; рынок ценных бумаг; stock ~ фондовая биржа; world ~ мировой рынок.	labour ~ mehnat bozori; ishchi kuchi bozori; money ~ kredit bozori; real estate ~ ko'chmas mulk bozori; securities ~ jamg'arma birjasi; qimmatli qog'ozlar bozori; stock ~ jamg'arma birjasi; world ~ jahon bozori.
MARKETING	
маркетинг; реализация; сбыт.	marketing; amalga oshirish; sotish.
MARKUP	
повышение цены; наценка.	narxlar ko'tarilishi, qo'shimcha narx.
MARRIAGE	
1. женитьба, замужество; 2. брак; бракосочетание; ~ at law законный брак; ~ bonds брачные узы; ~ by habit and repute брак по фактическому положению вещей и всеобщей известности, «гражданский брак»; ~ by proxy брак по доверенности, заключение брака по доверенности; ~ ceremony брачная церемония; ~ certificate/lines свидетельство о браке; ~ portion приданое; ~ promise обручение; ~ terminable by pleasure брак, расторгимый по желанию супругов; bigamous ~ бигамия, двоебрачие; celebration of ~ акт заключения брака; ceremonial ~ брак, заключенный с соблюдением всех формальностей; civil/common-law ~ гражданский брак;	1. uylanish, erga tegish; 2. nikoh, nikoh ahdi; ~ at law qonuniy nikoh; ~ bonds nikoh rishtasi; ~ by habit and repute umumiy holat va odatlar bo'yicha ko'ra tuzilgan nikoh, "fuqarolik nikohi"; ~ by proxy ishonchnoma bo'yicha nikoh, ishonchnoma bo'yicha nikoh tuzish; ~ ceremony nikoh marosimi; ~ certificate/lines nikoh to'g'risida guvohnoma; ~ portion kelin sepi; ~ promise nikoh, nikohlash; terminable by pleasure er-xotinning hohishi bilan bekor qilinadigan nikoh; bigamous ~ bigamiya, ikki nikohlik; celebration of ~ nikoh tuzish dalolatnomasi; ceremonial ~ barcha rasmiyatchiliklarga rioya qilib tuzilgan nikoh; civil/common-law ~ fuqarolik nikohi;

<p>companionate ~ брак, перед заключением которого будущие супруги договариваются о количестве детей и условиях развода; consummation of ~ заключение брака, вступление в супружеские отношения; contract a ~ заключать брачный договор; discharge a ~ расторгать брак; foreign ~ брак, заключенный за границей (по законам другой страны); former ~ прежний брак; law of ~ брачное право; left-handed ~ морганатический брак; Scotch ~ 1. шотландский брак (т. е. брак, заключенный по шотландскому закону, не требующему, в отличие от английского, соблюдения иных формальностей, кроме согласия вступающих в брак); брак без соблюдения формальностей; sham ~ фиктивный.</p>	<p>companionate ~ nikohgacha bo'lajak kelin-kuyovning bo'lg'usi farzandlar soni va ajrashish shartlari kelishib olingan nikoh; consummation of ~nikoh tuzish, er-xotinlik munosabatlariga kirish; contract a ~nikoh shartnomasi tuzmoq; discharge a ~nikohni bekor qilmoq; foreign ~ (boshqa davlat qonunchiligi bo'yicha) xorijda tuzilgan nikoh; former ~oldingi nikoh; law of ~nikoh huquqi; left-handed ~tengsiz nikoh; Scotch ~shotlandcha nikoh (nikohga kirishuvchilar roziligidan tashqari inilzcha nikohga qaraganda farq qiladigan, boshqa rasmiyatchilikka rioya qiladigan shotland qonuni bo'yicha tuzilgan nikoh); sham ~ sohta nikoh.</p>
<p>MARRIAGEABLE</p>	
<p>1. брачный (возраст); 2. обладающий брачной правоспособностью; достигший брачного возраста.</p>	<p>1. nikoh (yoshi); 2. nikoh huquqi layoqatiga ega bo'lish; nikoh yoshiga etgan.</p>
<p>MARRY</p>	
<p>1. жениться; выходить замуж; 2. женить; выдавать замуж.</p>	<p>1. uylanmoq; erga tegmoq; 2. o'yulantirmoq; erga bermoq.</p>
<p>MARSHALLING</p>	
<p>распределение наследственного имущества/ имущества несостоятельного должника между наследниками, кредиторами.</p>	<p>meros qilingan mulk/qarzini to'lay olmaydigan qarzdor mulkini merosxo'rlar, kreditorlar o'rtasida taqsimlash.</p>
<p>MASS</p>	
<p>масса; большинство; ~ of the succession наследственная масса;</p>	<p>massa/asosiy qism; ko'pchilik; ~ of the succession meros massasi/asosiy qismi;</p>

general ~ of a bankrupt's estate конкурсная масса.	general ~ of a bankrupt's estate tanlov massasi/asosiy qismi.
MASTER	
1. капитан (торгового судна); 2. наниматель; 3. судебный распорядитель; ~ agreement трудоое соглашение, заключаемое профсоюзом с руководителями отрасли; ~ budget годовой бюджет; ~ policy общий страховой полис.	1. (savdo kemasi) kapitani; 2. ижарачи; 3 суд бошқарувчиси; ~ agreement soha rahbarlari bilan kasaba uyushmasi tuzadigan mehnat bitimi; ~ budget yillik byudjet; ~ policy umumiy sug'urta polisi.
MATE	
1. супруг; 2. помощник капитана торгового судна.	1. yer; 2. savdo kemasi kapitanining yordamchisi.
MATERIAL	
1. существенный; 2. материальный ~ damage материальный ущерб; ~ evidence существенные доказательства; ~ misrepresentation заблуждение относительно существенного обстоятельства; ~ witness свидетель, показания которого имеют существенное значение. ; evidentiary ~ материал, используемый как доказательство.	1. ahamiyatli; 2. moddiy; ~ damage moddiy zarar; ~ evidence muxum isbot; ashyoviy dalillar; ~ misrepresentation moxiyatni ochishda chalgitish; ~ witness kursatmasi muxum axamiyat kasb etadigan guvox; evidentiary ~ ashyoviy dalil sifatida foydalansa buladigan narsa.
MATERNITY	
материнство.	onalik.
MATRINHERITAGE	
наследство/наследники по женской линии.	ayol shajarasi bo'yicha meros/ merosxo'rlar.
MATRIMONIAL	
брачный, матримониальный; ~ action иск о разводе; ~ domicile супружеский домичиль, ~ law брачно-семейное право	nikohga oid, uylanish bilan bog'liq bo'lgan; ~ action ajralish xakidagi da'vo; ~ domicile er-xotin yashaydigan boshpana; ~ law oilaviy huquq
MATRIMONY	
супружество, брак.	er-xotinlik, nikoh.

MATRON	
1. замужняя женщина: мать семейства; пожилая женщина; 2. вдова.	1. erli ayol; oilali ona; keksaygan ayol; 2. beva.
MATTER	
предмет; вопрос; факт; дело; ~ in issue предмет спора; ~ of litigation предмет тяжбы; civil ~s 1. гражданские дела; 2. гражданские правоотношения; copyrightable ~ объект, могущий быть предметом авторского права, охраноспособный (по нормам авторского права) объект.	predmet; savol; dalil; ish; ~ in issue tortishuv predmeti; ~ of litigation sudlashuv predmeti; civil ~s 1. fuqarolik ishlar; 2. fuqarolik huquqiy munosabat; copyrightable ~ (mualliflik huquqi bo'yicha) mualliflik huquqi predmeti bo'la oladigan obekt, himoyalananadigan obekt.
MATURATION	
наступление срока исполнения обязательства.	majburiyatlarni bajarish muddatining etib kelishi.
MATURE	
1. наступать (о сроке); подлежать оплате; 2. с наступившим сроком исполнения обязательств; 3. зрелый.	1. etib kelmoq (muddat haqida); 2. majburiyatlarni bajarish muddati etib kelishi bilan; 3. balog'at/voyaga etgan.
MATURITY	
1. наступление срока платежа, исполнения обязательств; 2. совершеннолетие; зрелость; ~ data дата погашения долга; ~ value сумма, подлежащая выплате в дату погашения долговых обязательств; at ~ в день, назначенный для погашения долга; ~ of instrument наступивший срок исполнения по документу.	1. to'lov, majburiyatlarni bajarish muddatining etib kelishi; 2. voyaga etish, balog'at; ~ data qarz uzish kuni; ~ value qarzdorlik majburiyatlarini to'lash kunida to'lanadigan summa; at ~ qarzni to'lash uchun tayinlangan kunda; ~ of instrument hujjat bo'yicha bajarish muddatining etib kelishi.
MAYOR	
мэр	mer
MEANS	
1. средство, способ; 2. материальные средства, имущество;	1. vosita, yo'l; 2. moddiy mablag', mulk;

<p>pacific / peaceful ~ мирные средства (разрешения спора).</p>	<p>pacific/peaceful ~ (ziddiyatlarni hal qilishda) tinchlik yo'li.</p>
<p>MEASURE</p>	
<p>мера; масштаб; ~ of damages измерение ущерба; ~ of value измерение стоимости.</p>	<p>o'lchov; masshtab; ~ of damages ziyon o'lchovi; ~ of value narx o'lchovi.</p>
<p>MEDIATE</p>	
<p>посредничать, выступать в качестве посредника; ~ powers посреднические полномочия; ~ board конфликтная комиссия.</p>	<p>vositachilik qilmoq; vositachi sifatida oraga tushmoq; ~ powers vositachilik vakolatlari; ~ board yarashtiruvchi xay'ati</p>
<p>MEDIATION</p>	
<p>посредничество; ~ board конфликтная комиссия.</p>	<p>vositachilik; ~ board mojoro komissiyasi.</p>
<p>MEDIATOR</p>	
<p>посредник, примиритель.</p>	<p>vositachi, dallo, yarashtiruvchi, kelishtiruvchi, murosaga keltiruvchi.</p>
<p>MEDIATORY</p>	
<p>посреднический.</p>	<p>vositachilikka (vositachilarga) oid.</p>
<p>MEDICAL</p>	
<p>медицинский; ~ evidence медицинское заключение.</p>	<p>tibbiy; ~ evidence tibbiy hulosa.</p>
<p>MEDICINE</p>	
<p>1. медицина; 2. лекарство; over-the-counter ~ лекарство, отпускаемое без рецепта; prescription ~ лекарство, отпускаемое по рецепту.</p>	<p>1. tibbiyot; 2. dori-darmon; over-the-counter ~ retsepsiz beriladigan dori; prescription ~ retsept bo'yicha beriladigan dori.</p>
<p>MEET</p>	
<p>1. отвечать, соответствовать, удовлетворять; 2. опровергать, оспаривать; 3. оплачивать; ~ a bill оплатить вексель; ~ a claim оспаривать иск; ~ a commitment выполнить обязательство.</p>	<p>1. javob bermoq, muvofiq bo'lmoq, to'g'ri kelmoq, qondirmoq; 2. rad qilmoq, e'tiroz bildirmoq; 3. to'lamoq; ~ a bill vekselni to'lamoq; ~ a claim da'vo kiritmoq; ~ a commitment majburiyatni bajarmoq.</p>
<p>MEETING</p>	
<p>1. встреча; 2 собрание; заседание; ~ of minds совпадение воли сторон, согласие сторон при заключении контракта;</p>	<p>1. uchrashuv; 2. yig'ilish; majlis; ~ of minds tomonlarning hohishlarini mos kelishi, shartnoma tuzishda tomonlarning roziligi;</p>

~ in camera заседание при закрытых дверях	~ in camera yopik eshiklar ortida majlis qilmoq
MELIORATION	
улучшение имущества, произведенное нанимателем.	yollovchi tomonidan ishlab chiqilgan mulkni yaxshilanishi.
MEMBER	
член; ~ of circuit барристер; ~ firm брокерская фирма - член биржи; ~ of the bar адвокат, член коллегии адвокатов; ~ of the bench судья, член состава суда; allied/associated ~ ассоциированный член; clearing ~ член расчетной палаты; co-opted ~ кооптированный член; exchange ~ член биржи; founder ~ член-учредитель; staff ~ штатный сотрудник.	a'zo; ~ of circuit barrister/advokat; ~ firm birja a'zosi-dalollik/brokerlik firmasi; ~ of the bar advokat, advokatlar kollegiyasi a'zosi; ~ of the bench sudya, sudyalar tarkibi a'zosi; allied/associated ~birlashgan a'zo; clearing ~hisob-kitob palatasi a'zosi; co-opted ~ bo'sh o'ringa to'ldirilgan a'zo; exchange ~birja a'zosi; founder ~ ta'sischi- a'zo; staff ~ shtatdagi xodim.
MEMBERSHIP	
членство; совокупность членов; состав (с'езда, суда и т. п.); ~ card членский билет; ~ fee членский взнос.	a'zolik, jami a'zolar; (yig'in, sud va sh. k.) tarkibi; ~ card a'zolik guvoxnomasi; ~ fee a'zolik badali.
MEMORANDUM	
1. памятная записка; 2. меморандум; 3. запись, служебная записка; ~ decision решение суда, в котором не отражены причины принятия решения; ~ of association меморандум, устав юридического лица, устав акционерного общества; arbitration ~ третейская запись, компромисс; official ~ официальный меморандум.	1.yodda saqlanadigan yozuv; 2. memorandum; 3. yozuv, xizmat yozuvi; ~ decision qaror qabul qilish sabablari ko'rsatilmagan sud qarori; ~ of association memorandum, yuridik shaxs nizomi, aksiyadorlik jamiyati nizomi; arbitration ~ hakamlar yozuvi, o'zaro kelishuv; official ~ rasmiy memorandum.
MENTAL ALIENATION	
невменяемость.	aqli nororsoliq.
MENTAL ANGUISH	
психическая боль, страдание.	ruhiy kasallik, azob-uqubat.
MENTAL	
умственный, психический;	aqliy faoliyatga oid, ruhiy;

~ capacity/competence умственные способности; компетентность; defective ~ power умственная неполноценность.	~ capacity/competence aqliy imkoniyatlar; qobiliyatlilik; defective ~ power aqli norasoliq.
MENTALITY	
интеллект; интеллектуальное развитие; retarded ~ умственная недоразвитость.	intellekt; aqliy kamolot; retarded ~ aqli norasoliq.
MERCY	
Помилование.	Avsh etish.
MERIT	
Достоинство; заслуга; качество. ~ m. of the case существо дела	Gurur; xizmat; sifat; ijobiy xislat. . ~ m. of the case ishning yutikli tomonlari; ishning moxiyati
MERCANTILE	
торговый, коммерческий; ~ law торговое право.	savdo, tijorat; ~ law savdo huquqi.
MERCENARY	
1. корыстный; 2. наемный; 3. наемник; ~ marriage брак по расчету.	1. g'arazli; 2. yollanma; 3. yollangan; ~ marriage hisob-kitobli nikoh.
MERCHANDISE	
1. товар(ы); 2. сбывать, реализовывать; infringing ~ контрафактный товар	1. tovar/mol(lar); 2. sotmoq; infringing ~ ontrafakt tovar/mol.
MERCHANT	
торговец, коммерсант.	sotuvchi, tijoratchi.
MERE	
простой; ~ right простое право собственности.	oddiy; ~ right oddiy mulk egalik huquqi.
MERGER	
объединение, поглощение, слияние компаний; ~ of cases объединение дел в одно производство ~ of corporations слияние корпораций; поглощение одной корпорации; conglomerate ~ слияние корпораций из разных областей;	kompaniyalar birlashish, yutish, qo'shilishi; ~ of cases bir ishni ko'rishda ishlarning qo'shilishi; ~ of corporations korporatsiyalarning qo'shilishi; korporatsiyalarning birlashish; conglomerate ~ turli sohalardagi korporatsiyalarning qo'shilishi;

<p>down stream ~ слияние родительской корпорации с дочерней компанией; horizontal ~ горизонтальное слияние (слияние конкурирующих компаний); market extension ~ фузия с целью расширения рынка сбыта; vertical ~ вертикальное слияние.</p>	<p>down stream ~ota-onalar korporatsiyasi bilan qiz kompaniyasining qo'shilishi; horizontal ~ gorizontal qo'shilish (raqobatlashuvchi kompaniyaning qo'shilishi); market extension ~ savdo bozorini kengaytirish maqsadidagi fuziya; vertical ~vertikal qo'shilish.</p>
MESSUAGE	
<p>усадьба; жилой дом с хозяйственными постройками и земельным участком.</p>	<p>hovli-joy; er maydoni va xo'jalik imorati bor yashash uy.</p>
METROPOLIS	
<p>Столица; метрополия.</p>	<p>Poytaxt; bosh shaxar.</p>
METROPOLITAN	
<p>Столичный. ~ borough столичное городское поселение; ~ police столичная полиция.</p>	<p>Markaziy; markazga taallukli. ~ borough poytaxt shaxar. ~ police poytaxt politsiyasi.</p>
MILITARY	
<p>Военный; воинский. ~ attache военный атташе; ~commission военный трибунал; ~ court военный суд; ~ justice военная юстиция; ~ occupation военная оккупация.</p>	<p>Xarbiy; askariy. ~ attache xarbiy attashe; ~commission xarbiy tribunal; ~ court xarbiy sud; ~ justice xarbiy adliya; ~ occupation xarbiy boskinchilik; bosib olish; fatx etish.</p>
METE	
<p>1. отмерять; 2. граница, пограничный знак; ~ out a fine определять сумму штрафа; ~ out justice отправлять правосудие.</p>	<p>1. o'lchamoq; 2. chegara, chegara belgisi; ~ out a fine jarima summasini belgilamoq; out justice odil sudlovga yubormoq.</p>
MIDDLEMAN	
<p>1. посредник; 2. арендатор, сдающий участки земли субарендаторам.</p>	<p>1.dallol; 2. subijarachilarga yer maydonlarni beradigan ijarachi.</p>
MIGRANT	
<p>1. переселенец; 2. мигрирующий.</p>	<p>1. ko'chib keluvchi; 2. migratsiya qiluvchi.</p>
MIGRATE	
<p>мигрировать.</p>	<p>migratsiya qilmoq, ko'chmoq</p>

MIGRATION	
миграция.	migratsiya, ko'chish.
MIND	
1. психическое здоровье; 2. рассудок; 3. намерение, мнение; ~ and memory память и рассудок sound ~ нормальный рассудок; unsound ~ психическое расстройство; психическое заболевание	1. ruhiy salomatlik; 2. aql-idrok; 3. niyat, fikr; ~ and memory хотира va aql-idrok; sound ~ normal/me'yoriy aql-idrok; unsound ~ ruhiy buzulish; ruhiy kasallik;
MINISTER	
1. министр; 2. дипломатический представитель; ~ extraordinary and plenipotentiary чрезвычайный и полномочный посланник; foreign ~ 1. дипломатический представитель иностранного государства; 2. министр иностранных дел.	1. vazir; 2. diplomatik vakil; ~ extraordinary and plenipotentiary favqulotda va vakolatli elchi; foreign ~ 1. xorijiy mamlakatning diplomatik vakili; 2. tashqi ishlar vaziri.
MISAPPROPRIATE	
	1. noqonuniy egallab olmoq, bosib olmoq; o'zlashtirmoq; 2. kamomad qilmoq.
MILITIA	
Милиция.	Militsiya.
MINOR	
Младший; малозначительный; несовершеннолетний; ~ court суд низшей инстанции; ~ injury легкое ранение; ~ larceny мелкое хищение; ~ offence мелкое правонарушение.	Kichik; kam axamiyatli; xosh; voyaga etmagan; ~ court kuyi makomdagi sud; ~ injury yengil jaroxat; ~ larceny mayda ugirlik; ~ offence mayda qonunbuzarlik; mayda bezorlik.
MINORITY	
Меньшинство.	Ozchilik; yoshlik(voyaga yetmaganlik).
MINUTES	
Протокол.	Qaydnoma.
MISAPPLICATION	
Злоупотребление; растрата.	Suiiste'mol qilmoq; oziga tegishli bo'lmagan mulkni sarflab yuborish.

MISPAPLY	
Злоупотреблять; производить растрату.	Suiiste'mol qilmoq; birovning mulkini xarj qilmoq.
MISBEHAVIOUR	
Неправомерное поведение.	Tartibbuzarlik; bezorlik; axloksizlik.
MISAPPROPRIATION	
незаконное завладение, неправомерное присвоение.	noqonuniy egallash, g'ayriqonuniy egallash.
MISCONDUCT	
1. проступок; неправомерный образ действий; 2. супружеская неверность; ~ in office нарушение служебных обязанностей.	1. qilmish, g'ayriqonuniy usuldagi harakat; 2. er-xotinlar o'tirasidagi ishonchsizlik; ~ in office xizmat majburiyatlarini buzish.
MISDELIVERY	
1. ошибочная доставка; доставка на неправильный адрес; 2. ненадлежащая поставка.	1. adashib eltib berish; noto'g'ri manzilga eltib berish; 2. lozim bo'lmagan etkazib berish.
MISDEMEANANT	
1. субъект мисдиминора; 2. лицо, признанное виновным в совершении мисдиминора.	1. misdiminor subekti; 2. misdiminor sodir etganlikda ayblanuvchi shaxs.
MISDEMEANOUR	
мисдиминор.	misdiminor.
MISJOINDER	
неправильное соединение, неправомерное объединение; ~ of actions неправильное соединение исков; ~ of causes of action неправильное соединение нескольких требований в одном иске; ~ of parties неправильное соединение истцов/ответчиков в судебном процессе.	noto'g'ri qo'shish, g'ayriqonuniy birlashish; ~ of actions da'volarni noto'g'ri qo'shish; ~ of causes of action bitta da'vodagi bir nechta talablarning noto'g'ri qo'shish; ~ of parties da'vogar/javobgarlarni sud protsessida noto'g'ri qo'shish.
MISMANAGEMENT	
служебное злоупотребление.	xizmat vazifasini suiiste'mol qilish.
MISSING	
1. недостающий. утраченный; 2. пропавший без вести, отсутствующий.	1. yetishmaydigan, yo'qotilgan; 2. bedarak yo'qolgan, yo'q bo'lgan.

MISLEAD	
Вводить в заблуждение.	Chalg'itmoq; yo'ldan urmok.
MISLEADING	
Вводящий в заблуждение.	Chalgituvchi.
MISTAKE	
Ошибка; honest ~ добросовестное заблуждение.	Xato; honest ~ begaraz chalgish.
MISTAKEN BELIEF	
Ошибочное предположение.	Xato taxmin.
MISSION	
1. миссия; поручение; 2. делегация, представительство; 3. направлять с миссией; 4. командировка; 5. отправлять в командировку; commercial ~ торговая делегация; торговое представительство; incumbent of the ~ глава дипломатического представительства; permanent ~ постоянное представительство; trade ~ 1. торговая делегация; 2. торговое представительство.	1. vazifa; topshiriq; 2. delegatsiya, vakolatxona; 3. vazifa bilan yubormoq; 4. xizmat safari; 5. xizmat safariga yubormoq; commercial ~ savdo delegatsiyasi, savdo vakolatxonasi; incumbent of the ~ diplomatik vakolatxona boshlig'i; permanent ~ doimiy vakolatxona; trade ~ 1. savdo delegatsiyasi; 2. savdo vakolatxona.
MISTREAT	
обращаться ненадлежащим образом, дурно обращаться.	lozim bo'lmagan ravishda muomala qilmoq, ahmoqona muomalada bo'lmoq.
MISTREATMENT	
ненадлежащее обращение; дурное обращение	tegishli bo'lmagan muomala; ahmoqona muomala.
MISTRIAL	
ненадлежащее лечение; неправильное судебное разбирательство.	zarur bo'lmagan davolash; noto'g'ri sud muhokamasi.
MISTRUST	
1. недоверие; 2. не доверять.	1. ishonchsizlik; 2. ishonmaslik.
MISUSE	
1. злоупотреблять; 2. дурно обращаться; 3. злоупотребление;	1. suiiste'mol qilmoq; 2. ahmoqona muomalada bo'lmoq; 3. suiiste'mol

~ a person дурно обращаться с кем-либо; ~ of confidence злоупотребление доверием; ~ of right злоупотребление правом; ~ of (trade) mark неправомерное использование товарного знака.	qilish; ~ a person kimdir bilan ahmoqona muomalada bo'lmoq; ~ of confidence ishonchni suiiste'mol qilish; ~ of right huquqni suiiste'mol qilish; ~ of (trade) mark tovar/mol belgisini g'ayriqonuniy tarzda ishlatmoq.
MITIGATE	
смягчать; уменьшать; ~ damages уменьшить сумму взыскиваемых убытков; ~ incapacity уменьшить объем правопоражения; ~ penalty уменьшить сумму штрафа.	yumshatmoq; kamaytirmoq; ~ damages undiriladigan zararlarni summasini kamaytirmoq; ~ incapacity huquqni kamstitsh hajmini kamaytirmoq; ~ penalty jarima summasini kamaytirmoq.
MITTIMUS	
лат. 1. судебный приказ о заключении в тюрьму; ордер на арест; 2. заключать в тюрьму на основании ордера на арест/распоряжения суда; 3. распоряжение о передаче дела в другой суд.	lot. 1. qamoqqa olish to'g'risida sud buyrug'i; hibsga olish uchun order; 2. hibsga olish orderi/sud buyrug'i asosida qamoqqa olmoq; 3. ishni boshqa sudga o'tkazish to'g'risida buyruq.
MIXED	
смешанный; ~ laws смешанные законы.	aralash; ~ laws aralash qonunlar.
MOBILITY	
движимость, движимое имущество.	ko'char mulk, ko'char mol-mulk.
MODAL	
обусловленный; связанный с выполнением определенных условий; ~ legacy условный завещательный отказ.	shart bo'lgan; belgilangan shartlarni bajarish bilan bog'liq; ~ legacy shartli vasiyatnomani rad etish.
MODEL	
1. примерный, типовой (о конвенции, уставе и т. п.); 2. модель (вид промышленной собственности).	1. namunali (konventsiya, nizom va b.); 2. model (mulk ishlab chiqarish shakli).

MODERATOR	
председательствующий на собрании.	majlisda raislik qiluvchi.
MODUS VIVENDI	
лат. модус вивенди, временное соглашение.	lot. modus vivendi; vaqtinchalik rozilik.
MONEY	
деньги; денежные суммы; ~ due денежный долг с наступившим сроком погашения; ~ had and received недолично полученное, недолично уплаченное; ~ of account валюта расчета; ~ of contract валюта договора; ~ of payment валюта платежа; ~ on call денежный заем до востребования; ~ supply денежная масса в обращении; at the ~ «по цене контракта»; bargain/caution ~ задаток; barren ~ беспроцентный долг; condemnation ~ убытки, присуждаемые к возмещению проигравшей стороне; danger ~ надбавка к заработной плате за опасность; deposit ~ первый взнос (при платеже в рассрочку); hand ~ задаток наличными; head ~ подушный налог; in the ~ «в пределах цены контракта»; insurance ~ страховая сумма; страховое возмещение; interest ~ проценты; lawful ~ законное платежное средство; lend ~ on documents предоставлять заем под залог документов; lend ~ on goods предоставлять заем под залог товаров; out of the ~ «за пределами цены контракта»; passage ~ плата за проезд; raise ~ делать заем;	<p>pul; pul summalari; ~ due to'lov muddati etib kelgan pul qarzi; ~ had and received olinishi mumkin bo'lmagan, to'lanishi mumkin bo'lmagan; ~ of account hisob-kitob valyutasi; ~ of contract shartnoma valyutasi; ~ of payment to'lov valyutasi; ~ on call talab qilib olingungacha pulli zayom; ~ supply muamaladagi pul massasi; at the ~ "shartnomada ko'rsatilgan narx bo'yicha"; bargain/caution ~ garov puli; barren ~ foizsiz qarz; condemnation ~ sud ishida yutqazgan tomon qoplayodigan chiqimlar; danger ~ havf-xatar uchun ish haqiga qo'shimcha; deposit ~ (bo'lib-bo'lib to'lashdagi) birinchi to'lov; hand ~ naqd pul garovi; head ~ jon solig'i; in the ~ "shartnoma narxidan chetga chiqmagan"; insurance ~ sug'urta summasi, sug'urta tovon; interest ~ foizlar; lawful ~ qonuniy to'lov vositasi; lend ~ on documents hujjatni garovga olib zayom taqdim etmoq; lend ~ on goods tovar/ mollarni garovga qo'yib qarz olmoq; out of the ~ "shartnoma narxidan chetga chiqqan"; passage ~ yo'l haqi; raise ~ zayom bermoq;</p>

smart ~ штраф; неустойка; suit ~ судебные издержки; taxed ~ денежная сумма, обложенная налогом; untaxed ~ денежная сумма, не обложенная налогом	smart ~ жарима; suit ~ sud xarajatlari; taxed ~ soliq solinadigan pul; untaxed ~ soliq solinmaydigan pul.
MONITION	
1. вызов в суд; 2. судебный приказ об исполнении.	1. sudga chaqiruv; 2. ijro to'g'risidagi sud buyrug'i.
MONOPOLY	
монополия: ~ power монопольное право; limited ~ ограниченная монополия; natural ~ естественная монополия; state ~ государственная монополия.	monopoliya; ~ power monopol huquq; limited ~ cheklangan monopoliya; natural ~ tabiiy monopoliya; state ~ davlat monopoliyasi.
MORAL	
моральный, нравственный; ~ damage моральный ущерб; ~ turpitude моральное обязательство.	ma'naviy, ahloqiy; ~ damage ma'naviy zarar; ~ turpitude ahloqiy majburiyat;
MORGUE	
Морг; покойница.	O'likxona; murdaxona; morg.
MORATORIUM	
мораторий.	moratoriy (to'lov muddatini uzaytirish).
MORTGAGE	
1. ипотечный залог; закладная; 2. закладывать; ~ certificate закладной сертификат; ~ commitment ипотечные обязательства; ~ discount разница между суммой ипотеки и продажной ценой; ~ of goods продажа-залог движимости с условием о выкупе, фидуциарный ипотечный залог движимости; ~ guarantee insurance гарантийное страхование ипотеки; ~ loan ипотечная ссуда; blanket ~ полная ипотека на всю собственность должника;	1. ipoteka garovi; garovga qo'yilgan; 2. garovga qo'ymoq; ~ certificate garov sertifikati; ~ commitment ipoteka majburiyatlari; ~ discount sotuv narxi bilan ipoteka narxi o'rtasidagi farq; ~ of goods garov mulkini sotib olish sharti bilan sotish; ko'char mulk fidutsiar ipotea garovi; ~ guarantee insurance ipotekani kafolatlangan sug'urtasi; ~ loan ipoteka ssudasi; blanket ~ qarzdorni barcha mulkiga to'liq ipoteka; ;

<p>bond and ~ документ о залоге недвижимости в обеспечение уплаты долга, ипотечная закладная; chattel ~ продажа-залог движимости с условием о выкупе, ломбардный залог; conventional ~ обычный заклад имущества; junior ~ «младшая» ипотека (ипотека, которая по правам уступает первой); legal ~ законное залоговое право; second ~ вторая, вторичная. ипотека; senior ~ «старшая» ипотека (ипотека, которая имеет преимущественные права); tacit ~ законное залоговое право; welsh ~ ручной залог недвижимости, антихрез.</p>	<p>bond and ~ qarz to'lanishini ta'minlashda ko'chmas mulk garovi haqida hujjat, ipoteka garovi; chattel ~ garov mulkini sotib olish sharti bilan sotish, lombard garovi; conventional ~ oddiy mulk garovi; unior ~ «kichik» ipoteka (qoida bo'yicha birinchi beriladigan ipoteka); legal ~ qonuniy garov huquqi; second ~ ikkinchi, ikkinchi darajali ipoteka; senior ~ «katta» ipoteka (ko'proq huquqga ega bo'lgan ipoteka); tacit ~ qonuniy garov huquqi; welsh ~ mol-mulkning qo'l garovi, antixrez.</p>
MORTGAGEE	
кредитор по ипотечному залому, залогодержатель.	ipoteka garovi bo'yicha kredit beruvchi, garov egasi.
MORTGAGER, MORTGAGOR	
залогодатель, должник по ипотечному залому.	garov beruvchi, ipoteka garovi bo'yicha qarzdor.
MOTIVATION	
изменение; ревизия; пересмотр.	qayta ko'zdan kechirish; o'zgartirish; reviziya.
REVIVAL	
возобновление действия (договора и т. п.).	(shartnoma va b.) amal qilish muddatlarini yangidan o'rnatish.
REVIVE	
возобновлять.	qaytadan, yangidan o'rnatish.
REVIVOR	
возобновление дела.	ishni qaytadan (ko'rib chiqish uchun) yangilamoq.
REVOCABLE	
отзывной, могущий быть отозванным, взятым назад, отмененным, аннулированным; ~ transfer отзывная передача собственности.	chaqirib olinadigan, qaytarib olinadigan, bekor qilingan, rad qilingan; ~ transfer mulkni javoban berish.
REVOCATION	
отмена, аннулирование; отзыв; 2. ~ of offer отзыв оферты; 3. ~ of probate a ~ of offer аннулирование утверждения завешания; 4. ~ of will аннулирование завешания; 5. ~ of parole отмена постановления об освобождении по системе пароля.	bekor qilish; javob berish; ~ transfer shartnoma, bitim tuzish haqidagi taklifga javob; 3. ~ of probate a ~ of offer vasiyatnoma tasdig'ini bekor qilmoq; 4. ~ of will vasiyatnomani bekor qilish; 5. ~ of parole parol tizimi asosida ozodlikka chiqarish haqidagi qarorni bekor qilish.

REVOKE	
отменять; аннулировать; брать назад; отзываться.	bekor qilmoq; rad qilmoq; qaytarib olmoq; chaqirib olmoq.
REVOIT	
восставать; восстание; мятеж; 2. rise in ~ восставать; 3. repress (put down) a ~ подавить мятеж.	bosh ko'tarmoq; norozilik bildirmoq; isyon ko'tarmoq; 2. rise in ~ isyon ko'tarmoq; qo'zg'olon qilmoq; 3. repress (put down) a ~ qo'zg'olinni bostirmoq, isyonni tinchitmoq.
REWARD	
1. вознаграждать; 2. компенсация, вознаграждение.	1.taqdirlamoq, mukofotlamoq; 2. kompensatsiya, taqdirlash, mukofotlash.
RIGHT	
1. право (обычно в субъективном смысле); правопритязание; 2. правомерный; правый; справедливый; правильный; надлежащий; 3. ~ of action право на иск, обжалования; 4. ~ of defense право на защиту; 5. ~ of eminent domain право государства на принудительное отчуждение частной собственности; 6. ~ of enjoyment право пользования (имуществом); 7. ~ of entry право на вхождение во владение недвижимостью; 8. ~ of possession право владения; 9. ~ of redemption право выкупа заложенного имущества; 10. civil ~s гражданские права; 11. homestead ~ право на освобождение домашнего имущества от взыскания по долгам; 12. marital ~ супружеское право; право, возникающее в связи с вступлением в брак; 13. proprietary ~ право собственности, вещное право;	1. (subyektiv ma'noda odatda) huquq; huquq talab qiladigan; 2. qonuniy; haqqoniy; adolatli; to'g'ri; taalluqli; da'vo qilish huquqi; 3. ~ of action shikoyat qilish huquqi; 4. ~ of defense himoya olish huquqi; 5. ~ of eminent domain xususiy mulkni majburiy begonalashtirish bo'yicha davlatning huquqi; 6. of enjoyment (mulkdan) foydalanish huquqi; 7. ~ of entry ko'chmas mulk egaligiga kirish huquqi; 8. of possession egalik huquqi; 9. ~ of redemption garovga qo'yilgan mulkni sotib olish huquqi; 10. civil ~s fuqarolik huquqi; 11. homestead ~ qarzlarni to'lashga uy mulkidan mulkidan ozod qilish huquqi; 12. marital ~ er-xotinlik huquqi; nikohga kirish munosabati bilan paydo bo'lgan huquq; 13. proprietary ~ mulk huquqi, ashyoviy huquq;

14. real ~ вещное право; 15. reversionary ~ право на обратный переход имущества, возвратное право; 16. stipulated ~ обусловленное право. право из договора; 17. human ~ ~ право человека; 18. ~ of conscience свобода совести; 19. ~ confer the ~ наделить правом.	14. real ~ ashyoviy huquq; 15. reversionary ~ mulkni qaytarib o'tish huquqi, qaytarish huquqi; 16. stipulated ~ shartli huquq, shartnomada ko'rsatilgan huquq; 17. human ~ ~inson huquqlari; 18. ~ of conscience vijdon erkinligi; 19. ~ confer the ~huquq bermoq.
RIOT	
учинение беспорядка	tartibsizlik keltirib chiqarmoq
RISK	
1. риск; 2. ответственность страховщика; insurable ~ страхуемый риск; overall ~ совокупный риск; ~ premium компенсация служащим за риск, превышающий норму; manage the ~ избежать риска.	1. tavakkal, havf-xatar; 2. sug'urtalovchining javobgarligi; insurable ~sug'urta havf-xatari; overall ~umumiy havf-xatar; ~ premium normadan oshirilgan havf-xatar uchun xizmatchilarga kompensatsiya; manage the ~havf-xatardan qochish;
ROB	
совершать грабеж	talonchilik qilmoq
ROBBERY	
Грабеж	talonchilik; qaroqchilik.
ROBBING WITH VIOLENCE	
разбой с насилием	zo'rlik (kuch ishlatish) orqali talash.
ROGUE	
1. жулик; мошенник; 2. ~ 'gallery полицейский архив фотоснимков преступников; 3. ~ house тюрьма.	1. firibgar; qallob; o'g'ri, cho'ntakkesar, kisavur; 2. ~ 'gallery jinoyatchilarning rolitsiya idorasidagi suratlari; 3. ~ house qamoq, turma
ROGUERY	
мошенничество, жульничество.	qalloblik, firibgarlik, o'g'rilik, kisavurlik.
ROLL	
1. протокол судопроизводства; список; официальный список адвокатов;	1. sudda ko'rilgan ishlar bayonnomasi; advokatlar rasmiy ro'yxati; 2. ~ call nomma-nom ovozga qo'yish;

2. ~ call поименное голосование; 3. strike off the ~ лишать адвоката права практики.	3. strike off the ~ advokat (oqlovchini) o'z faoliyatidan chetlatish.
ROUNDSMAN	
(амер.) старший полицейский, полицейский инспектор.	politsiyaning katta nozimi; politsiya xodimi.
ROWDY	
хулиган, буян, головорез.	bezori, kallakesar, yo'lto'sar.
ROWDYISM	
хулиганство.	bezorilik.
ROYAL	
1. королевский; 2. ~ assent королевская санкция (принятото парламентом закона); 3. ~ prerogative королевская прерогатива.	1. saltanatga tegishli (xos.), qirol(icha) faoliyatiga aloqador; 2. ~ assent (parlament qabul qilgan qarorning) qirol(icha) tomonidan tasdiqlanishi; 3. ~ prerogative qirol(icha) faoliyatiga tegishli; qirol(icha) ixtiyoridagi.
RULE	
1. правило; 2. устанавливать правило; 3. норма права; 4. устанавливать правовую норму; 5. absolute ~ судебное постановление, прекращающее действие условного постановления; 6. ~ discharged отмененный приказ; 7. ~ ~ of court (procedure, practice) судопроизводство; 8. ~ ~ of evidence правила доказывания.	1. qoida; 2. qoida o'rnatmoq; 3. huquq normasi; 4. huquqiy norma o'rnatmoq; 5. absolute ~ shartli tarzda qabul qilingan qarorning bekor qilinishi haqidagi (yangitdan qabul qilingan) qaror; (avvalgi qarordan ko'ra ustunlikka ega bo'lgan) mutlaq kuchga ega bo'lgan qaror; 6. ~ discharged mahsus qaror; 7. ~ ~ of court (procedure, practice) sud olib borish tartibi (taomili); 8. ~ ~ of evidence isbotlash tartibi.
RULE 2	
править; постановлять; устанавливать норму (правило).	hukmdorlik qilmoq; hukm chiqarmoq; tartib o'rnatmoq.
RULER	
правитель.	hukmdor; qonun chiqaruvchi; qaror qabul qiluvchi; tartib o'rnatuvchi.
RULING	
постановление суда.	sud qarori.

RUN	
1. быть действительным, действовать, иметь силу; иметь хождение (о валюте); 2. вести дела; 3. течь (о сроке); следовать за . . . ; ~ a risk подвергаться риску.	1. haqiqiy bo'lmoq, amal qilmoq, kuchga ega bo'lmoq; (valyutaning) aylanishi; 2. ish yuritmoq; 3. (muddat) o'tmoq; . . . izidan bormoq; ~ a risk havf-xatarga yo'liqmoq.
RUNAWAY	
беглец, дезертир.	qochoq, qamoqdan qochgan mahbus.
RUNNING ACCOUNT	
открытый текущий счет.	joriy ochiq hisob raqami.
RUNNING	
1. течение (срока); 2. нарушение (блокады); ~ of the statute of limitations течение давностного срока; ~ with the land при передаче недвижимости правопреемнику условия пользования ею отходят вместе с недвижимостью; ~ with the reversion при обратном переходе имущественных прав к первоначальному собственнику отходят и условия пользования.	1. (muddaning) o'tishi; 2. (qurshovni) buzish; ~ of the statute of limitations oldingi muddatning o'tishi; ~ with the land ko'chmas mulkni merosxo'rga o'tkazishda undan foydalanish shartlari ko'chmas mulk bilan birga o'tib ketadi; ~ with the reversion mulk huquqlarini avvalgi egasiga qaytarib o'tishida foydalanish huquqlari ham o'tib ketadi.

SAFE	
1. сейф; 2. безопасный; сохранный; ~ pledge по ручительству за явку.	1.сейф; 2. xavfsiz; saqlangan; ~ pledge kelish uchun kafillik.
SAFEGUARD	
1. гарантия; 2. гарантировать; 3. защита; 4. защищать; 5. охрана; 6. охранять.	1. kafolat; 2. kafolat bermoq; 3. himoya; 4. himoya qilmoq; 5. muhofaza, mudofaa; 6. muhofaza qilmoq, qo`riqlamoq; mudofaa qilmoq.
SAFETY	
безопасность; сохранность; ~ arrangement and precautions охрана труда; occupational ~безопасность. техника безопасности на производстве; road ~ правила безопасности уличного движения; traffic ~ безопасность дорожного движения.	xavfsizlik; saqlanganlik; ~ arrangement and precautions mehnatni muhofaza qilish; occupational ishlab chiqarishdagi xavfsizlik texnikasi; road ~ ko`cha harakati xavfsizlik qoidalari; traffic ~ yo`l harakati xavfsizligi.
SALARY	
жалование, оклад.	maosh, oylik ish haqi, moyana.
SALE	
1. продажа; 2. торговая сделка; ~ by auction продажа с аукциона; ~ by commission комиссионная продажа; ~ contract договор продажи; ~ on credit продажа в кредит; ~ with right of redemption продажа с правом возвращения; contract of ~ договор купли- продажи; foreclosure ~ продажа заложенной недвижимости; installment ~ продажа в рассрочку; succession ~ продажа наследственного имущества с торгов; tax ~ продажа за неуплату налогов.	1. sotuv; 2. savdo bitimi; ~ by auction kim oshdi savdosi; ~ by commission komission sotuv; ~ contract sotuv shartnomasi; ~ on credit kreditga sotish; ~ with right of redemption qaytarib olish huquqi bilan sotish; contract of ~ oldi-sotdi shartnomasi; foreclosure garov mulkini sotish; installment ~ bo`lib-bo`lib to`lash sharti bilan sotish; succession ~ meros bo`lgan mulkni sotish; tax ~ soliq to`lamaganlik uchun sotish.

SANCTION	
1. одобрение; утверждение; санкция; 2. санкционировать; apply ~s применять санкции; civil sanction гражданско-правовая санкция.	1. oqlash, tasdiqlash; sanksiya; 2. sanksiya bermoq; apply ~s sanksiya qo'llamoq; civil sanction fuqarolik-huquqiy sanksiya.
SANE	
находящийся в здоровом уме; вменяемый.	sog'lom aqlda bo'lish; aqli raso.
SATISFACTION	
1. удовлетворение; сатисфакция; 2. встречное удовлетворение; 3. исполнение; 4. замена исполнения; ~ for injury возмещение вреда; ~ of a debt уплата долга; ~ of lien документ об освобождении имущества из-под залога; ~ of mortgage документ о выполнении обязательств под залог недвижимости; contract to ~ соглашение о выполнении обязательств одной стороной к удовлетворению другой; in ~ of в уплату.	1. qoniqtirish; satisfaksiya; 2. qarshi ta'minlash, qondirish; ta'minlanish, qondirilish; 3. bajarish; 4. bajarishni almashtirish; ~ for injury zararni qoplamoq; ~ of a debt qarzni to'lash; ~ of lien mol mulkni garovdan ozod qilish to'g'risidagi hujjat; ~ of mortgage ko'chmas mulk garovi ostida majburiyatlarni bajarish to'g'risidagi hujjat; contract to ~ boshqa tomonni qoniqtirish uchun bir tomonning majburiyatlar bajarish haqidagi kelishuv; in ~ of to'lovga.
SATISFY	
1. удовлетворять; соответствовать; отвечать (требованиям); 2. погашать (долг); выполнять (соглашение и т. п.); ~ a debt погашать долг; ~ an obligation выполнять обязательство.	1. qoniqtirmoq; mos kelmoq; (talabga) javob bermoq; 2. (qarzni) to'lamoq; (kelishuv va b.) bajarmoq; ~ a debt qarzni to'lamoq; ~ an obligation majburiyatni bajarmoq.
SAVE	
1. спасать; 2. сохранять действие; 3. делать оговорку; предусматривать изъятие, исключение; 4. за исключением, кроме; ~ the statute of limitations приостановить течение срока исковой давности.	1. qutqarmoq; 2. harakatni saqlamoq; 3. qo'shimcha shart kiritmoq; istisno, mustasnoni ko'zda tutmoq; 4. mustasno, -dan tashqarida; ~ the statute of limitations da'vo muddati to'xtatmoq.

SAVING	
1. изъятие; исключение; оговорка; 2. сбережение; экономия; накопление; ~s account сберегательный счет.	1. istisno; mustasno; qo'shimcha shart; 2. jamg'arilgan; to'plangan; yig'ilgan; ~s account jamg'arma hisobi.
SCOPE	
сфера применения; область: содержание; ~ of authority сфера полномочий агента; ~ of a patent область изобретения, защищенная патентом; ~ of immunity пределы иммунитета.	amal qilish doirasi; soha; mazmun-mohiyat; ~ of authority agent vakolatlari doirasi; ~ of a patent patent bilan himoyalangan ixtiro sohasi; ~ of immunity immunitet me'ori.
SEAL	
1. печать; 2. скреплять печатью; запечатывать; опечатывать.	1. bosma; 2. muxr bilan tasdiqlamoq; muxrlamoq.
SEARCH	
1. обыск; 2. розыск; ~ warrant ордер на обыск.	1. tintuv; 2. qidirish, izlash; ~ warrant tintuv o'tkazish uchun order.
SECEDE	
выходить (из союза), отделяться.	(ittifoqdan) chiqmoq, ajralmoq.
SECOND	
второй; ~ lien второе залоговое право; ~ mortgage вторая ипотека.	ikkinchi; ~ lien ikkinchi garov huquqi; ~ mortgage ikkinchi ipoteka
SECURE	
обеспечивать; предоставлять обеспечение; гарантировать; ~ judgement выиграть дело, добиться решения в свою пользу.	ta'minlamoq; kafolatlamoq; ~ judgement ishda yutib chiqmoq, o'z foydasiga chiqarilgan qarorga erishmoq.
SECURED	
обеспеченный; ~ transaction документально обеспеченная сделка.	ta'minlangan; ~ transaction hujjatlari ta'minlangan bitim.
SECURITIES	
ценные бумаги; interest bearing ~ процентные ценные бумаги.	qimmatli qog'ozlar; interest bearing ~ foizli qimmatli qog'ozlar.

SECURITY	
1. безопасность; 2. обеспечение; гарантия; залог; 3. оборотный документ; 4. поручительство; 5. поручитель; ~ for a claim обеспечение иска; ~ for a loan поручительство по займу; поручитель по займу; ~ for costs обеспечение иска; ~ of person личная неприкосновенность; give ~ давать гарантию; landed ~ закладная на недвижимость; real ~ закладные на землю.	1.havfsizlik; 2. ta'minot; ; garov; 3. teskari hujjat; 4. kafillik; 5. kafil, kafil bo'lgan kishi; ~ for a claim da'voni ta'minlash; ~ for a loan zayom bo'yicha kafillik; ~ for costs da'voni ta'minlash; ~ of person shaxsiy daxlsizlik; give ~ kafolat bermoq; landed ~ ko'chmas mulk uchun garovi; real ~ yer uchun garov.
SEEK	
искать; просить; добиваться; ~ damages требовать возмещения убытков.	qidirmoq; so'ramoq; ~ damages yetkazilgan zararlarni qoplashni talab qilmoq.
SEISED	
владеющий, находящийся во владении вещью; ~ in demesne as of fee владеющий на правах неограниченной собственности.	egalik qiluvchi, narsa egasi bo'lmoq; ~ in demesne as of fee cheklanmagan mulkka egalik qilish huquqlari.
SEISIN	
владение; ~ in deed/in fact фактическое владение; constructive ~ юридически подразумеваемое владение.	egalik; ~ in deed/in fact haqiqiy egalik; constructive ~ yuridik jihatdan nazarda tutiladigan egalik.
SEIZE	
1. захватывать; 2. налагать арест; 3. конфисковать; изъять.	1.bosib (egallab) olmoq; 2. hibsga olmoq; 3. konfiskatsiya qilmoq; musodara qilmoq.
SEIZURE	
1. захват; 2. наложение ареста; конфискация; 3. выемка; изъятие; ~ of property изъятие имущества; конфискация имущества;	1. bosib (egallab) olish; 2. hibsga olmoq; konfiskatsiya; 3. olib qo'yish (tekshirish vaqtida, reviziya va b.); musodara qilmoq; ~ of property mulkni musodara qilish; mulkni konfiskatsiya qilish;

~ under legal process арест имущества в порядке предварительного обеспечения иска/для обращения взыскания во исполнение вынесенного решения.	~ under legal process chiqarilgan qarorning ijrosini ta'minlash uchun/da'voni dastlabki qoniqtirish tartibida mol-mulkni hibsga olish.
SELL	
продавать; ~ by auction продавать с аукциона; ~ on account продавать в кредит; ~ out распродавать; ликвидировать контракт.	sotmoq; ~ by auction kim oshdi savdosida sotmoq; ~ on account kreditga sotmoq; ~ out sotib yubormoq; shartnomani bekor qilmoq
SELLER	
продавец.	sotuvchi.
SENILE	
престарелый.	juda qari, keksaygan.
SENIOR	
старший; главный; пользующийся преимуществом, преимущественный; более ранний по времени; ~ interest преимущественное право на долю владения.	katta; bosh; afzalliklardan foydalanuvchi, afzalliklarga ega; vaqtdan ancha oldingi; ~ interest egalik ulushiga imtiyozli huquq.
SENIORITY	
1. старшинство; 2. трудовой стаж.	1. kattalik, yuqorilik; 2. mehnat staji.
SENSE	
1. чувство, рассудок; 2. смысл; значение; in one's right ~s в здравом уме и твердой памяти.	1. hissiyot; idrok; 2. ma'no; ahamiyat; in one's right ~s sog'lom aqlda va kuchli xotirali.
SENTENCE	
1. наказание; приговор; 2. приговаривать; наказывать; pass выносить приговор.	1. jazo; hukm; 2. hukm qilmoq, jazolamoq; pass hukm chiqarmoq.
SEPARABLE	
делимый (договор).	bo'linadigan (shartnoma).
SEPARATE	
1. разделять(ся); 2. отдельный; сепаратный; 3. разлучать (о супругах);	1. ajratmoq; bo'lmoq; 2. bo'lingan; alohida; separat, bir tomonlama; 3. (er-xotinni) bir-biridan ajratmoq;

~ action раздельные действия каждого жалобщика по одному делу; ~ property раздельная собственность супругов.	~ action bir ish bo'yicha har bir da'vogarning alohida harakati; ~ property er-xotin alohida mulki.
SEPARATION	
1. отделение; разделение; 2. разлучение, раздельное жительство супругов (по соглашению, по решению суда); ~ by agreement раздельное жительство супругов по соглашению между ними; judicial ~ постановление суда о раздельном жительстве супругов.	1. bo'lim, bo'linma; bo'linish; 2. ayirish, (o'rtadagi kelishuv, sud qarori bo'yicha) er-xotinning alohida yashashi); ~ by agreement o'zaro kelishuv asosida er-xotinning alohida yashashi; judicial ~ er-xotinning alohida yashashi to'g'risida sud buyrug'i.
SEQUESTER	
1. отказываться от имущества покойного супруга; 2. депонировать предмет спора у третьего лица; 3. депозитарий предмета спора; 4. секвестр; наложение ареста; конфискация; 5. секвестровать; налагать арест.	1. vafot etgan erning mol-mulkidan voz kechmoq; 2. nizo predmetini uchinchi shaxsga o'tkazmoq; 3. janjal predmetini o'tkazmoq; 4. sekvestr, xatlash; xibsga olish; konfiskatsiya; 5. xatlamog, hibsga olmoq.
SEQUESTRATE	
секвестировать; налагать арест; конфисковать.	xatlamog; hibsga olmoq; konfiskatsiya qilmoq.
SEQUESTRATION	
1. секвестр; наложение ареста; 2. конфискация; 3. депонирование предмета спора у третьего лица.	1. sekvestr, xatlash; hibsga olish; 2. konfiskatsiya; 3. nizo predmetini uchinchi shaxsga o'tkazish
SERVE	
1. служить; обслуживать; 2. вручать; предъявлять; 3. отбывать (наказание); ~ a pleading вручить состязательную бумагу.	1. xizmat qilmoq; xizmat ko'rsatmoq; 2. qo'llab-quvvatlamog; taqdim qilmoq; 3. (jazoni) o'tamoq; ~ a pleading tortishuv qog'ozini topshirmog.
SERVICE	
1. служба; 2. уплата; ~ of process вручение (документа); ~ life срок службы (имущества);	1. xizmat; 2. to'lov; to'lanish; ; ~ of process (hujjat) topshirish); ~ life (mol-mulk) xizmat muddati);

diplomatic ~ дипломатическая служба.	diplomatic ~ diplomatik xizmat.
SERVICES	
услуги, обслуживание; social ~ социальное обеспечение.	xizmatlar, xizmat ko'rsatish; social ~ ijtimoiy ta'minot.
SERVIENT	
обремененный сервитутом; сторона, предоставляющая сервитут.	malol keladigan servitut; servitut taqdim etuvchi tomon.
SERVITUDE	
сервитут; land ~ земельный сервитут; personal ~ личный сервитут	servitut; land ~ er servituti; personal ~ shaxsiy servitut.
SET	
1. комплект; 2. аренда; 3. сдавать в аренду; 4. отдавать в залог; ~ aside 1. аннулировать, отменять, расторгать; 2. отклонять; ~ at naught ликвидировать; аннулировать.	1. komplet; 2. ijara; 3. ijaraga bermoq; 4. garovga bermoq; ; ~ aside 1. yo'q qilmoq, bekor qilmoq, buzmoq; 2. rad qilmoq; ~ at naught yo'qotmoq; bekor qilmoq.
SET-OFF	
зачет требований, судебный зачет; admitted ~ зачет требований, признанный истцом.	talablarni hisobga olmoq; sud tomonidan hisobga olish; admitted ~ da'vogar tomonidan tan olingan talablarni hisobga olmoq
SETTLE	
1. урегулировать; 2. оплачивать; 3. распорядиться имуществом в пользу кого-либо; 4. устанавливать, решать, определять; ~ a claim урегулировать претензию; ~ a contract заключить, оформить договор; ~ an alimony установить (кому-либо) содержание; ~ by compromise заключить мировую сделку; ~ difference урегулировать разногласие; ~ with creditors 1. прийти к соглашению с кредиторами; 2. расплатиться с кредиторами.	1. tartibga solmoq; 2. to'lamoq; 3. kimningdir foydasiga mol-mulkni tasarruf etmoq; 4. o'rnatmoq, hal qilmoq, aniqlamoq; ~ a claim shikoyatlarni tartibga solmoq; ~ a contract shartnoma tuzmoq, rasmiylashtirmoq; ~ an alimony mazmun-mohiyatini aniqlamoq; ~ by compromise xalqaro bitim tuzmoq; ~ difference kelishmovchiliklarni tartibga solmoq; ~ with creditors 1. kreditorlar bilan kelishuvga erishmoq; 2. kreditorlar bilan to'lovlarni amalga oshirmoq.

SETTLEMENT	
1. урегулирование; 2. уплата; расчет; 3. акт распоряжения имуществом; 4. администрация наследства; 5. ликвидация сделки; ликвидационный период; расчетные дни; ~ of account оплата счета; ~ option расчетный опцион при страховании жизни; amicable ~ 1. миролюбивое урегулирование спора; 2. мировая сделка; damage ~ покрытие убытков; family ~ соглашение об установлении режима семейной собственности; judicial ~ урегулирование в судебном порядке; marriage ~ акт распоряжения имуществом по случаю заключения брака; term of ~ условия соглашения; wage ~ соглашение о ставках, уровне заработной платы	1. tartibga solish; 2. to'lov; hisob kitob; 3. mol-mulkka egalik qilish akti; 4. meros rahbariyati; 5. bitimni likvidatsiya, bekor qilish; likvidatsiya, bekor qilish muddati; hisoblanadigan kunlar; ~ of account hisobni to'lash; ~ option hayotni sugurta qilishdagi hisob-kitob opsiioni; amicable ~ 1. nizolarni tinchlik yo'li bilan tartibga solish; 2. halqaro bitim; damage ~ zararlarni qoplash; family ~ oilaviy mulkni belgilash tartibi to'g'risidagi kelishuv; ; judicial ~ sud tartibda tartibga solmoq; marriage ~ nikoh tuzish bo'yicha mol-mulkka egalik qilish akti; term of ~ kelishuv shartlari; wage ~ ish haqqi darajasi stavkalari haqidagi kelishuv.
SETTLER, SETTLOR	
1. поселенец; 2. лицо, совершающее акт распоряжения имуществом в пользу кого-либо; ~ of trust учредитель доверительной собственности.	1. ko'chmanchi; kimningdir foydasiga mol-mulkni tasarruf etish aktini tuzuvchi shaxs; ~ of trust ishonch bildirib topshirilgan mulk ta'asis etuvchisi.
SEVERALTY	
1. раздельность; 2. самостоятельное обособленное имущественное право.	1. alohidalik; 2. mustaqil ajratilgan mulkiy huquq.
SHARE	
1. доля, часть; пай; 2. участие; 3. участвовать; 4. акция; ~ and share alike в равных долях; preference/preferred ~ привилегированная акция; registered ~ именная акция.	1. ulush, qism; pay, badal; 2. ishtirok; 3. qatnashmoq; 4. aksiya; ~ and share alike teng qismda; preference/preferred ~ imtiyozli aksiya; registered ~ nomiga berilgan aksiya.
SHAREHOLDER	
держатель акций, акционер.	aksiyalar egasi, aksiyador.

SHIP	
1. корабль, судно; 2. отгружать; 3. перевозить; ~ chartered ~ зафрахтованное судно; husband of a ~ генеральный агент судовладельцев по ведению дел, связанных с судном; salvage on ~ вознаграждение за спасение судна.	1. kema; 2. yukni kamaytirmoq, yukning bir qismini boshqa transportga olmoq; 3. boshqa joyga tashimoq; ~ chartered ~yollab qo'yilgan kema; husband of a ~kema bilan bog'liq ishlarni tartibga soluvchi bosh agent; salvage on ~ kemani qutqargani uchun mukofot.
SHIPMENT	
1. отгрузка, транспортировка; 2. груз; партия; port of ~ порт отгрузки; short ~ недоотгрузка.	1. yuklash, transportirovka; 2. yuk, partiya; port of ~ yuklash porti; short ~ yuk ortilmagani.
SHIPOWNER	
судовладелец; фрахтовщик.	kema egasi; kiraga kema beradigan kishi yoki tashkilot.
SHIPPER	
грузоотправитель; ~ shipment недоотгрузка; ~ delivery недопоставка.	yuk jo'natuvchi (shaxs. tashkilot); ~ shipment - yuk ortilmagani; ~ delivery yuk etib kelmagani
SHORT-SIGHTED	
краткосрочный.	qisqa muddatli, qisqa vaqtga mo'ljallangan.
SHORT-TERM	
краткосрочный; ~ debt краткосрочный долг.	qisqa muddatli; ~ debt qisqa muddatli qarz
SHOW	
1. показывать; выставлять; 2. показ; выставка; демонстрация; 3. доказывать; представлять доказательства; ~ cause представлять основания; ~ damage доказать наличие (причинения) вреда; ~ good title представить доказательства правового титула.	1. ko'rsatmoq; 2. ko'rsatish; ko'rgazma; namoyish; 3. isbotlamoq; isbot keltirmoq; ~ cause asos keltirmoq; ~ damage zarar miqdorini isbotlab bermoq; ~ good title huquqiy maqom dalillarini keltirmoq.
SICK	
больной; ~ benefit пособие по болезни; ~ leave отпуск по болезни; ~ list больничный лист.	kasal; ~ benefit kasallik nafaqasi; ~ leave kasallik bo'yicha ta'til; ~ list kasallik varaqasi.

SICKNESS	
болезнь, заболевание; social security ~ заболевание, оплачиваемое из средств социального обеспечения.	kasallik; social security ~ ijtimoiy ta'minotdan to'lanadigan kasallik.
SIDE	
1. сторона; 2. сторона по делу; 3. линия родства; 4. область юрисдикции суда; ~ in a cause сторона по делу; plea ~ гражданская юрисдикция.	1. tomon, taraf; 2. ishdagi tomonlar; 3. qarindoshlik liniyasi; 4. sudning yurisdiksiya sohasi; ~ in a cause ish bo'yicha tomon; plea ~ fuqarolik yurisdiksiyasi.
SIGHT	
1. предъявление; 2. предъявлять; акцептовать (тратту); at ~ по предъявлении.	1. ko'rsatish; 2. taqdim qilmoq, (chiqimni) tasdiqlamoq; at ~ taqdim qilingani bo'yicha.
SIGN	
1. знак; признак; обозначение; 2. подписывать, ставить подпись; расписываться; ~ manual собственноручная подпись.	1. belgi; alomat; ishora; 2. imzolamoq, imozo qo'ymoq; ~ manual o'z qo'li bilan qo'yilgan imzo.
SIGNATORY	
1. подписавшееся государство, подписавшаяся сторона; сигнатарий; 2. доверенность на право подписания документов.	1. imzo chekkan davlat, tomon; signatariy; 2. hujjatlarga imzo chekish huquqiga ishonchnoma.
SIGNATURE	
1. подпись; 2. подписание: ~ by procuration подпись по доверенности; fictitious ~ поддельная подпись; manual ~ собственноручная подпись; specimen of ~ образец подписи.	1. imzo; 2. imzolah; ~ by procuration ishonchnoma o'yicha imzo; fictitious ~ soxta imzo; manual ~ o'z qo'li bilan qo'yilgan imzo; specimen of ~ imzo namunasi.
SIGNER	
(ниже) подписавшийся.	quyida imzo chekuvchilar.
SIMILITER	
согласие на передачу вопроса, выдвинутого противной стороной, на разрешение суда присяжных.	savol berishga rozilik, qarshi tomonga masalani ochish, hakamlik sudining ruxsatiga.

SIMULATE	
1. симулировать, притворяться; 2. фальсифицировать, копировать.	1. simulirovatsiya qilmoq, mug'ombirlik qilmoq; 2. soxtalashtirmoq, qalbakilashtirmoq; nusxa qilmoq.
SINE	
лат. без; ~ animo revertendi лат. без намерения возвратить; ~ die лат. на неопределенный срок; без назначения новой даты.	lot. -siz; ~ animo revertendi lot. qaytarish niyatisiz; ~ die lot. belgilanmagan muddatga; yangi sana tayinlanmasdan.
SINGLE	
1. единственный; единый; 2. незамужняя; холостой; ~ tax единый налог.	1. yakka, yolg'iz; yagona; 2. turmushga chiqmagan; bo'ydoq; ~ tax yagona, umumiy soliq.
SINK	
1. вкладывать (денежные средства); 2. погашать, уплачивать (долг); 3. улаживать; ~ a debt погасить долг.	1. (pul mablag') qo'ymoq; 2. (qarzni) to'lamoq, uzmoq; 3. bartaraf qilmoq; ~ a debt qarzni to'lamoq
SLANDER	
1. устное оскорбление; устная клевета; 2. клеветать в устной форме.	1. og'zaki haqorat, tahqir; og'zaki tuhmat; 2. og'zaki shaklda tuhmat qilmoq.
SLANDERER	
клеветник.	tuhmatchi.
SLANDEROUS	
клеветнический.	tuhmat qilib aytilgan, tuhmatdan (bo'htonadan) iborat bo'lgan, bo'hton, yolg'on, uydirma.
SLIP	
талон; бланк; insurance ~ 1. документ о согласованных условиях страхования; страховой талон; 2. дополнительные условия страхования (на полосках бумаги, приклеенных к полису).	talon; blank; insurance ~ 1. kelishilgan sug'urta shartlari haqidagi hujjat; sug'urta taloni; 2. qo'shimcha sug'urta shartlari (sug'urta polisiga ilova qilingan).

SMUGGLE	
заниматься контрабандой, провозить контрабандным путем.	kontrobanda bilan shug'ullanmoq, kontrabanda yo'li bilan olib kirmoq.
SMUGGLER	
контрабандист, контрабандистское судно.	kontrabandist (kontrabanda bilan shug'ullanuvchi shaxs), kontrobanda kemasi.
SOCIAL	
социальный, общественный; ~ security services социальное обеспечение.	ijtimoiy, jamiyatga oid, jamoaviy; ~ security ijtimoiy ta'minot.
SOCIETY	
общество; товарищество; ~ in participation простое товарищество; building ~ строительное кооперативное товарищество; limited ~ общество с ограниченной ответственностью; mutual loan ~ общество взаимного кредита; protection ~ общество взаимного страхования.	jamiyat; o'rtoqlik, sherikchilik; ~ in participation oddiy, sodda sherikchilik; building ~qurilish kooperativ sherikchiligi; limited ~ma'suliyati cheklangan jamiyat; mutual loan ~o'zaro kredit jamiyati; protection ~ o'zaro sug'urta jamiyati.
SOLA	
тратта/чек, выставленные в одном экземпляре.	bir nusxada berilgan tratta/chek.
SOLICIT	
обращаться с просьбой, ходатайствовать, хлопотать, добиваться.	iltimos bilan murojat qilmoq, rasmiy iltimos qilmoq, ketidan yurmoq, erishmoq.
SOLICITATION	
ходатайство, просьба.	rasmiy iltimosnoma, iltimos.
SOLICITOR	
солиситор, адвокат, поверенный, стряпчий.	solisitor, advokat, ishonchli vakil, sud xodimi.
SOLIDARITY	
1. взаимная ответственность; 2. солидарность.	1. o'zaro javobgarlik; 2. birdamlik.
SOLUTION	
разрешение, решение (вопроса и т. п.).	ruxsat, (savol va b.) qaror.

SOLVE	
разрешать, решать (вопрос и т. п.).	ruxsat bermoq, (savol va b.) hal qilmoq.
SOLVENCY	
платежеспособность.	to'lashga layoqatli.
SOLVENDUM IN FUTURE	
лат. подлежащий оплате в будущем.	lot. kelgusida to'lanadigan.
SOLVENT	
платежеспособный.	to'lashga layoqatli.
SOLVIT ADDIEM	
лат. возражение ответчика со ссылкой на то, что он уплатил долг в надлежащий день.	lot. oxirgi kunlarda qarzni to'laganlik dalili borligi uchun javobgarning e'tirozi.
SOUND	
1. правильный; обоснованный; 2. здравый; 3. платежеспособный; 4. иметь отношение к чему-либо; ~ and disposing mind and memory в здоровом уме и твердой памяти.	1. to'g'ri; asoslangan; 2. sog'lom; 3. to'lashga layoqatli; 4. biror narsaga aloqador bo'lmoq; ~ and disposing mind and memory sog'lom aqlida va kchli xotirali bo'lmoq.
SOUNDING	
имеющий отношение к чему-либо; имеющий целью что-либо; ~ in contract вытекающий из договора; ~ in damage имеющий целью взыскание убытков.	biror narsaga aloqador bo'lmoq; nimagadir maqsad qilmoq; ~ in contract shartnomadan kelib chiqadigan; ~ in damage zararni undirish maqsadida.
SOURCE	
источник; ~ of income источник дохода.	manbaa; ~ of income daromad manbai.
SPECIAL	
1. специальный; особый; 2. отдельный; частный; ~ lien особое залоговое право.	1. maxsus; o'ziga xos; 2. alohida; ayrim, xususiy; ~ lien o'ziga xos garov huquqi.
SPECIALTY	
документ за печатью; ~ contract договор за печатью.	tasdiqlanishi kerak bo'lgan hujjat; ~ contract tasdiqlanishi kerak bo'lgan shartnoma.
SPECIMEN	
образец; ~ of signature образец подписи.	namuna; ~ of signature imzo namunasi.

SPEND	
тратить, расходовать.	sarf qilmoq.
SPOILIATION	
преднамеренное уничтожение/ искажение документа.	hujjatni qasddan yo'q qilish/dalillarni yashirish.
SPONSOR	
1. поручитель; 2. спонсор; 3. оказывать финансовую поддержку, спонсорскую помощь.	1. kafil, kafil bo'lgan shaxs; 2. homiyl; 3. moddiy, homiylilik yordami ko'rsatmoq.
SPOUSE	
супруг, супруга; divorced ~ разведенный супруг.	er, xotin; divorced ~ ajrashgan er.
SPURIOUS	
1. подложный; поддельный; фиктивный; 2. внебрачный, незаконнорожденный.	1. soxta; qalbaki; yolg'on; 2. nikohsiz ota-onadan tug'ilgan.
SQUAT	
самовольно селиться.	o'z xohishi bilan ko'chmoq.
SQUATTER	
самовольно поселившийся.	o'z xohishi bilan ko'chgan.
STAFF	
штат служащих, служебный персонал; кадры.	xizmat ko'rsatuvchilar shtati, xizmatchi personal, kadrlar.
STAKE	
ставка, заклад.	oylik, maosh, garov.
STAKEHOLDER	
1. посредник; 2. держатель заклада; депозитарий спорного имущества.	1. dallol; 2. garov egasi; nizoli mol- mulkni depozitga o'tkazmoq.
STALE	
просроченный; ~ check просроченный чек.	muddati o'tgan; ~ check muddati o'tgan chek
STAMP	
1. штамп, штемпель, печать; пломба; 2. ставить штамп, штемпель; 3. марка; bill ~ вексельный сбор.	1. shtamp, shtempel, muhr; 2. shtamp, shtempel bosmoq; 3. marka; bill ~ veksel yig'imi.

STAND	
1. иметь силу, оставаться в силе; 2. представлять перед судом; ~ security выступать поручителем; ~ seized of property владеть имуществом; witness ~ место для дачи свидетельских показаний в суде.	1. kuchga ega; o'z kuchida qolmoq; 2. sud oldida hozir bo'lmoq; ~ security kafil sifatida ishtirok etmoq; ~ seized of property mol-mulka egalik qilmoq; witness ~ sudda guvohlik berish uchun mo'ljallangan joy
STANDARD	
стандарт, норма; критерий; уровень; ~ of proof because of the preponderance of evidence критерий доказанности в силу наличия более веских доказательств (в гражданском процессе); civil ~s нормы гражданского права; нормы гражданского процесса; set the ~ for a contract устанавливать стандарт на контракт.	standart, norma; mezon; daraja; ~ of proof because of the preponderance (fuqarolik protsessida) qator ishonchli dalillarning mavjudligida isbotlash mezoni; civil ~s fuqarolik huquqi normalari, fuqarolik protsessi normalari; set the ~ for a contract shartnomaga standart o'rnatmoq.
STATE	
1. государство; 2. государственный; 3. штат (в США); 4. положение; 5. заявлять; сообщать; констатировать; creditor ~ государство-кредитор; debtor ~ государство-должник; delinquent ~ государство, нарушающее международное право; emergency ~ чрезвычайное положение; ~ of international law государство-субъект международного права; ~ ownership государственная собственность; marriage/matrimonial ~ состояние в браке, брак, супружество.	1. davlat; 2. davlatga oid; 3. shtat (AQShda); 4. holat; 5. arz qilmoq; xabar qilmoq; qayd qilmoq, tasdiqlamoq; creditor ~kreditor davlat; debtor ~qarzdor davlat; delinquent ~xalqaro huquqni buzuvchi davlat; emergency ~favqulotta holat; ~ of international law xalqaro huquq subekti bo'lgan davlat; ~ ownership davlat mulki; marriage/matrimonial ~ nikohda bo'lish, nikoh; er-xotinlik.
STATELESS	
не имеющий гражданства.	qfuqaroligi bo'lmagan.
STATEMENT	
1. заявление; утверждение; формулировка;	1. ariza; tasdiqlash; aniq ifoda qilish; 2. hisobot; balans;

<p>2. отчет; баланс; 3. ведомость; смета; ~ of affairs финансовый документ, составляемый в случаях неплатежеспособности / банкротства; ~ of claim исковое заявление; ~ of confession доверенность; ~ of defense письменное возражение ответчика по иску; ante-mortem ~ предсмертное заявление; birth ~ запись о рождении, регистрация рождения; financial ~ финансовая отчетность.</p>	<p>3. vedomost; smeta; ~ of affairs to'lashga layoqatsiz holati/bankrotlik holatida tuziladigan moliyaviy hujjat; ~ of claim da'vo arizasi; ~ of confession ishonchnoma; ~ of defense javobgarning da'voga yozma qarshiligi; ante-mortem ~ o'lim oldidan yozilgan ariza birth ~ tug'ilganlik haqidagi qayd; financial ~ moliyaviy javobgarlik.</p>
<p>STATUS</p>	
<p>статус; гражданское состояние; disability ~ нетрудоспособность; in duty ~ при исполнении служебных обязанностей; marital ~ состояние в браке.</p>	<p>maqom; fuqarolik holati; disability ~ mehnatga layoqatsiz; in duty ~ xizmat majburiyatini bajarayotganda; marital ~ nikoh holatida.</p>
<p>STATUTE</p>	
<p>статут; законодательный акт; ~ of limitations закон об исковой давности, исковая давность; ~ of the International Court of Justice Статут Международного Суда (ООН).</p>	<p>maqom; qonun chiqaruvchi akt; ~ of limitations da'vo muddati haqidagi qonun, da'vo muddati; ~ of the International Court of Justice xalqaro sud maqomi (BMT).</p>
<p>STATUTE-BARRED, STATUTE-RUN</p>	
<p>не имеющий исковой силы вследствие истечения срока исковой давности.</p>	<p>tergovda da'vo muddati tamom bo'lgan da'vo kuchini yo'qotgan</p>
<p>STATUTORY</p>	
<p>установленный законом; действующий в силу закона, основанный на законе, предусмотренный законом, статутный; ~ lien статутное залоговое право.</p>	<p>qonun bilan o'rnatilgan; qonuniy kuchga ega, qonunga asoslangan, qonunda ko'zda tutilgan, statutli; ~ lien statutli garov huquqi.</p>

STAY	
1. приостанавливать; 2. приостановление; 3. отсрочивать; 4. отсрочка; ~ of action приостановление/ прекращение рассмотрения дела; ~ of execution приостановление исполнения судебного решения/ приговора; ~ of execution pending appeal приостановление исполнения впредь до разрешения апелляционной жалобы.	1. to'xtatib qo'yimoq; 2. to'xtatib qo'yish; 3. kechiktirmoq; 4. muhlat berish; ~ of action ish ko'rishni to'xtatib qo'yish; ~ of execution sud qarori/hukmi ijrosini to'xtatib qo'yish; ~ of execution pending appeal apelyatsiya shikoyatlari ruxsat etilguncha ijroni oldindan to'xtatib qo'yish.
STEPCHILD	
приемный ребенок.	boqib olingan bola.
STEPFATHER	
приемный отец. отчим.	boqib olgan ota, o'gay ota.
STERMOTHER	
приемная мать. мачеха.	boqib olgan ona, o'gay ona.
STIPEND	
жалование; регулярное пособие.	muruvvat qilish, muntazam yordam.
STIPULATION	
1. условие. оговорка; 2. соглашение между адвокатами сторон; 3. поручительство за явку ответчика в суд.	1. shart, qo'shimcha shart; 2. tomonlarning advokatlari o'rtasidagi kelishuv; 3. javobgarni sudda hozir bo'lishi uchun kafil.
STIPULATOR	
договаривающаяся сторона (контракта).	kelishuvchi tomonlar (shartnoma).
STOCK	
1. товар; 2. запас; материальная база; 3. капитал; 4. акции; облигации; ценные бумаги; ~ association акционерная компания; ~ corporation акционерная корпорация; ~ market фондовый рынок; ~ power доверенность на передачу титула собственности; inscribed ~ именные акции/ облигации.	1. tovar, mol; 2. g'amlab qo'yilgan; moddiy baza; 3. kapital; 4. aksiya; obligatsiya; qimmatli qog'ozlar; ~ association aksiyadorlik kompaniyasi; ~ corporation aksiyadorlik korporatsiyasi; ~ market jamg'arma bozori; ~ power mulkka maqom beruvchi ishonchnoma; inscribed ~ nomiga atalgan aksiya/ obligatsiya.

STOCKHOLDER	
1. акционер; 2. владелец государственных ценных бумаг.	1. aksiyador; 2. davlat qimmatli qog'ozlari egasi.
STORAGE	
хранение (товаров) на складе.	(tovar, molni) omborda saqlash
STOREHOUSE	
склад.	ombor, omborxonona
STRANGER	
1. иностранец; 2. третье лицо.	1. chet ellik; 2. uchinchi shaxs.
SUABILITY	
1. право выступать в суде в качестве ответчика; 2. возможность привлечь в качестве ответчика; 3. подсудность.	1. javobgar sifatida sudga qatnashish huquqi; 2. javogar sifatida jalb etish imkoniyati; 3. sudga oid; sudga ko'riladigan.
SUABLE	
имеющий право отвечать в суде; могущий быть привлеченным в качестве ответчика.	sudga javob berish huquqiga ega; javobgar sifatida jalb etilishi mumkin bo'lgan.
SUBCONTRACT	
1. субдоговор; 2. заключать субдоговор.	1. subshartnoma; 2. subshartnoma tuzmoq.
SUBCONTRACTOR	
субконтрагент; субпоставщик; субподрядчик.	subkontragent; subtaminlovchi; subpudratchi.
SUB-DEMISE	
субаренда.	subijara.
SUBFREIGHTER	
субфрахтователь.	kemani yollagan subshaxs.
SUBJECT	
1. поданный; 2. предмет (договора, иска и т. д.); 3. субъект; 4. объект; 5. подчинять; 6. подчиненный; зависимый; ~ in contest/in issue предмет судебного спора; ~ of action предмет иска;	1. fuqaro; 2. (shartnoma, da'vo va b.) predmeti; 3. subyekt; 4. obyekt; 5. bo'ysunmoq; 6. bo'ysunuvchi; qaram; ~ in contest/in issue sud tortishuvining predmeti; ~ of action da'vo predmeti;

<p>~ of controversy предмет спора; ~ of litigation предмет тяжбы; ~ of suit предмет иска; ~ to call подлежащий возврату по первому требованию; ~ to conditions на условиях.</p>	<p>~ of controversy tortishuv predmeti; ~ of litigation tortishuv predmeti; ~ of litigation sudlashuv predmeti; ~ of suit da'vo predmeti; ~ to call birinchi talab bo'yicha qaytariladigan; ~ to conditions shartlarda.</p>
SUBJECT-MATTER	
предмет (договора, спора и т. д.)	(shartnoma, nizo va b.) predmeti.
SUBLEASE	
1. поднаем; субаренда; 2. заключать договор субаренды.	1. ijara; subijara; 2. subijara shartnomasini tuzmoq.
SUBLESSEE	
субарендатор.	subijarachi.
SUBLESSOR	
отдающий в субаренду.	subijaraga beruvchi.
SUBLET	
передавать в субаренду.	subijaraga bermoq.
SUBMIT	
1. представлять (документ), передавать на рассмотрение (в суд); 2. заявлять (ходатайство); 3. подчиняться; ~ to arbitration передать в арбитраж; ~ to terms принять условия.	1. (hujjat) taqdim qilmoq, (sudda) ko'rib chiqishga topshirmoq; 2. arz qilmoq; 3. bo'ysunmoq; ~ to arbitration hakamlar sudiga topshirmoq; ~ to terms larni qabul qilmoq.
SUBMORTGAGE	
ипотечный подзалог.	ipoteka garovida.
SUBMORTGAGEE	
кредитор по ипотечному подзалогу.	ipoteka garovi bo'yicha kreditor.
SUBMORTGAGOR	
должник по ипотечному подзалогу.	ipoteka garovi bo'yicha qarzdor.
SUBROGATION	
суброгация.	subrogatsiya.
SUBROGEE	
лицо, к которому переходят права в порядке суброгации.	subrogatsiya tartibida huquq o'tadigan shaxs.
SUBSCRIBE	
подписываться; приобретать по подписке.	imzo chekmoq; obuna bo'yicha ega bo'lmoq.

SUBSCRIBER	
подписчик.	obunachi.
SUBSCRIPTION	
1. подписание; 2. подписка; 3. подпись.	1. imzo chekish; 2. obuna bo`lish; 3. imzo.
SUBSIDIARY	
1. субсидиарный; ~ liability субсидиарная ответственность; 2. дочерняя компания.	1. subsidiyali; ~ liability subsidiyali javobgarlik; 2. sho`ba korxon.
SUBSIDY	
субсидия, дотация.	subsidiya, dotatsiya.
SUBSTANTIVE	
1. касающийся существа; 2. основной, главный; 3. материально-правовой; ~ law материальное право.	1. mazmunga tegishli; 2. asosiy, bosh; 3. moddiy-huquqiy; ~ law moddiy huquq
SUBSTITUTE	
1. заменять; 2. замена, субститут; 3. представитель.	1. almashtirmoq; 2. almashish, o`rnini bosa oluvchi; 3. vakil.
SUBTENANT	
субарендатор, поднаиматель.	subijarachi. yollovchi.
SUBTRACTION	
неправомерный отказ в предоставлении прав/имущества.	huquq/mol-mulkni taqdim qilishda noqonuniy rad etiih.
SUCCEED	
1. наследовать; 2. выигрывать (дело в суде).	1. meros (tariqasida) olmoq; 2. (sudda ishni) yutib chiqmoq.
SUCCESSFUL	
успешный, удачный; ~ party сторона, выигравшая дело в суде.	muvaqqiyatli, omadli; ~ party sudda ishni yutgan tomon.
SUCCESSION	
1. правопреемство; наследование; 2. имущество, переходящее по наследству; ~ on intestacy наследование при отсутствии завещания, наследование по закону; hereditary ~ 1. правопреемство в силу наследования; 2. наследование по закону;	1. meros olish huquqi, merosxo`rlik; 2. meros bo`yicha o`tadigan mol-mulk; ~ on intestacy vasiyatnoma yo`qligidagi merosxo`rlik, qonun bo`yicha merosxo`rlik; hereditary ~ 1. meros kuchida meros olish huquqi; 2. qonun bo`yicha merosxo`rlik;

<p>intestate ~ наследование при отсутствии завещания; irregular ~ правопреемство при отсутствии наследников;</p> <p>legal ~ 1. правопреемство; 2. наследование по закону; mass of the ~ наследственная масса; testamentary ~ наследование по завещанию; testate ~ передача имущества по завещанию; vacant ~ 1. открывшееся наследство; 2. не востребовавшее наследство.</p>	<p>intestate ~ vasiyatnoma yo'qligidagi merosxo'rlik; irregular ~ merosxo'rlar yo'qligidagi vorislik; legal ~ 1.vorislik; 2. qonun bo'yicha merosxo'rlik; mass of the ~ meros massasi; testamentary ~ vasiyatnoma bo'yicha merosxo'rlik; testate ~vasiyatnoma bo'yicha mol-mulk topshirish; vacant ~ 1. ochilgan meros; 2. talab qilinmagan meros.</p>
SUCCESSOR	
правопреемник; преемник, наследник.	meros olishuvchi; merosxo'r.
SUE	
искать в суде, выступать в качестве истца, предъявлять иск; преследовать по суду; ~ at law искать в суде, выступать и качестве истца, предъявлять иск; ~ charges судебные издержки истца; ~ in contract предъявлять иск, основанный на договоре, искать из договора; ~ out испросить в порядке ходатайства.	sudda da'volashmoq, davogar sifatida qatnashmoq. da'vo qilmoq; sudda da'volashmoq; ~ at law sudda da'volashmoq, davogar sifatida qatnashmoq. da'vo qilmoq; ~ charges da'vogarning suddagi xarajatlari; ~ in contract shartnomaga asosan da'voni taqdim qilmoq, shartnomadan da'vo qilmoq; ~ out rasmiy iltimos tartibida so'rab olmoq.
SUFFER	
1. пострадать; 2. потерпеть, понести (убытки); 3, разрешать, позволять; допускать; ~ a loss понести ущерб; ~ by default проиграть дело вследствие неявки в суд; ~ damages понести убытки.	1. jabrlanmoq; 2. aziyat chekmoq, (ziyonga) duchor bo'lmoq; 3. ruxsat bermoq; ~ a loss zarar ko'rmoq; ~ by default sudda qatnashmaslik natijasida ishni yutqazmoq; ~ damages zarar ko'rmoq
SUFFERER	
пострадавший, потерпевший.	jabrlangan, aziyat chekkan.
SUICIDE	
1. покончить с собой; покончить жизнь самоубийством;	1. o'zini o'zi o'ldirish, o'z joniga qasd qilmoq;

2. самоубийство; 3. самоубийца.	2. o'z joniga qasd qilish; 3. o'zini o'zi o'ldirgan (o'z joniga qasd qilgan) kishi.
SUIT	
иск; судебное дело; судебная тяжба; судебный процесс; судопроизводство; ~ for alimony иск о взыскании алиментов; ~ in rem вещный иск; administration ~ иск об учреждении администрации имущества умершего; ancillary ~ акцессорное требование, вытекающее из основного иска; bring a ~ возбуждать тяжбу; civil ~ гражданский иск; divorce ~ бракоразводный процесс; interest ~ спор о праве быть администратором наследства; paternity ~ процесс об установлении отцовства.	da'vo; sud ishi; sud tortishuvi; sud protsessi; sudda ish yuritish; ~ for alimony aliment undirish haqidagi da'vo ariza; ~ in rem ashyoviy da'vo; administration ~ vafot etgan shaxsning mol-mulkini tashkilot ma'muriyati tomonidan ta'sis etilishi haqidagi da'vo; ancillary ~ asosiy da'vodan kelib chiqadigan aktsessor talab; bring a ~ da'vo qo'zg'atmoq; civil ~ fuqarolik da'vosi; divorce ~ nikoh bekor qilinish protsessi; interest ~ meros boshqaruvchisi bo'lish huquqi to'g'risidagi tortishuv; paternity ~ otalikni belgilash protsessi.
SUITOR	
1. тяжущаяся сторона, сторона в деле; 2. истец.	1. da'volashuvchi tomonlar, ishdagi tomonlar; 2. da'vogar.
SUM	
сумма, итог; количество; ~ in dispute цена иска, исковая сумма; ~ insured страховая сумма.	summa, natija; miqdor; ~ in dispute da'vo narxi, da'vo summasi; ~ insured sug'urta summasi.
SUMMON	
вызывать; вручать приказ о вызове в суд.	chaqirmoq; sudga chaqish to'g'risidagi buyruqni topshirmoq.
SUMMONS	
1. приказ о явке в суд; извещение ответчика о предъявленном иске; судебная повестка; 2. обращение с ходатайством к судье; debtor's ~ судебный приказ должнику об урегулировании долга;	1. sudda qatnashish haqidagi buyruq; taqdim qilingan da'vo haqida javobgarga xabar berish; sud povestkasi; 2. sudyaga rasmiy iltimosnoma bilan murojat qilish; debtor's ~ qarzlarini tartibga solish haqida qarzdorga sud buyrug'i;

originating ~ вызов в суд (исковая форма для установительных исков).	originating ~ sudga chaqiruv (ko'rsatiladigan da'volarni uchun da'vo shaklida).
SUPERANNUATION	
1. увольнение по старости; перевод на пенсию; 2. пенсия по старости.	1. qariligi tufayli ishdan bo'shatmoq; 2. qarilik bo'yicha pensiya.
SUPERFICIARY	
1. собственник строения, находящегося на чужой земле; суперфициарий; 2. строение, находящееся на чужой земле.	1. o'zganing yerida joylashgan qurilishning egasi; superfitsiariy; 2. o'zganing erida joylashgan qurilish.
SUPERFICIES	
1. право собственности на строения, находящиеся на чужой земле; 2. строения, находящиеся на чужой земле.	1. o'zganing erida joylashgan qurilishga egalik huquqi; 2. o'zganing yerida joylashgan qurilish.
SUPERIOR	
1. начальник; 2. старший; 3. высший, вышестоящий.	1. boshliq; 2. katta; 3. oliy, yuqori turuvchi.
SUPERIORITY	
1. старшинство; 2. преимущественное право; 3. превосходство; преобладающее значение; главенство; примат.	1. kattalik (yosh martaba, mavqe va boshqa jihatdan); 2. imtiyozli huquq; 3. ustunlik; ahamiyat kasb etadigan; boshchilik; ustunlik, afzallik.
SUPERSEDEAS	
1. приказ апелляционного суда о приостановлении исполнения решения нижестоящего суда; 2. временное отстранение от должности.	1. quyi sud qarori bajarilishini to'xtatish haqidagi apelyatsiya sudining qarori; 2. vazifadan vaqtincha chetlatish.
SUPERSESION	
отмена; замена (одним законом другого закона).	bekor qilish; (bir qonunni boshqasi bilan) almashtirish.
SUPERVENING	
последующий, наступивший впоследствии.	keyingi, galdagi, oqibatida kelib chiqadigan.

SUPPLIER	
поставщик.	taminlovchi, yetkazib beruvchi.
SUPPLIES	
снабжение.	ta'minot.
SUPPLY	
1. поступление; поставка; 2. поставлять; доставлять; 3. расходная часть бюджета.	1. kelib tushgan (narsa); etkazib berish; 2. yetkazib bermoq, eltib bermoq; 3. byudjetning sarf qilinadigan qismi.
SUPPORT	
1. поддерживать; 2. поддержка; 3. обоснование аргументации; ~ a family содержать семью; ~ order дополнительное постановление; marital ~ материальная поддержка одним супругом другого.	1. qo'llab-quvvatlamq; 2. yordam, madad, dalda; 3. dalil-isbotlar asosi; ~ a family oilani boqmoq; ~ order qo'shimcha qaror; marital ~ birinchi turmush o'rtog'ining ikkinchisiga ko'rsatayotgan moddiy yordami.
SUPPRESS	
1. подавлять; пресекать; запрещать; 2. скрывать, утаивать, замалчивать; ~ a fact скрывать факт.	1. bostirmoq; oldini olmoq; taqiqlamoq, man qilmoq; 2. sir saqlamoq, yashirmoq; ~ a fact dalilni yashirmoq.
SUPREMACY	
верховенство; примат; супрематия.	oliylik; primat, birinchilik, ustunlik; suprematiya; rahbarlik, boshchilik.
SUPREME	
верховный. высший.	oliy.
SURCHARGE	
